



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan
chiqa boshlagan

2020-yil. 10-son.

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

1-OKTYABR – O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI



Сочинительные союзы	
Соединительные	и, да (и), тоже, также, ни...ни, (перечисление) не только...но
Противительные	а, а, да, (яко)
Разделительные	или, либо, или...или, не то...то или...и
Подчинительные союзы	
Изыскательные	что, чтобы
Временные	когда, едва, лишь
Причины	так как, поскольку
Цели	чтобы, в связи с тем что
Условные	если, в том случае если
Целительные	чтобы
Сопоставительные	хотя, несмотря на

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni asosida 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami arafasida bir guruh vatandoshlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi. Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 250-umumta'lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi **Zulfiya Abduraimova** ham o'z kasbiga fidoyi va ilg'or pedagog sifatida «**Mehnat shuhrati**» ordeni bilan mukofotlandi.

Ushbu son



Metodik tavsiya

Ona tili darslarida matn ustida ishlash

5-bet



Tahlil

O'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish

18-bet



Tadqiqotlar

Epik asarlarda Sohibqiron obrazini yaratish tamoyillari

31-bet



Лучший учитель-филолог – 2020

Воспитательная сила литературы

49-bet

FANIMIZ FIDOYILARI



Зульфия АБДУРАИМОВА,
учитель русского языка и литературы
школы №250 Юнусабадского района. Отличник народного
образования, автор учебников «Русский язык для 2-, 7-, 10- и
11-го класса, а также серии сборников, диктантов и тестов
для школ с узбекским и русским языком обучения.



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 10-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2020.18.11. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₂. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasida. 10, 11 kegl. "PRINT REBEL" matbaa korxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Olmazor tum., O'rozboyev ko'chasi, 35- uy. Buyurtma №:27 Adadi 2800 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING I SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

TAVSIYA

Oydin MO'MINOVA. Globallashuv va ta'lim: o'zbek tilini o'qitishning yangi yo'nalishlari 3
METODIK TAVSIYA

Xolida G'ULOLOVA. Ona tili darslarida matn ustida ishlash 5

Iroda ULUGBEKOVA. Integrating languages and other subjects 7

Komila RADJABOVA. Matn bilan ishlash orqali o'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash 9
ILGOR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Feruzaxon ABDUSALOMOVA. Morfologik erтак 12

Muhabbat YUSUPOVA. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda leksikani boyitish yo'li 13

Ra'no YUSUBOVA, Yulduz QURBONOVA. Undalmalar va ularni o'rganishda grafik organayzerlardan foydalanish 14
MULOHAZA

Dono ZULPIYEVA. Talabalarga chet til o'qitishning produktiv metodi 15
TAHLIL

Sabohat SHUKUROVA. O'zbek va ingliz tillarida ergash gapli qo'shma gap turlarini o'qitish muammolari 17

Umid HAMROYEV. O'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish 18
TEACHING ENGLISH

Iroda MIRZAEVA. Analysis of IELTS writing task two criteria 21
TADQIQOTLAR

Nilufar ABDULLAYEVA. Tojik, o'zbek va ingliz tillarida mevali o'simliklarning ifodalanish xususiyatlari 23

Oysuluv UROLOVA. Ingliz va o'zbek tillarida uylanish, turmushga chiqish va nikoh bilan bog'liq maqollar semantikasi 25

Zayniddin NARMURATOV. Ingliz va o'zbek tillaridagi ta'lim va ilimga oid maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari 28

Muhayyo Hamraeva. Epik asarlarda sohibqiron obrazini yaratish tamoyillari 31

Zulfiya MAMARAJABOVA. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish tamoyillari va metodlari tavsifi 32
KICHIK TADQIQOT

Zoir RAHMATOVA. O'quv ensiklopediyalarining yaratilish tarixidan 35

Nozima YULDASHEVA. O'zbek tilidagi nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari 37

Feruza DJURAYEVA. Saj' lafziy san'atining ilk o'rta asrlar arab xitobalariga qo'llanilishi 38

Shahnozaxon KOMOLOVA. O'zbek va nemis lug'atshunoslik tarixiga bir nazar 40

Iqbolov Adizova. Irfoniy ma'no talqini tamoyillari 42

Odinaxon SAIDAXMEDOVA. O'zbek tilida jo'nalish kelishigining o'zlashtirilish tajribasidan Farrux Sattarov. Amerika bolalar adabiyotining rivojida Mark Tven ijodining o'rni 44

Kamolola HAYDAROVA. Olxo'ri nomlari va ular asosida yasalgan leksik birliklar 48
ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ - 2020

Sitora RAHMONOVA. Воспитательная сила литературы 49
МЕТОДИКА. ОПЫТ

Farhod RAHMANOV. Как сказать о месте действия? 51

Zulfiya MADAMINOVA. Как сказать о порядке предметов при счёте? 52

Виктория ДВОРЯШИНА. Согласованное и несогласованное определение в русском языке 53
ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Aziza BEDILOVA, Saodat ISMAILOVA. Интерактивное обучение в высшем профессиональном образовании с экономическим направлением 56
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Sojida DJURAEVA. Использование современных педагогических технологий на уроках русского языка 59

Shoira RAHMONOVA. Поиск новых путей 60
ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Shahista TAHIRJANOVA. Функции автономии в тексте художественного произведения 61

Kamila XASANOVA. Понятие неологизма и окказионализма в лингвистике 63
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Shaxlo BOTIROVA. Роль художественного психологизма в метафорической гармонизации реальности человека и жизни 64
К ЮБИЛЕЮ ПОЭТА

Dilfuza MARUPOVA. У истоков русской психологической прозы 67
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Feruza SAFAROVA. Организация учебного процесса по русскому языку с использованием технологии «Артпедагогика» 69
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Azizxon RAHMONOV. Роль социально-психологической компетенции в подготовке будущих учителей русского языка 71
ОБРАЗОВАНИЕ: ОПЫТ, АНАЛИЗ, РЕЗУЛЬТАТЫ

Dusmurod DJURAEV, Mukaddas JURAEVA. Факторы формирования нового качества обучения в системе вузовского образования 73
КУЛЬТУРА РЕЧИ И ОБЩЕНИЯ

Ramina YAGFAROVA. Молодежный сленг сегодня 75
ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Margarita BULYCHEVA. На правильном ли пути обучение иностранным языкам? 77
ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ

Xandurdy MYATIEV. Ценностно-смысловые основы духовно-нравственной культуры личности 78



Xalqaro robototexnika musobaqasida "Barkamol avlod" bolalar maktabi to'garak a'zolari "Chiqindilarni saralash" injenerlik loyihasi bilan ishtirok etib, oltin medalni qo'lga kiritdi.

1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tizimda raqamli ta'limni rivojlantirish, maktab o'qituvchilari uchun tayyorlanayotgan elektron dasturlarni boyitishga o'z hissasini qo'shib kelayotgan bir guruh o'qituvchilar Xalq ta'limi vazirligi hamda Uzkard kompaniyasi tomonidan zamonaviy planshet va tashakkurnomalar bilan taqdirlandilar.

Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida Abdulla Qodiriy ijod maktabi jamoasi ishtirokida "Ona tilim, sensiz jonim ruhsizdir" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Yunusobod tumanidagi 260-maktabda 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tashkil etilgan tadbirda maktab kutubxonasiga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi bilan "Ijod" jamoat fondi mablag'lari hisobidan chop etilgan 103 nomdagi 750 dona kitob sovg'a qilindi.

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar drama teatrida Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni asosida "Bahrom va Dilorom" spektakli jamoatchilik e'tiboriga taqdim etildi.


22-oktabr kuni "Zoom" platformasi orqali "Badiiy adabiyot – bir-birimiz sari yo'l" mavzusidagi xalqaro davra suhbat bo'lib o'tdi. Onlayn tadbirda O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, Gruzziya, Litva, Serbiya mamlakatlari yozuvchi, tarjimon va adabiyotshunoslari ishtirok etdilar.

Xalq ta'limi vazirligi hamda Respublika iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamgarmasi bilan hamkorlikda "Nutqimizda so'zlar jilosi" shiori ostida umumta'lim maktablarining ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari o'rtasida tanlov tashkil etilmoqda.

Kelgusi o'quv yilidan faqat davlat granti asosida qabul ko'rsatkichlari belgilanadi. To'lov-kontrakt bo'yicha qabul kvotasini OTMLar mustaqil belgilaydi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga binoan, 2020-yil 1-dekabrda boshlab bosqichma-bosqich bakalavriat ta'lim yonalishlariga mos fanlar majmuasidagi umumta'lim fanlaridan bilish darajasini baholashning milliy test tizimi joriy etiladi.

Koreya Respublikasi Eksimbanki ishtirokidagi "Maktab ta'limida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni yanada rivojlantirish" loyihasi doirasida Qoraqalpog'istondagi 260 ta umumta'lim maktablari 3 ming 997 dona zamonaviy kompyuter jamlanmasi bilan jihozlandi.



M. Do'stmuhamedova tayyorladi.



Oydin MO'MINOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

GLOBALASHUV VA TA'LIM: O'ZBEK TILINI O'QITISHNING YANGI YO'NALISHLARI

Milliy ruhni rivojlantiruvchi kuch – bu davlat tili. Davlat tilining mavqeyini ko'tarish shartlaridan biri esa kishilarning tilga ongli munosabati va mas'uliyatini kuchaytirishdan iborat. Milliy ruhi kuchsiz xalq o'zga tugul hatto o'zini boshqara olmasligi ayni haqiqat. Til millat ruhining tirgagi bo'lishiga II Jahon Urushida yanchilgan Yaponiyani misol qilib keltirsak, ular 170 ga yaqin til institutlarini barpo etish orqali xalqining milliy ruhini ko'taribgina qolmay, balki butun olamni lol qoldirdi. Shuning uchun til o'qitish yo'llarini izlash har birimizning burchimiz, yo'lini topish esa murodimizdir. "O'zbek tili o'qitish metodikasi"da ta'kidlanishicha, "Ijodiy tafakkur sohibi, ya'ni o'sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz turgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi". [1:5]

Buning uchun, bizingcha, birinchidan, mustaqil davlatning ta'lim tizimini tubdan yangilash, ta'limga oid hujjatlarni qayta saralash, rivojlantirish zarur. Ikkinchidan, ta'lim tizimini yangilash va o'qitishni yangilash masalalari birgalikda olib borilishi kerak. Bugungi globallashuv davrining milliy qadriyatlarga xavfi o'ta kuchli, shuning uchun bu qadriyatlarning o'zagi bo'lgan milliy til – o'zbek tilini o'qitishda qanday tendensiyalar ustuvor bo'lishini ajratib olish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z izlanishlarimiz va rivojlangan davlatlar tajribasini qiyoslab o'rganish natijasi o'laroq, quyidagi usullarni ko'rsatib o'tishni joiz deb bildik:

1. O'zbek tilini o'qitishni mamlakatimiz rivojlanish strategiyasi sifatida qarash va ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda rivojlantirish. Bunda "Ta'limning tili bo'la olmagan til davlatning tili bo'la olmaydi", – degan qoidani shior qilib olsak bo'ladi. Axborotlashuv va texnologiyalar quvvati oshib borayotgan bugungi davr butun dunyoda intellektual raqobatni kundun-kunda kuchaytirmoqda. Har bir davlatning raqobatbardosh bo'la olishi jamiyat har bir a'zosining intellektual salohiyatiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim oldida mana shunday raqobatlasha oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Til o'rgatish jarayonini milliy muddaoga yaqinlashtirish mamlakat rivojidagi strategik rolni kuchaytira-



di, bir necha tilni biluvchi shaxsni tayyorlash mazmuni chuqurlashtiradi, ahamiyatini oshiradi. Har qanday yuqori malakali kadri tayyorlash, ularga chuqur bilim berish jarayoni ma'naviy kamolot bilan uyg'unlikda olib borilishi taqozo etiladi.

2. Til o'qitish jarayonini muayyan bir fan qoidalarini o'rganishga emas, balki bilim oluvchining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish.

Ta'lim – insoniyat tomonidan topilgan bilimlar va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni, deb qarab kelingan bo'lsa-da, bu jarayonda talabalarning shaxsiy hayotiy nuqtayi nazari, faol va teran fikrlashi, intilishlari, ichki ruhiy imkoniyatlari, kasbiy jihati qariyb hisobga olinmadi. Ta'lim jarayonida shaxs mustaqilligi cheklanganligi sababli talabalar mustaqil bilim egallash, ijodiy fikrlash, o'z shaxsini takomillashtirish va individual faoliyatini tashkil etishda bir qadar qiyinchilik sezadilar. Chunki ta'lim reproduktiv o'qish jarayoni negiziga qurilganligi uchun o'qitishning boshqa shakllaridan kam samara berishi bilan ajralib turar edi.

3. Til o'qitishda yosh avlodning funksional savodxonligini shakllantirish ustuvorligi. Ta'lim oluvchining nutqiy qobiliyatini rivojlantirish hamda fan dasturini hayotiy tajribalar va misollar bilan boyitish. Bunda "bilim bilim uchun emas, bilim bilish uchun" qoidasiga asoslaniladi. Ushbu tendensiyaning tub negizida o'zbek tilini grammatika "qamalidan ozod qilib", uni o'qitishning kommunikativ yo'nalishini kuchaytirish masalasi turibdi. Ta'lim oluvchining har qanday sharoitda o'z fikrini aniq, ravon, tushunarli, mazmunli, ifodali, jo'yali qilib

yetkazishiga yordam beradigan bilim va ko'nikmalarni shakllantiradigan mavzularni fan mazmuniga tatbiq etish lozim. Bunga kommunikativ-funksional tizimni pragmatik-kommunikativ yondashuv bilan bog'lash orqali erishiladi. Shundagina til ta'lim oluvchining hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

4. Til o'rgatish jarayonida ta'lim oluvchiga harakat subyekti sifatida qarash. Til o'rgatishni ta'lim oluvchining mustaqil harakati va izlanishlari asosida qurish. Y.A.Komenskiy aytganidek, "Muallim oz o'rgatsin, o'quvchi ko'p o'rgansin". Bu ta'lim oluvchining so'zni, uning ma'nosini tushunishi, suhbatlashishning yo'l va usullarini ongli ravishda o'zlashtirishi orqali amalga oshadi. Bunday ta'lim mazmuniga fikrni ifodalashda qo'llaniladigan turli-tuman til hamda ifoda birliklarini qamrab olish kerak bo'ladi.

5. Til o'qitish tizimida qo'llaniladigan innovatsiyalarning milliy dastur va qadriyatlarga muvofiq kelishi. Buning uchun shaxsni tarbiyalash jarayonida davlat tili sifatida o'zbek tilining rolini oshirish. Is'hoqxon Ibratning: "Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar", degan so'zlarini qoida qilib olamiz. Ta'lim jarayoni amaldagi dastur va zamonaviy uslubiy texnologiyalar yordamida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim. Bunda ta'lim tizimining milliy g'oya va umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unligini asos qilib olish lozim bo'ladi. Intellektual shaxsni shakllantirishning bosh omili – ta'limdan samarali foydalangan holda madaniyatlararo aloqani singdira bilish. Ayniqsa, o'zbek tili, o'zbek adabiyoti, O'zbekiston tarixi kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarning intellektual shaxsni shakllantirishdagi dominant rolini kuchaytirib, yosh avlodning raqobatbardoshlik qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi. Jumladan, o'zbek tilining ichki qonuniyatlaridan yangi texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda keng foydalanish muhim.

6. O'zbek tilini o'qitishda ilm va fan integratsiyasini amalga oshirish. Buning uchun o'zbek tili fani mazmunini o'zbek tili ta'limi rivojlanishiga muvofiqlashtirish orqali tilni olamning bir bo'lagi sifatida anglatish, tilni o'qitishda "tarix – ta'lim – madaniyat" uchligini vujudga keltirish zarur. Madaniy tilgina yuksak martabaga ega bo'ladi. Ilm – olamni bilishning kaliti. Har bir fan yangi ilm-fan yutuqlari bilan mazmunan takomillashtirib borilishi shart. Chunki ta'lim mazmunini takomillashtiruvchi bosh omil ilm-fan rivojidir. Shaxs intellektual salohiyatini oshirishning muhim yo'li – ta'lim berishni ilm-fan bilan integratsiyalash. Albatta, ilm-fanda aniq yechimini topgan xulosalar ta'lim dasturlariga asos qilib olinadi. Metodologiya

ilm-fan bilan ta'lim orasidagi oltin ko'prik vazifasini o'taydi. U ilm-fandagi yangiliklarning ta'lim tizimiga singishini ta'minlaydi. Metodologiya ta'lim berish sohasining zamonaviy talablar bilan o'zaro chambarchaslikda rivojlanish usullarini belgilaydi. Shuning uchun metodist olimlar, birinchidan, tamaddunga boshlaydigan ilg'or fikrlarni tahlil qilish orqali yangilanishga asos bo'ladigan qoidalarni aniq bilishi, ikkinchidan, yoshlar talabi va bilimiga mos, qabul qilishiga qulay bo'lgan usullarni topa olishi zarur. Nutq madaniyati, notiqlik, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmatik va kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik bilan bog'liq bo'lgan muhim va qiziqarli ma'lumotlarni tilshunoslik mavzulari ichida alohida soha sifatida taqdim etish ta'lim mazmunini yangilashda innovatsion yutuqlarga asos bo'ladi.

7. Tilni millat kelajagi bo'lgan yoshlarning madaniy immunitetini shakllantirish mexanizmi sifatida o'qitish; tilga nisbatan javobgarlik va vatanparvarlik hissini tarbiyalash hamda pragmatik nuqtayi nazardan qarash, tilni o'qitishning qadriyatlar yo'nalishini kuchaytirish. Buning uchun A.Avloniyning: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur", [2:61] degan so'zlari shior qilib olinadi. Bunda til na-faqat aloqa vositasi, balki milliy ruhni saqlash kafolati, milliy ongni shakllantiruvchi mexanizm ekanligiga e'tibor qaratish shart. Bu ta'lim oluvchining faqat grammatik, punktuatsion, orfografik savodxonligini oshirish emas, avvalo, unga tilning mohiyati, millat va mamlakat hayotidagi ijtimoiy mazmuni to'g'risida tushuncha berishni taqozo etadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarda Vatan oldidagi farzandlik burchini anglash, o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini shakllantirish imkonini beradi. Tobora rivojlanib borayotgan ilm-fan yo'nalishlari yutuqlaridan oqilona foydalanish, bu sohada aniq yo'nalishlarga ixtisoslashgan malakali mutaxassislarni tayyorlash mamlakat obodligi, xalq farovonligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ijodkor, faol, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun oliy ta'limda muhim o'zgarishlarni amalga oshirish hayotiy zarurat bo'lib qolmoqda. Shu boisdan maktab va oliy ta'limda faol, ijodkor, aql-zakovatli, ziyoli mutaxassislarni tayyorlashning ilmiy asoslarini yaratish qator fanlarning vazifasi bo'lib hisoblanadi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning ijodiy iste'dodini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. O'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri yoshlarning tashabbuslari, innovatsion g'oya va fikrlari, iste'dod va iqtidorini o'z vaqtida ko'ra olish hamda uni ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.

Xolida G'ULOMOVA,
 Chirchiq davlat pedagogika instituti
 Boshlang'ich ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH

Umumiy o'rta ta'lim tizimida til hodisalari so'z, so'z birikmasi, gap, matn kabi turli lisoniy unsurlar asosida o'rganiladi. Ularning ichida matn ustida ishlash alohida o'rin tutadi, chunki o'rta maktabda ona tili fanining asosiy maqsadi o'quvchining nutqini shakllantirishdir. Nutq esa, asosan, matn tarzida namoyon bo'ladi. Masalaga kengroq miqyosda yondashadigan bo'lsak, nafaqat til bilimi, balki ta'limning barcha sohalarini o'zlashtirish ham matn orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi"da "... yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang-barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bemalol erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma va imkoniyatlarga ega bo'lishlari" alohida qayd etilgan.

Shunday ekan, matn o'zi nima, degan savol tug'ildi. "O'zbek milliy ensiklopediyasi"da matn (lotincha – to'qima) yozilgan yoki bosilgan asar, nutq, shuningdek, ularning biror parchasi, kitob, gazeta, jurnallarda bezak, jadval, rasmlardan tashqari qismi; rasmiy hujjatlar tarzida izohlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat yoki ularning parchasi deb ta'riflanadi.

A.Hojiyevning fikricha, matn "yonma-yon bosma harf orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasidir".

O'zbek tili uslubiyatida matn murakkab sintaktik butunlik sifatida fikran hamda sintaktik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gaplar tuzilmasi tarzida izohlanadi.

Yuqoridagi ta'rif va izohlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, matn bir mavzu ifodasi bo'lgan yozma va bosma asar, hujjat, nutq yoki nutq parchasidir.

Ma'lumki, nutq birligi – gap. Demak, gaplar birlashmasidan tuzilgan matn ham nutq birligidir. Matn gapga nisbatan tugal va to'liq fikrni ifodalash bilan birga kommunikativ aloqa jarayonida kengroq va chuqurroq ma'lumotlarni qamrab oladi. Bu xususiyat grammatik jihatdan gapga teng keladigan maqol, matallarga ham xosligi uchun ular kichik hajmdagi matndir. Shuning uchun ham til hodisalarini alohida so'z, so'z birikmasi yoki gap asosida emas, balki matn asosida nutqiy sharoitni hisobga olgan holda o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda o'quvchi bayon etilayotgan tushuncha va fikrlarni anglab o'zlashtirishi, ularni mantiqiy izchil va uslubiy jihatdan savodli qilib og'zaki va yozma ravishda ifodalash ko'nikmalarini egallashi kerak.

Bu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, fikr turli xil matnlar tarzida ifodalanishi mumkin. Maqsad va mazmun jihatidan tilxat, taklifnoma, tabriknoma, ariza, e'lon, tar-

jimayi hol kabi turli rasmiy hujjatlar yoki masal, she'r, qissa, drama, roman kabi badiiy asarlar, shakl jihatidan esa monologik va dialogik nutq, uslubiga ko'ra ilmiy, rasmiy, publitsistik va badiiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Tuzilishiga ko'ra gap, xat boshi va boblarga bo'lingan bo'ladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ana shularni hisobga olgan holda o'quvchilar matn tuzishga o'rgatilmaganligi natijasida ularning bayon va insho kabi ijodiy xarakterdagi yozma ishlarida so'z va birikmalarni noo'rin ishlatish, fikrni takrorlash, asosiy fikr haqida emas, ikkinchi darajali narsalar haqida so'z yuritish kabi xatolar ko'p uchraydi. Buning yagona sababi, bizningcha, til o'rgatish matn asosida emas, ko'proq terma gaplar asosida olib borilganidir.

XX asrning 70–90-yillaridagi darsliklarda mashqlarning katta qismi terma gaplardan iborat edi. Sinonimlar haqidagi tushunchalar ham terma gaplar asosida berilardi. Vaholanki, o'quvchilarda sinonimlardan foydalanish ko'nikmasini faqat matn tuzish orqali shakllantirish mumkin. Shundagina o'quvchilarga bayon va inshoda til birligini takrorlash holatidan qutulish yo'llarini o'rgatish mumkin.

Hozirda amalda qo'llanilayotgan 5-sinf "Ona tili" darsligi ko'zdan kechirilganda, mashqlarning ko'p qismida tahlil materiali matn va gaplardan iborat ekanligi ko'zga tashlandi. Albatta, bu quvonarli holat. Mazkur darsliklarda matn va gaplarning fonetik, leksik va grammatik tahlili asosida tilni amaliy o'zlashtirishlari nazarda tutilgan bo'lsa-da, matn yaratishga o'rgatuvchi, yaratilgan matnning fonetik-imloviy, leksik-imloviy, grammatik-imloviy, uslubiy xato-kamchiliklari ustida ishlashga hamda o'quvchilarning yozma nutqi ustida tahliliy ishlarga kam e'tibor qaratilgan. Bu nutqiy tahlillar tilning barcha bo'limlarini o'rganishga singdirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ona tili darsliklarida tayyor matnning yuqoridagi parametrlar asosidagi tahlili, o'quvchilar tuzgan matnning muallifi va uning o'quvchisi tomonidan amalga oshiriladigan tahliliga oid ishlar markaziy o'rinni olishi lozim deb hisoblaymiz.

5-sinf "Ona tili"² darsligida "Matn va lug'at ustida ishlash" mavzusidagi topshiriq va mashqlar aynan shu jihatdan ko'rib chiqildi. Mashq shartlari o'quvchini matn ustida sxema asosida ishlashga yo'naltirib (264-mashq), o'quvchi topshiriqqa ko'ra og'zaki nutq tuzadi. Shu jarayonda o'quvchi og'zaki nutqida aytish va qaytish yo'lidan borishi hammaga ayon. Ya'ni o'quvchi o'qituvchining savoli va savol nazari o'rqali nutqini tuzatib boradi. Bunda nutqiy kamchiliklar ustida ishlash biroz sayoz bo'ladi. Shuning uchun mazkur matnni mustaqil izlanish orqali to'ldirish, yozma ifodalash va

o'rganilayotgan mavzu doirasida sinonimlarni qo'llagan holda matn yaratish topshirig'i berilsa, ona tili ta'limi oldidagi vazifa amalga oshirilishi mumkin bo'lardi. Og'zaki nutqni yo'l-yo'lakay tuzatish imkoniyati uni baholashni qiyinlashtiradi. O'quvchi tuzgan nutq ustida o'zi ishlaymaydi, xato-kamchiliklarini tuzatmaydi, o'qituvchining tuzatishlarini hamma vaqt ham to'g'ri ilg'ay olmaydi.

O'quvchilar 264-mashqda "So'zlarni sinonimlari bilan almashtirib, matnni qayta yarating" topshirig'i asosida ijodiy ishlaganlarida edi, "Matn va lug'at ustida ishlash" mavzusi ochilgan bo'lar edi.

269-mashqda rasm asosida sumalak – taom, sumalak – qish faslida uy bo'g'otida osilib turadigan muz rasmi va shu rasm asosida gap tuzish topshirig'i berilgan. O'quvchida matn tuzish imkoniyati bor bo'lgani holda u matn tuzishga yo'naltirilmagan. 271-mashqda ham shu holat takrorlangan.

Mavzu "Matn va lug'at ustida ishlash" tarzida belgilangan bo'lsa-da, ko'p topshiriqlar, asosan, grammatik mavzuni o'zlashtirishga qaratilgan. O'quvchini erkin harakatlantiradigan mavzu va shu mavzuda matn yaratishga o'rgatuvchi topshiriqlar kam.

Omonim – shakldosh so'zlar ustida ishlashda gaplardagi shu hodisani aniqlash, ma'nosini sharhlash, berilgan sonlar bilan so'zga aylantirib, ular ishtirokida gap tuzish topshirig'i berilgan. Bu mashqda ham mavzu yoki matn janri aytilib (hajviy yoki ilmiy yaratish), matn tuzish topshig'i berilishi mumkin edi.

15-mashqda matn qismlarini tartiblashtirish orqali matn yaratish topshirig'i o'z samaradorligi bilan ajralib turadi. 24-mashq matnning keyingi qismini davom ettirish va tugallashga qaratilgan. 26-mashq shartiga "Siz bildirgan fikrlar to'plami matnni hosil qildimi?" savoli qo'shimcha tariqasida kiritilganda, o'quvchilar matnda voqealar mazmunan bog'langan bo'lishini asoslashga harakat qilgan bo'lardi.

7-dars uchun matn yuzasidan berilgan topshirig' o'quvchilarning matndan asosiy fikrni aniqlash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. 31-mashqdagi qavs ichidagi so'zdan birini tanlab qo'yish va nima uchun aynan shu so'zni tanlaganini izohlatish matn yaratishda e'tibor beradigan jihatlardandir.

8-dars uchun berilgan matn ("Odamiy ersang..." kitobidan) o'quvchini mustaqil fikrlashga undash orqali fikrini asoslashga o'rgatishda yordam beradi. Lekin og'zaki nutqda ifoda etilgan fikrlardan, so'z va so'z birikmalaridan yozma nutq mustaqil shakllantirilganda edi, o'quvchi Shayx Azizuddin Nasafiy kabi so'zlarni terib joyiga qo'yishga o'rganar edi. Demoqchimizki, ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirish asosiy o'ringa chiqishi lozim.

35-mashqda "10 ta gap yozing, emas, 10 ta gapli matn yozing" deyilishi ham o'quvchiga fikrlarini tartib bilan yozish kerakligini bildirar edi.

O'tgan asrning 70–90-yillaridagi ona tili darsliklarida olmoshlar yuzasidan faqat grammatik tushuncha berilar edi. Lekin ularni nutqda qo'llash, ya'ni olmoshlar yordamida fikrni ixchamlashtirish, so'zlarni almashtirish, ular orqali matndagi gaplarni mantiqiy va grammatik jihatdan bog'lash xususiyatidan foydalanishni o'rgatish ko'zda tutilmagan edi. Bu kabi nuqsonlarni bartaraf qilish

lish maktab ona tili dasturiga "Matn haqida ma'lumot", "Matn turlari. Matndagi gaplarni va xat boshini bog'lovchi vositalar" kabi mavzularni kiritish hamda til hodisalarini matn asosida o'rganishni taqozo etadi.

6-sinf "Ona tili" darsligidagi "Berilgan gaplarda takrorlangan so'zlar nimaga olib kelyapti? Ularni qaysi so'zlar bilan almashtirsa to'g'ri bo'ladi? O'z nutqingizda shu kabi so'zlardan foydalanasizmi?" kabi topshiriqlar o'quvchilarni matn yaratishda ortiqcha takrorlardan saqlanishga o'rgatadi.

44-mashqda "Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, ko'chirib" topshirig'iga "Siz qaysi til birliklarini (so'z va gaplarni) takrorlashdan saqlandingiz?" sharti qo'yilganda o'quvchi o'zi mustaqil izlanar va tegishli xulosa chiqara olar, o'z ishlarida shunga amal qilishga intilar edi.

Mashqda ilgari surilgan fikrlarni aniqlash yuzasidan ijodiy matn, tasviriy matn yaratishga doir topshiriqlar berilgan. Ammo 5–7-sinf darsliklarida matnda so'zlarning bog'lanishini kuzatish va aniqlashga doir tahlilga tortiladigan o'rinni uchratmadik.

Tajribalarimiz asosida matndagi gaplarning mantiqiy bog'lanishi ustida ishlash o'rqali matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchilarni matndagi gaplarni o'zaro bog'lashga o'rgatish usulini ilmiy matndan olingan quyidagi parcha ustida ishlash misolida ko'rsatamiz.

Biror geometrik figuraning xossasi haqidagi tasdiqning to'g'riligi mulohaza yuritish bilan o'rganiladi. Bu mulohaza isbot deb ataladi. Isbotlanayotgan tasdiqning o'zi esa teorema deyiladi.

Dastavval, o'quvchilar diqqati fikrning mantiqiy davomiyligiga, gaplarning aloqadorligini ta'minlovchi vositalarga qaratiladi. So'ng ular matnda gaplar sonini, ularning o'zaro aloqador bo'lgan jihatlarni aniqlaydilar. O'quvchilar ushbu gaplarda takrorlanib kelayotgan so'zlarni aniqlab, tagiga chizadilar (1- va 2-gaplarda **mulohaza** so'zi, 2- va 3-gaplarda **isbot** so'zi, 1- va 3-gaplarda **tasdiq** so'zi takrorlangan). Bu so'zlar qaysi turkumga kirishi, ular takrorlanishi orqali qanday vazifani bajarayotganligi aniqlanadi. 2-gap qaysi so'z bilan boshlanayotgani, uning qaysi turkumga kirishi, **bu** olmoshi oldingi gapdagi qaysi birikmaga (**geometrik figuraning xossasi haqidagi tasdiqning to'g'riligi**) ishora qilayotgani aniqlanadi. Shundan so'ng o'quvchilarni izlanishga undovchi "**Mulohaza, bu, isbot, tasdiq** so'zlari mazkur matnda qanday vazifa bajaryapti?" tarzidagi muammoli savol beriladi. O'quvchilar o'qituvchi yordamida matn tahlil qilishi natijasida quyidagi xulosaga keladilar: **mulohaza, bu, isbot, tasdiq** so'zlarining takror qo'llanishi hamda **bu** so'zi yordamida gaplarning grammatik bog'lanishi natijasida mantiqiy izchillik ta'minlangan. Demak, matndagi gaplar mazmunan aloqador bo'lganda ular ayrim vositalar yordamida grammatik jihatdan bir-biri bilan bog'lanadi.

O'quvchilar gap bo'laklari bilan tanishganlaridan so'ng matndagi grammatik aloqa sintaktik yo'l bilan, ya'ni ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklarning takrorlanib kelishi orqali o'rnatilishi ko'rsatiladi. Bunda Cho'lponning quyidagi kabi she'riy matnidan foydalanish mumkin:

Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir, Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...
Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdurkim, to'xtatsin, Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsin, Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi, Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi.

Matndagi takrorlardan ko'rinib turibdiki, takrorlanayotgan bo'laklar keyingi gaplarda ham oldingi sintaktik vazifada kelishi yoki boshqa vazifani bajarishi mumkin. Bular o'quvchilarning o'zlariga aniqlatiladi. Yordamchi so'zlarning bog'lovchilik xususiyatini quyidagi kabi matnni tahlil qilish orqali tushuntirgan ma'qul: "Misrliklar tunda yulduzlarga qarab joylarini mo'ljallab olganlar va vaqtni belgilaganlar. Ular hatto yulduzli osmon xaritasini ham tuzib chiqqanlar. Biroq misrliklar osmon jismlarining harakat qilishini xudolar boshqaradi deb o'ylaganlar. Ular yulduzlar turkumini odamlar, hayvonlar, fantastik maxluqlar, masalan, tog' takasi obrazida tasavvur qilganlar. Shuning uchun ham osmon xaritasida turli figuralar tasvirlangan. Albatta, misrliklar osmonni oddiy ko'z bilan kuzatganlari uchun hozir ma'lum bo'lgan ko'pgina yulduzlarning mavjudligini bilisha olmag'an".

Bu matnda **misrliklar, yulduz, osmon** kabi takrorlanib kelgan so'zlar, shuningdek, **ular** (misrliklarga isho-

ra), **osmon jismlari** (yulduzlarga ishora) kabi bog'lovchi leksik vositalarni o'quvchilar dastlab mustaqil ravishda topib, tagiga chizadilar, ularning matndagi vazifasini izohlaydilar. Shundan so'ng o'qituvchi 3–5-gaplarning boshida kelgan **biroq, shuning uchun** bog'lovchilari, **albatta** modal so'ziga o'quvchilar diqqatini tortadi va ularni bog'lashdagi o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiradi. Masalan, 3-gap tarkibidagi **biroq** so'zi oldingi ikki gapning mazmunini ixchamlagan holda keyingi fikrga qarshi qo'yish orqali bog'lagan.

Matndagi gaplarning bog'lanishini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar diqqati bog'lovchi vositalarning gap tarkibidagi qismlarni kengaytirishi yoki ixchamlashtirishi orqali sintaktik aloqani yuzaga keltirishiga ham qaratiladi.

Shu tarzda har bir darsda matndagi gaplarning bog'lanishi ustida ishlashga 2–3 daqiqa ajratib, so'ng matndagi grammatik hodisalarning tahliliga o'tilsa, o'quvchilarda matn tuzish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Bunday mashqlar jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi oshadi, o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini tinglovchiga yetkazib bera olish iqtidoriga ega bo'la boradi.

Bu tahlillar orqali biz darsliklar takomillashib boshida davom etadi va o'quvchilarda matn tushunchasi hamda matn yaratish ko'nikmasi muvaffaqiyatli shakllanadi, degan maqsadni ko'zladik.

¹Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017. 56-bet.

²N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, T.Mannopova. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. 113–121-betlar.










Iroda ULUGBEKOVA,

ELT teacher, Fergana region, Altirik district

INTEGRATING LANGUAGES AND OTHER SUBJECTS

Is this maths work?

.... Or English?

thin				
fat				
tall				
small				
	cat	rabbit	girl	boy

This article deals with the following three aspects of integrating languages and other subjects:

- why it is a good idea;
- what makes it possible even with young learners at an early stage of their language work;
- ideas for how it can be done.

As we know, it is important for children to see the new language they are learning as something normal and natural. It should not therefore be something set apart from the rest of their learning. They should see it as something to use,

not just something they manipulate in language classes.

Furthermore, recent language acquisition theory stresses that one very powerful way we 'get hold' of a language is by receiving and producing real messages. So, learning other things in English will help children to learn English. In the process, they will be handling real meaning rather than just words and structures for their own sake.

There is also a third, more pragmatic reason for integrating language work and other learning. Both teachers and learners benefit from bringing existing skills and understanding to bear on new areas and from encountering familiar ways of working when meeting an unfamiliar focus of teaching or learning.

Even if there are at least three good reasons for trying it, most teachers initially find the idea of integration rather unrealistic. They either doubt their own ability to do it or they think it will be too difficult for children.

However, as this topic intends to show, there are forms of integration which are worthwhile without being too complicated and difficult for either the teacher or for the children. This is because there are several key elements which language work and other school learning in common.

If you compare the work you do in language lessons and the work you do in other lessons, you will find that however different the content of the lessons, in certain respects they build on the same processes.

In particular, those processes are:

- diagrammatic representation of information;
- repeated pattern
- understanding through seeing;
- responding by doing.

It is these key elements in common between the subjects which will help us to integrate language work and other learning even with learners in the early stages. It is therefore worth looking at them a little more closely.

A diagram or chart enables us to handle complex information more easily and concisely than we can through straightforward text. For example: if railway timetables were written out in continuous sentences, they would be almost impossible to read. A diagram can also show relationship and significance more clearly than can the written or spoken world alone.

Children encounter diagrammatic information in all subjects. In maths and science particularly, they are

themselves encouraged to learn how to express and read ideas diagrammatically. The illustration at the beginning of this article is a good example. The children are asked to read the words and draw in the appropriate picture. So, for example, in one column they draw a small cat and then a tall cat. Or they might work across the diagram and draw in a small cat and then a small girl, then a small boy, etc. The exercise was originally another tongue maths exercise designed to teach children the concept of coordinates. In fact, it works equally well in the early stages of English as a reading exercise which demands an active response.

This is because language classroom work also builds on activities which carry and record information.

The second starting point is the role of repeated pattern in all learning. Pattern is fundamental to understanding and learning. It is the way to store information in our brains. It is the way we make sense of physical world about us. Patterns and observation of pattern are central to math and science.

Pattern is also the way we make sense of language. Our sense of grammar is a sense of pattern. That is why small children produce regular but wrong forms of verbs such as "I eated", "he goed". It is why they can form plurals for words they have never met before. Good language activities exploit this sense of pattern. So here too is a common starting point.

Seeing as a source of understanding is central to language work. This is because we do not just take meaning from language. We get hold of a great deal of our mother tongue by taking meaning to language. If we understand the language, we get the message. There is a kind of reciprocal and mutually reinforcing relationship.

→ we understand the language → we understand the message →

But, unlike the proverbial chicken and egg, we do in this case know which comes first; understanding the message, since this happens before we have any active language of our own. Something other than other language must carry messages. That something else is what we see, hear and feel going on around us. In fact, seeing as a key source of understanding is not just an element of language learning and acquisition. It is an element of all good teaching. Again, science and maths work make particularly full use of seeing in order to understand. Here then is the third shared element which gives us the potential for integration.

References

1. Susan Halliwell (2007). Teaching English in the primary classroom. English language study and teaching foreign speakers. Longman.
2. Mary Slattery, Jane Willis (2001). English for primary teachers. A handbook of activities and classroom language. Oxford University Press.
3. Krath Wohl. D.R. (2002). A revision of Bloom's taxonomy. Theory into practice.



Komila RADJABOVA,
Navoiy shahar 11-son aniq fanlarni chuqurlashtirib
o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MATN BILAN ISHLASH ORQALI O'QUVCHILARNI XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORLASH



Bugungi kunda ta'lim sifatini baholash bo'yicha PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish mamlakatimiz xalq ta'limi tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Mana shu dasturlar orasida PISA tadqiqoti o'quv jarayoniga zamonaviy usullarni olib kirish, ta'lim oluvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

PISA – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligi hamda bilimini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur bo'lib, u har uch yilda bir marta o'tkaziladi. PISA dasturi ilk marta 2000-yil o'quvchi-yoshlar o'rtasida qo'llangan. Mamlakatimiz ham ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rayotgan, 2021-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan galdagi sinovlar pandemiya munosabati bilan 2022-yilda amalga oshiriladigan bo'ldi. PISA dasturiga qatnashishdan maqsad yurtimizda testlarni o'tkazish emas, balki farzandlarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual kadrlarni tayyorlash uchun zamin hozirlashdir.


Ma'lumki, ona tili ta'limining bosh maqsadi og'zaki va yozma nutq ko'nikmasi, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirish, o'quvchilarni imlo va uslubiy jihatdan savodxon qilishdan iborat. Ona tili darslarida og'zaki hamda yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish ancha murakkab jarayon bo'lib, unda savodxonlik, ijodiylik, fikrni aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon eta olish muhim hisoblanadi. Yozma nutq savodxonligi o'quvchidan o'z fikr-qarashlarini tilning imloviy-grammatik qoidalari, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodalashni talab etadi. Og'zaki nutqda esa bolaning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, dunyoqarashi, ohangni o'z o'rnida qo'llashi juda muhim. Demak, biz o'quvchi-yoshlarda mana shu ko'nikmalarni shakllantirish uchun ular-

ni matn bilan ishlashga o'rgatmog'imiz lozim. Zero, PISA xalqaro tadqiqotining o'qish savodxonligi yo'nalishida ham matnlar asosida tuzilgan test savollari ustida ish olib boriladi.

Xo'sh, o'qish savodxonligi qanday tushuncha o'zi? O'qish savodxonligi – insonning matnni tushunish va undan foydalanish qobiliyati, bilim va imkoniyatlarini kengaytirishi, o'z

maqsadiga erishish uchun ijtimoiy hayotda munosib ishtirok etishi. O'qish – bu shunchaki harflarni qo'shib so'z hosil qilish yoki ovoz chiqarib mutolaa qilish emas, balki matn bilan chuqur ishlab, undan ma'no keltirib chiqarishdir. O'qish savodxonligida o'quvchilar matndan axborotni topish va ajratib olish, sharhlash, matndan tashqari bilimlarga tayanish, tushunish hamda baholash, matn mazmunini anglash kabi ko'nikmalarni hosil qiladi. Umuman olganda, o'qish savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, puxta tekshirishlar asosida maqsadga yo'naltirishni anglatadi.

PISA dasturi o'qish savodxonligini ma'lum bir matn asosidagi mashqlardan foydalanish orqali baholaydi. O'qish savodxonligining mazmuni vaziyat, matn va o'qish malakasidan iborat. Matn namunalari ma'lum bir vaziyatlarga asoslangan bo'lib, bu vaziyatlar shaxsiy, ijtimoiy, o'quv va rasmiy kabi turlarga bo'linadi. O'qish malakasi matn hamda matndan tashqari bilimga tayanadi. Matnga tayanish – undan axborotni topish va ajratish, matndagi xabarni umumlashtirish va sharhlashni anglatadi, matndan tashqari bilimga tayanish matnni mazmuni va shakliga ko'ra anglash hamda baholashni bildiradi. PISA dasturi matnning quyidagi yo'nalishlarini tasniflaydi:



Bundan tashqari matnlar formatiga ko'ra yaxlit (*jumlalar o'zaro birikkan*), yaxlit bo'lmagan (*ro'yxat, jadval, grafik, indekslar*), aralash (*og'zaki va og'zaki bo'lmagan*), murakkab (*bir necha tarkibli*) kabi turlarga bo'linadi.

O'qish savodxonligini baholash o'quvchilar bilimni sinashga mo'ljallangan matn va shu matn bo'yicha tayyorlangan savol-topshiriqlarga asoslanadi. O'qish savodxonligi o'lchamlari topshiriqlar murakkabligi (*oson yoki murakkab*), savollar shakli (*ochiq yoki yopiq*), javoblarning balli baholanishi (*qisman baholash modeli*)ni o'z ichiga oladi. Berilayotgan topshiriqlar qiyinlik darajasiga ko'ra osondan murakkabga qarab tartiblanadi. Ochiq savollar o'quvchilardan erkin, aniq va asoslangan javoblar talab etsa, yopiq savollarda tayyor holda berilgan to'rt-besh javobdan bitta to'g'risi tanlanadi yoki hodisalar ro'yxatiga tegishli raqamlar qo'yiladi. Shuningdek, matndan yagona to'g'ri so'z javob tariqasida topilib, yoziladi. Rossiya Federatsiyasi ta'lim sifatini baholash markazi rahbari, xalqaro koordinator Galina Kovalyova ma'ruzalaridan birida shunday deydi: "Biz o'lchanishi oson bo'lgan narsani emas, balki muhim narsani o'lchashni o'rganmog'imiz lozim".

Hozirda "PISA – 2022" tadqiqotlariga o'quvchilarni tayyorlashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan har bir yo'nalish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik qo'llanma va mashq daftarlari dasturulamal bo'lmoqda. Shuningdek, tegishli fanlar kesimida o'quv dasturi va darsliklar xalqaro baholash dasturi talablari asosida takomillashtirilmoqda. Jumladan, 2020–2021-o'quv yilida 5-sinf ona tili o'quv dasturida tubdan o'zgarish bo'ldi va darslik qayta ishlandi. Amaldagi dasturda mavzular faqat nazariy bilimlardan iborat bo'lsa, yangi dastur mazmuni nazariya va amaliyotga birday yo'naltirildi. Amaliy faoliyatga yo'naltirilgan mashq va topshiriqlar ularning mazmuniga singdirildi. Darslikka matn va lug'at bilan ishlash rukni kiritildi. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida ikki yuzga yaqin so'zlarning izohli lug'ati berildi. Matnlar bilan ishlash uchun to'rt ko'nikma: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish bo'yicha malaka talablari ishlab chiqildi. Buning natijasida bola, avvalo, matn tuzish texnikasini o'rganadi. Mustaqil matn tuzib, fikrini bemaolol yozma bayon eta oladigan bo'ladi. Matn, lug'at, nutq bilan ishlash jara-yonida qanday so'zlardan foydalanish kerakligini, qaysi so'z qo'llansa, o'rinli bo'lishini anglab yetadi.

Yangi darslikka kiritilgan mantiqiy, kreativ fikrlashga undovchi, tanqidiy-tahliliy hamda motivatsiya beruvchi matnlar ustida o'quvchilar bilan tizimli ish olib borilsa, ularni xalqaro sinovlarga tayyorlashda samarali natijalar berishi shubhasiz. Chunki o'quvchi matnni o'qiydi, eshitadi, gapiradi va shundan xulosa chiqaradi.

12-darsda berilgan matn bilan ishlashda o'quvchilarni PISA tadqiqotiga tayyorlash uchun tuzilgan topshiriqlar bilan o'rtoqlashmoqchiman. Dastlab berilgan matn audio holda yoki o'qituvchi ko'magida tinglanadi.

MATN

Ertalab Dilshod ayvonchada bobosi bilan nonushta qilib o'tirgandi. Shu payt ochiq turgan derazadan ikkita qaldirg'och uchib kirdi-da, tepalarida charx urib aylana boshladi.

– Vooy, qaldirg'och, – dedi Dilshod ularni ko'rsatib.
– Qaldirg'och – baxt timsoli. U kirgan xonadonda hamisha tinchlik, xotirjamlik bo'ladi, – tushuntirdi bobosi.

– Janjal ham bo'lmaydimi, bobo?

– Bo'lmaydi, bo'talog'im, nega so'rayapsan?

– Haa, endi bildim.

– Nimani, qo'zichog'im?

– Demak, Qobil akaning uyida har kuni janjal bo'lishi qaldirg'och yo'qligidan ekan-da!

Bobo nevarasining yelkasiga ohista qoqib, kulib qo'ya qoldi.

Ertasiga qarashsa, Qobil akaning eshigiga kimdir kattakon qog'oz yopishtirib ketibdi. Unda uchib ketayotgan bir juft qaldirg'och surati tasvirlangan edi. Surat ostiga esa "Qaldirg'och – xotirjamlik timsoli" deb yozilgandi. Hamma hayron! Bu kimning ishi ekanligini esa faqat ikki kishigina bilardi xolos. (A.Xudoyberganov)

Matnni tinglab tushungan o'quvchilar quyidagi topshiriqlar ustida ishlaydilar.

1-topshiriq. "Jumla javohirin joyla!" usuli.

Bu usulda o'quvchilar aynan matnni o'qish orqali gapda tushirib qoldirilgan so'zlar, ya'ni javohirlarni o'z o'rniga joylashtirishlari kerak bo'ladi.

– Qaldirg'och – timsoli. U kirgan xonadonda hamisha bo'ladi, – tushuntirdi bobosi.

A) baxt, sog'lik, xotirjamlik

*B) baxt, tinchlik, xotirjamlik

D) xotirjamlik, omad, quvonch

E) bahor, o'yin, kulgi

2-topshiriq. "Tafakkur gulshani" usuli.

Bunda bolalar tanishib chiqqan matnlari g'oyasiga mos keluvchi maqol yoki hikmatli so'zni topishlari lozim bo'ladi.

Matn mazmuniga mos keluvchi maqolni toping.

A) O'zga yurtida shoh bo'lguncha,

O'z yurtida gado bo'l.

B) Mehnat bilan topganing,

Qand-u asal totganing.

D)* Tinchlik – baxt, sog'lik – taxt.

E) O'z uyim – o'lan to'shagim.

3-topshiriq. "Nima deb o'ylaysiz?" usuli.

Mazkur usul yordamida bolalarning ijodiy fikrlashi hamda yozish savodxonligi rivojlantiriladi. O'qituvchi tomonidan mustaqil fikrlashga undaydigan bir yoki bir nechta savol taqdim etiladi, o'quvchilar esa bu savolga yozma javob berishlari kerak bo'ladi.

Savol: Nima deb o'ylaysiz, nega Qobil akaning eshigiga kattakon qog'oz yopishtirib ketishadi? Bu qog'ozda nima tasvirlangan edi?

Javob: Chunki Qobil akaning uyida har kuni janjal bo'lardi va Dilshod ularning uyida qaldirg'och yo'qligini bunga sabab deb biladi. Bu qog'ozda bir juft qaldirg'och



tasvirlangan va ostiga “Qaldirg’och – xotirjamlik ramzi” deb yozilgan edi. Bola qo’shnisining xonadoniga tinchlik-xotirjamlikni qaytarmoqchi bo’ladi.

To’g’ri, o’quvchi har doim ham bunday savollarga to’g’ri javob bera olmasligi mumkin, lekin, eng muhimi, unda o’z mustaqil fikrini bayon etish ko’nikmasi shakllana boradi.

4-topshiriq. “Hashar” usuli.

Ma’lumki, matnning mazmuniy yaxlitligini ta’minlashda ayrim so’zlar yoki gaplar asosiy o’rinni egallaydi. Matn mohiyatini belgilashda ular tayanch birliklar hisoblanadi. Matn mazmunini qayta hikoya qilishda shu birliklar asos bo’ladi. “Hashar” usuli o’quvchilarda gapirish ko’nikmasini shakllantirish uchun juda qulay. Tinglangan matn yuzasidan o’quvchilar birgalikda yoki alohida guruhlarda hashar yo’li bilan matnni qayta hikoya qiladilar. Bunda har bir bolaning fikri oldingi fikrning uzviy davomi bo’lishi, gaplar mazmunan bir-biriga bog’langan bo’lishi lozim.

Namuna:

1-o’quvchi: Dilshod ertalab bobosi bilan ayvonda nonushta qilayotgan edi.

2-o’quvchi: Shu vaqt ochiq derazadan ikkita qaldirg’och uchib kirdi.

3-o’quvchi: “Qaldirg’och kirgan uyda doimo tinchlik, xotirjamlik bo’ladi, chunki u baxtning timsoli”, – dedi bobosi.

4-o’quvchi: “Hatto janjal ham bo’lmaydimi?” – qiziqib so’radi bola.

5-o’quvchi: “Bo’lmaydi, bo’tam, bo’lmaydi”, – dedi bobosi...

Ana shu tariqa matn qayta gapirib beriladi, uning mazmuni o’zlashtirilishi barobarida o’quvchilar qalbiga milliy urf-odatlarimizga hurmat tuyg’usi singdiriladi.

5-topshiriq.

“Sarlavha sehri” usuli.

Matndagi yaxlit mavzu, mazmun, asosiy g’oya muallifning maqsadiga muvofiq uning nomi – sarlavhasida aks etadi. Darslikdagi ba’zi matnlar atayin sarlavhasiz berilib, unga mos sarlavha topish o’quvchiga qoldiriladi. Bu vaziyat bolani har qanday holatda ham gapirishga, hatto xato bo’lsa ham o’z fikrini aytishga undaydi.

Bu usulda o’quvchilar berilgan matnga mustaqil ravishda sarlavha topadilar va galma-gal chiqib, uni yozuv taxtasiga yozadilar. Nega aynan shunday sarlavha qo’yganlarini qisqacha izohlaydilar. Matn mavzusiga mos, chiroyli sarlavha topa olgan o’quvchilar alohida e’tirof etiladi va ularga nominatsiyalar beriladi. Afzalligi shundaki, topshiriqni yakka holda ham, kichik guruhlarda ham bajartirsa bo’ladi. Yuqoridagi matnga bolalar shunday sarlavhalar qo’yishlari mumkin:

O’quvchi yoki guruh	Tanlangan sarlavha	Berilgan nominatsiya
1-o’quvchi	Xotirjamlik timsoli	Munosib sarlavha
2-o’quvchi	Qaldirg’och – baxt timsoli	Ajoyib sarlavha
3-o’quvchi	Sirli qog’oz	Antiq sarlavha
4-o’quvchi	Suratdagi bir juft qaldirg’och	Sarlavha

Xullas, bugun biz – ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari zimmasida farzandlarimizni xalqaro tadqiqotlarga munosib tayyorlashdek mas’uliyatli vazifa turgan ekan, shu vazifani amalga oshirishda bor mahoratimizni va kuch-g’ayratimizni safarbar etmog’imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’quvchilar savodxonligini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. Qo’llanma. – Toshkent, 2019.
2. Xalqaro tadqiqotlarda o’quvchilarning o’qish savodxonligini baholash. Qo’llanma. – Toshkent, 2019.
3. Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti www.markaz.tdi.uz.
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti www.tdi.uz.
5. N.Mahmudov, A.Sobirov va boshqalar. Ona tili. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2020.
6. O’zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2015.

Feruzaxon ABDUSALOMOVA,
Farg'ona viloyati Beshariq tumanidagi
3-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MORFOLOGIK ERTAK

Umumiy o'rta ta'lim maktablariining ona tili darsliklarida 5-sinf o'quvchilari og'zaki va yozma nutqini o'stirish maqsadida uy vazifasi sifatida berilgan mashqlarning aksariyatida matn tuzish so'ralgan. Darhaqiqat, o'quvchi 5-sinf yakunida berilgan mavzuga doir o'z tasavvuri, fikrlari, qarashlarini savodli va mazmunli matnda bemaolol ifodalash ko'nikmasini egallaydi; o'zi tuzgan matndagi gaplar turi, ularda qo'llanishi kerak bo'lgan tinish belgilari, qo'llagan so'zlarining shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, leksikologiyadagi o'rnini bir muncha anglaydi. 6-sinfda ham ana shu ko'nikmalarni takomillashtirish ko'zda tutilgan. Bu jarayonda o'qituvchining turli ta'limiy-didaktik o'yinlarni qo'llashi ayni muddaodir. Jumladan, "Morfoloqik ertak" ta'limiy o'yinidan foydalanilganda o'quvchilarda matn tuzish barobarida o'tilgan mavzuni kengroq, chuqurroq o'rganish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Ertak matnini yaratish barobarida o'quvchilar shunchaki ertak to'qib qolmasdan, o'rganilgan mavzuga doir olgan bilimlarini ishga soladilar va bu mavzuning yanada yaxshiroq yodda qolishiga sabab bo'ladi. Masalan, ma'lum vaqt o'tgach, "Fe'lda nechta nisbat bor?" deya bergan savolingizga barcha o'quvchilar birdek javob bera olmasligi mumkin, biroq "Fe'l boboning nechta o'g'li bor edi?" desangiz, hech adashmay javob berishlari tayin. Ushbu maqoladan ko'zlangan maqsad ham bu boradagi o'z tajribalarimni respublikamiz miqyosidagi hamkasblarim bilan baham ko'rmoqdir. Jumladan: "OLMOSH degan mamlakatning oltita darvozasi bor ekan. Birinchi darvozadan...", "to'rt og'ayni botirlar bo'lgan ekan. Ular ahil, mard, aqlli, mehnatsevar yigitlar bo'lib, xalq ularni DARAJALAR der ekan...", "MIQDORBOY degan boyning olti xizmatkori bo'lgan ekan yoki MIQDOROY xolaning olti qizi bor edi..." kabi so'zlar bilan boshlanuvchi ertaklarni davom ettirish o'tilgan mavzuning o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga ko'maklashishi shubhasiz. Qolaversa, ushbu metod orqali o'quvchilar ilhomini uyg'otasiz, ularning tasavvur olamidani hayrat topasiz va ijodkorlarni kashf etasiz.

Fe'l boboning o'g'illari

Yaqin o'tgan zamonda Fe'l bobo degan kishining beshta o'g'li bo'lgan ekan. Bobo og'illarini tarbiyalash maqsadida, ularni ahil-inoq bo'lishini istab, chaqirib shunday debdi:



– O'gillarim, har kuni bittangiz uy ishlariga navbatchilik qilasiz. Men kechqurun qaytganimda bugun kim navbatchi bo'lganini qilgan ishingizga qarab topib olaman. Qani, kimning navbatchiligi meni xursand qilarkan?

Birinchi kuni katta o'g'il navbatchilikni olibdi. U hovlilarni tozalabdi, ovqat tayyorlabdi va otasining kelishini kutibdi. Otasi kelibdi. Bugun ANIQBOY navbatchilik qilganini darrov topibdi.

Ikkinchi kuni navbatchilik qilgan o'g'il erta turib yuvinib, taranibdi. Kuni bilan darslarini qilishga berilibdi. "Bugun otamni men xursand qilaman", – deb maqtanibdi. O'g'illar to'planibdi. Otasi kelib biroz o'ylanib turibdi-da, bugun O'ZLIKBOY navbatchi bo'lganini aytibdi.

Uchinchi kuni navbatchilikni olgan o'g'il tuni bilan otasini xursand qilishga sabab topilsaydi, deya uxlolmabdi. Kechqurun otasi qaytsa, hovlilar supurilibdi, yerlar chopilibdi, gullar ekilibdi. Otasiga bugun MAJHULBOY navbatchi bo'lgani darrov sezilibdi.

To'rtinchi kuni navbatchi bo'lgan o'g'il otasi ketgach, hammani turgizibdi, birini suvga yugurtiribdi, biriga dasturxon tuzatiribdi, yana biriga kirlarni yuvgizdiribdi, ukalarini tomorqada rosa ishlatibdi. Kuni bilan barini shoshiribdi, barcha ishni tindiribdi. Navbatchilik mana bunday bo'ladi, deb o'zini ko'rsatibdi. Ko'p kutirmay otasi kelibdi va bugun ORTTIRMA degan o'g'li navbatchilik qilganini bildiribdi.

Navbat kenja o'g'ilga yetibdi. U har kungi ishlarda akalariga doim yordam qilarkan. Akalari uni yaxshi ko'rishar ekan. Shuning uchun bu kun barchasi birga ishlashibdi. Hovlidagi yumushlarni bo'lib olishibdi. Hamma ishni barvaqt tamomlashibdi, birga ovqatlanishibdi, dars tayyorlashibdi, o'yinlar o'ynashibdi. Bugungi kun maroqli o'tganini his qilishibdi. Kim navbatchilik qilganini otamiz bilolmaydi bugun, deyishibdi. Otasi kelib, jilmayib kenja o'g'ilga qarabdi. Bolalar BIRGALIKJONning navbatchiligida otalarini xursand qilishganini tushunishibdi.

Qani, aytning-chi, otasi nega xursand bo'ldi?
U navbatchilarni qanday topdi deb o'ylaysiz?

Muhabbat YUSUPOVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti Xorijiy tillar kafedrasini mudiri

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA LEKSIKANI BOYITISH YO'LLARI

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich, ya'ni 1-sinfida tinglab tushunish va gapirish, 2-sinfida esa o'qish va yozish ko'nikma-malakalari shakllantirib boriladi. Albatta, bu ko'nikma-malakalarni qanchalik shakllantirish va rivojlantirish leksikaga bog'liq. Leksikani o'rgatish tilni o'rgatishning asosini tashkil etadi. Leksikani mukammal egallamay turib, nutq faoliyati turlarini o'rgatib, o'rganib bo'lmaydi. U nutq faoliyati turlari uchun material vazifasini bajaradi.

Nutq uchun material juda zarurdir. Material bo'lmasa nutq sodir bo'lmaydi. Inglizcha nutqni tinglab, o'rganilgan so'zlar asosida uning mazmunini tushunish mumkin. O'quvchi so'zlarni taniy olmasa, bilmasa ma'lumot olmaydi, nutqning mazmuni mavhumligicha qoladi.

Tinglab tushunishning leksik tomoni ustida ishlaganda, uni tinglab qabul qila olish, taniy olish mashqlari keng ishlatiladi, chunki leksikani tinglab qabul qilish, taniy olish ham o'z xususiyatiga, qiyinchiligiga ega.

Gapirishning ham leksik tomoni o'ziga xos xususiyatga ega. O'quvchi uni bilmasa gapira olmaydi, bilganda ham o'rniga qo'ya olishi kerak. O'qishning leksik tomoni ham alohida qiyinchilik tug'diradi.

O'quvchi o'qiganda ko'rib qabul qiladi. Shuning uchun o'qib ma'lumot olish, tushunish uchun o'quvchi so'zlarni taniy olishi, o'qiy olishi, ularning ma'no, mazmunini bilgan, o'rgangan bo'lishi kerak.

Fikrni yozma bayon qilishning leksik tomoni ustida ham alohida ishlash kerak. O'quvchi u orqali mazmunli, to'g'ri ma'lumot yozib bera olishi uchun so'zni yoza olishi, talaffuz qila olishi, o'qiy olishi zarur. [1]

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sababa nutq faoliyati turlari uchun leksika kerak. Shu sababdan o'quvchilarga nutq faoliyatlarini o'rgatishda leksikaning o'рни muhim. Chet tilni egallashning umumiyevropa kompetensiyalariga asoslangan Davlat ta'lim standartlarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga 500 ta (1-sinf – 150 ta; 2-sinf – 150 ta; 3-sinf – 100 ta; 4-sinf – 100 ta) leksik birlik o'rgatilishi belgilab qo'yilgan.

Chet til o'qitish metodikasida leksik birlikni o'rgatish o'yin, harakat, musiqa va ko'rgazmalilik asosida olib borilishi, bunday vositalarning samarasi yuqori ekanligi ta'kidlangan. [2] Boshlang'ich sinfda leksikani o'rgatish

uchun o'yinlarning turli-tumanligi katta ahamiyatga ega. Leksik birliklarni o'rgatishda, tinglab tushunish va gapirish ko'nikma-malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda kartochkali o'yinlarga diqqat qaratish lozim. O'rgatilayotgan leksik birlikni talaffuz etishdan oldin, tinglab tushunish ko'nikma-malakasiga ko'proq e'tibor berish muhim. Masalan, o'quvchilar xotirasini charxlash, ularning leksik materialni eslab qolishi, yangi o'quv materialini mashq qildirish uchun dars jarayonida *snowball*, *throwing a ball*, *chain drill*, *guess the object*, *black box* kabi o'yinlardan foydalaniladi. [3]

Musiqiy faoliyat turi, ya'ni qo'shiqlar leksik birliklarni kengaytirish va dars leksikasini mustahkamlashga yordam beradi. So'zlar ritm va musiqa bilan hamohang kelganda, ularni eslab qolish qiyin bo'lmaydi. She'r, to'rtliklar ham o'rgatilgandan so'ng ulardagi leksik birliklar osongina o'quvchining lug'at boyligiga qo'shiladi.

Ko'rgazmalilik va harakatlar, ya'ni bolalar ifodalab bermoqchi bo'lgan fikrni imo-ishoralar orqali ko'rsatib berish ham nutq birliklarini o'rgatish jarayonida ahamiyatlidir. Shubhasiz, harakat uchun berilgan mashqlar orqali boshqa mavzularni ham mustahkamlash mumkin. Leksik birlik o'quvchilar xotirasida yaxshiroq qolishi shart bo'lsa, albatta, dars jarayonida kartochka, rasm, imo-ishora, real predmetlar yordamida so'zning ma'nosi ko'rsatib berilishi lozim. [4]

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatish jarayonida leksik materialni ishlab chiqish va mustahkamlash uchun quyidagi kabi tayyorlov mashqlarini bajarish tavsiya etiladi: o'ylab top o'yini (so'zlar, o'yinchoq nomlari, rasmlar, topishmoqlar); rasm chizish, bo'yash (bolalar nimani chizgan, bo'yagan, yasagan bo'lsalar shu predmetlarni ingliz tilida aytish, talaffuz qilish); jismoniy tarbiya daqiqalari (ba'zi bir harakatlarni, buyruqlarni bajarish); diqqat-e'tiborga qaratilgan o'yinlar (o'qituvchi leksik birlikni aytib, o'yinchoq yoki rasmni ko'rsatadi, bolalar rasmda berilgan so'zlarni birgalikda takrorlaydilar). [5]

Xulosa qilib aytganda, agar leksik birliklarni o'rgatish mashqlari qiziqarli bo'lsa, leksik material yaxshi eslab qolinadi va bu, o'z navbatida, ingliz tilini o'rganishda o'z ijobiy samarasini bermasdan qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'.Hoshimov, I.Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2003.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent, 1996.
3. M.T.Irisqulov, S.Xan, L.Jo'raev va boshq. "Kid's English 1" Pupil's Book. – Toshkent, 2014.
4. S.Xan, L.Jo'raev va boshq. "Kids' English 2" Pupil's Book. – Toshkent, 2015.
5. Brown H.D. Principles of language and teaching English words. – Cliffs, 1987.

Ra'no YUSUBOVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi;

Yulduz QURBONOVA,


Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

UNDALMALAR VA ULARNI O'RGANISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Ma'lumki, umumta'lim maktablarining 8- hamda 11-sinf ona tili darsliklarida undalmalarga doir nazariy ma'lumotlar va ularni mustahkamlash uchun amaliy mashqlar keltirilgan. Bu bosqichda har bir o'quvchi so'zlash madaniyati, o'ziga xos individual nutq egasi bo'lib shakllangan bo'ladi. Shunday ekan, o'qituvchi kundalik hayotda, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy jarayonlarda ko'p qo'llaniladigan undalmalarning milliy-madaniy jihatlari, muloqot jarayonida qo'llanish o'rni, ma'no tarkibi, gapning qaysi o'rnida kelishi va buning natijasida semantikasidagi umumiy hamda farqli xususiyatlarini ochib berishga to'la erishmog'i lozim. Ushbu muammoli masalalarni dars jarayoniga olib kirish, o'quvchilarning bu boradagi yetarli bilim, ko'nikmalarini shakllantirish, buning uchun zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'lini tanlashi lozim. Bu jarayonda grafik organayzerlar ham interfaol metodlar sifatida ta'lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.¹

Grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor, to'ldirilgan holda qo'llasa, vosita vazifasini, mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatsa, metod vazifasini bajaradi.

“Klaster” grafik organayzerining ahamiyatli jihati shundaki, u bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi, o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishda yordam beradi. Ushbu metod mavzu mohiyatining o'quvchi onigiga to'laqonli singishi, dars jarayonida o'quvchining faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan undalmalarni o'rganishda bunday ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijobiy samara beradi, zero, bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.



“Insert” grafik organayzeri mustaqil o'qish vaqtida olingan ma'lumotlar, tinglangan ma'ruzalarni tizimlashtirishga yordam beradi, olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish, avval o'zlashtirilgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini shakllantiradi.

O'quvchilar o'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq alohida tizimlashtiradi – jadval ustunlariga “kiritadi”:

“V” – men bilgan ma'lumotlarga mos;

“_” – men bilgan ma'lumotlarga zid;

“+” – men uchun yangi ma'lumot;

“?” – men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash, to'ldirish talab etiladi.

Bunda o'quvchilar o'zlari avval bilgan ma'lumotlarni dars davomida olgan bilimlari, bilishni xohlagan ma'lumotlari bilan taqqoslaydilar.

8-sinf ona tili darsligida undalmalarning uyushib kelishi “*Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, opa-singillar, sizga oila tinchligi hamma narsadan muhim*” misoli yordamida ko'rsatib berilgan. Undalmalar sodda gapning shunday turiki, uyushib kelish bilan bir qatorda ular takrorlanishi, ajratilgan tartibda qo'llanishi mumkin.

“*Nodir, doskaga!*” tarzida ifodalangan undalmali gap semantik jihatdan presuppozitsiya asosida qanday ma'nolarni berishi mumkinligini aniqlang.

1. O'rnidan turgan holda emas, balki doskaga chiqqan holda.

2. Boshqa o'quvchi emas, aynan Nodir.

3. Biror topshiriqni bajarish uchun.

4. Doskaga yozishni talab qilgan holda.

Undalmalar so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalashiga ko'ra nutq uslublarining barchasida qo'llanadi.

Gap bo'laklari kabi undalmalar ham ajratilganda, o'zidan oldin kelgan undalmani ajratilgan undalma izohlab, aniqlab, to'ldirib keladi: “*Bolam, Sabhu, – deb so'radi, – so'zingizni anglamadim*”.

Uyushgan undalmalar ikki va undan ortiq undalmalardan iborat bo'lib, so'zlovchining bir vaqtda bir necha shaxs va obyektga undashini bildiradi. Bu undalmalar murakkab undalmalardan farq qiladi, ya'ni uyushgan undalmalarda undash obyekti ko'p, murakkab undal-

malarda esa undash obykti bitta bo'ladi: "Qaydasen, **Abul Hasanak! Sarbozlar!** – deb qichqirdi". Undalmalar uyushganda murojaat birdan ortiq subyektga qaratiladi, bunda uyushgan undalmalarda so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsning vazifasi, qiymati hisobga olinadi. Uyushgan undalmalar ikki elementli bo'lib, parsellatsiyaga uchrasa hamda ikkinchi undalmaga ayiruv-chegaralov yuklamasi biriksa, sanashning tugallanganligi anglashiladi. Uyushgan undalmalar tarkibidagi elementlar intonatsiya yordami bilan o'zaro birikkan bo'lsa, sanashni davom ettirish, uyushgan undalma qismlarini ko'paytirish mumkin.

Undalmalar gap bo'laklari kabi takrorlanib kelishi mumkin, bunda ular kontakt yoki distant joylashadi. Distant joylashgan undalmalar gapning boshi va oxirida keladi: "**Olampanoh!** – deb xitob qildi. – Shafqat qiling, **olampanoh!**"

Takror kelgan undalmalarning qo'llanish tartibi quyidagicha bo'ladi:

1. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsning roli qiy-

matiga qarab distant joylashadi: "**Olampanoh!** – deb xitob qildi. – Shafqat qiling, **olampanoh!**"

2. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsning asosiy vazifasiga qarab kontakt joylashadi²: "**O, mirzam, mirzam,** – deb oppoq boshini sarak-sarak qildi. – Qo'ying shu may-u sharbatxonangizni! Payg'ambar yoshiga bordingiz mana!"

3. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsning hurmati, e'tiboriga qarab: "Beruniy ich-ichidan kuyunib: "**O, azizim, azizim!** dedi ichida. – Qani endi sening qaytishingga ijozat olmoq oson bo'lsa!"

Xullas, innovatsion texnologiyalarni amalda qo'llash o'qituvchining haqiqiy o'qituvchilik faoliyatiga o'tishi, ya'ni u bolani o'qitish emas, mavzuni o'rganishi, o'zlashtirishi, anglashi uchun qanday yo'l tutishi bilan belgilanadi. O'qituvchi o'quvchilar uchun qulay, oson, maqsadga tez yetkazadigan va samarali yo'l-yo'riqlar, usullarni to'g'ri tanlab ko'rsatish va amalda qo'llash orqali o'z pedagogik mahoratini hamda o'quvchilarning bilimlari sifati va tarbiyalanganlik darajasini muntazam oshirib borishga erishadi.

¹Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – Toshkent: TDIU, 2010.

²G'ulomov A., Asqarova M. Ko'rsatilgan asar. 151-bet.

Mulohaza

Dono ZULPIYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

TALABALARGA CHET TIL O'QITISHNING PRODUKTIV METODI

Chet tildan samarali foydalanish oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning asosiy kasbiy ko'nikmalaridan biri hisoblansa-da, texnika universitetlarida chet tillarni o'qitish samarali kasbiy muloqotni shakllantirish uchun yetarli darajada lingvistik va madaniyatlararo asos bo'lib xizmat qila olmaydi. O'zbek va ingliz tillarida past bilim darajasiga ega bo'lgan talabalarga chet tillarni o'qitish qator qiyinchiliklar tug'diradi. "Til o'rganuvchi talabalar faoliyati markazida bo'lgan" oliy ta'lim muassasalarida ta'limdan ko'zlangan ustuvor vazifa – kasbiy til ko'nikmalarini samarali shakllantirish, chet til bilan bog'liq kasbiy tayyorgarlikni optimallashtirish muammosi yuzaga kelmoqda. [1] Bundan tashqari, zamonaviy chet tillarni o'rganish suratining jadallashuvi turli ijtimoiy va madaniy jabhalarda til o'qitishning produktiv metodologik modeli – madaniyatlararo muloqot nazariyasiga chambarchas bog'liq. Madaniyatlararo paradigma che-

garasidan yiroq bo'lganda, chet til o'qitish jarayoni oliy ta'limdan ko'zlangan natijalarni bera olmaydi. Chet til o'qitishdan ko'zlangan maqsad va mohiyat zamonaviy jamiyat talablari, dunyo mehnat bozori hamda har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlariga bog'liq ekanini qayd etib o'tish lozim. Shuningdek, chet til o'qitish jarayonida tegishli hujjatlar, tushunchalar va ta'lim sohasida qo'yilgan maqsadlarni hozirgi zamon nuqtayi nazaridan anglab yetish talab etiladigan ta'lim standartlariga ham e'tibor qaratish kerak. Oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy ta'lim standartlarini tadqiq etish uning amaliy yo'nalishiga qaratilgan o'zgarishlarni umumlashtirish imkonini beradi. Mazkur metodologik yo'nalish chet til ta'limi sifatini yuqori darajaga olib chiqishga xizmat qiladigan produktiv metodlarni tatbiq etishni taqozo etadi.

Produktiv ta'limga oid ilmiy pedagogik adabiyotlar tadqiqi talabalarning kasbiy mahorat va shaxsiy sifatla-

rini rivojlantirishga yordam beradi. Produktiv ta'lim talabalarining guruhda o'zaro ma'lumot almashishi va ularning o'qituvchi tomonidan yo'naltirilishiga asoslangan metod hisoblanishi, talabalar ham payti kelib o'qituvchi bo'lib yetishishi, ilmiy rahbar tomonidan yo'naltirilishi kabi masalalar qator adabiyotlarda muhokama etilgan. [2]

Produktiv ta'lim olish talabalarni kasbiy yo'naltirish konsepsiyasini tatbiq etish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon AQSH va Yevropaning qator o'rta maxsus va oliy ta'lim yurtlarida kasbga yo'naltirilgan mashg'ulotlar (faoliyat asosida o'rganish) tizimi ko'rinishida keng ommalashgan. Ta'limning bunday shakli maktab va kasbiy ta'lim o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga va kelajakda yuqori kasbiy natijalarga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan o'quvchi-yoshlarning shaxsiy hamda kasbiy mahoratlarini rivojlantirish muammosini bartaraf etishga imkon beradi. So'nggi yillarda produktiv o'qitish metodlari, ularni turli ta'lim shakllarida tajribadan o'tkazish va joriy etish ustida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar O'zbekistonda ta'lim samaradorligini oshirishning turli usullarini ham o'zida aks ettirgan. [3]

Turli ta'lim shakllarida xorijiy til ta'limiga oid ilmiy tadqiqotlar O'zbekistonda kasbiy ta'lim sohasida samarali o'qitish metodlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatadi. Chet til o'qitish nazariyasi va amaliyoti tahlili ta'lim sohasidagi asosiy metodologik muammolar quyidagilardan iborat ekanligi haqida ma'lumot beradi:

- muloqot ko'nikmasini shakllantirish;
- kasbiy til ko'nikmalarini o'zlashtirish;
- talabalarining shaxsiy layoqatlarini rivojlantirish.

Talabalarga chet tillarni o'rgatish jarayonida produktiv metodlardan foydalanish ehtiyoji, avvalambor, ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi bilan bog'langan. Bu jihatdan produktiv o'qitish metodi talabalarining muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy ta'lim sohasida bir necha tillarda o'zaro muloqotga kirishishini ta'minlaydi.

Hozirgi globallashuv jarayonida tillarni o'rganish turli sohalarda kasbiy muvaffaqiyatga erishishni ta'minlovchi asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Bunda turli mamlakatlar madaniyati bilan yaqindan tanishish, madaniyatlararo munosabatlarda faol ishtirok etish va muloqot qilish uchun so'zlashuv vositasi hisoblangan lisoniy va madaniy ko'nikmalarni yuqori darajada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni til o'rganishga tayyorlash hamda ularning lingvistik va madaniy ko'nik-

malarini muvaffaqiyatli shakllantirishda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- talabalarining turli til o'rganish qobiliyatlari;
- chet til bo'yicha maxsus kurslarga ajratilgan o'quv soatlari yetarli darajada emasligi;
- chet tillarni o'qitishda samarali uslublardan yetarli darajada foydalanmaslik.

Shu o'rinda, talabalarga chet til o'qitish nazariyasi va amaliyotida yuzaga keladigan quyidagi muammolarni ko'rsatib o'tish joiz:

- zamonaviy ta'lim standartlarida qo'yilgan talablar asosida **xorijiy** tillarni o'qitishda yetarli darajada samarali vositalardan foydalanmaslik;
- oliy ta'lim tizimida chet til o'qitish metodologiyasi hamda innovatsion samarali o'qitish usullarini ishlab chiqishga bo'lgan talab;
- yuqori darajada til o'rganish ko'nikmasini shakllantirish zarurati va xorijiy til o'qitish kurslarida o'quv soatlarining qisqartirilishi.

Talabalarining kasbiy til ko'nikmalari, shaxsiy sifatlarini shakllantirish muammosini bartaraf etish va bunga imkon beradigan produktiv uslub asosida chet til o'rganishning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq. Talabalarining ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish, chet til ta'limi samaradorligining dars soatlari qisqarishi hisobiga pasayishi ularning mustaqil o'rganishiga yordam beradi.

Bugungi kunda universitetlarda tahsil olayotgan talabalarining tillarni samarali o'rganishiga ko'maklashuvchi yaxlit til o'qitish metodlari mavjud emasligini nazarga tutadigan bo'lsak, ilg'or produktiv metodlarning ishlab chiqilishi ularning kasbiy va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish muammosini hal etadi.

Xulosa shuki, chet til o'qitish sohasida ishlab chiqiladigan ilg'or va ustuvor metodlar kasbiy ta'lim samaradorligi va integrallashuviga imkon beradi. Talabalarining produktiv ta'lim olish faoliyati ularning til o'rganishi uchun diskursiv asos bo'lib, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, chet til o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bir tomondan, bu metod tillarni o'zlashtirish portfoliosida samarali muloqot ko'nikmasi yordamida chet til o'zlashtirilishini rivojlantirishga ko'maklashsa, boshqa tomondan esa, madaniy xususiyatlar va til bilan bog'liqlikda amalga oshiriladigan faoliyat yordamida kasbiy ta'limning keng ommalashuviga yordam beradi. Shunday qilib, chet til o'qitishda joriy etiladigan ilg'or faoliyat va texnologiyalar oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy tizim ravnaqi uchun sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Popova, Kogan, & Khalyapina, 2017. – p.1103.
2. Candrasekaran, 2014. – p.16.
3. Almazova, Khalyapina, & Popova, 2016; Bashmakov & Gorjaev, 2014; Kabanova & Kogan, 2017; Saigushev, Savva, Gnevak, Tsaran, & Vedeneeva, 2017.



Sabohat SHUKUROVA,
Qarshi davlat universiteti Fakultetlararo chet tili
kafedrasida katta o'qituvchisi

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP TURLARINI O'QITISH MUAMMOLARI

Ma'lumki, dunyo tillarining aksariyatida grammatik jihatdan umumiyliklar kuzatiladi. Xususan, qo'shma gap haqidagi ilmiy qarashlar ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham ko'p jihatlar bilan o'xshash. Biroq qo'shma gap turlarini ajratishda bu tillarda ayrim umumiyliklar bo'lishi bilan birga ingliz tilini o'qitishda o'zbek tili bilan qiyoslab tushuntirib bo'lmaydigan keskin tafovutlar ham uchraydi. Bu, ayniqsa, ergash gapli qo'shma gap turlarini ajratishda ko'rinadi.

Turkiy tillar gap qurilishida, xususan o'zbek tilida ham kesim, odatda, gap oxirida kelib, ko'p hollarda fe'l, ba'zan ismlar bilan ifodalanadi. Ega ishtirok etmaganda ham alohida gap bo'lib kela oladi. O'zbek tilidan farqli ravishda flektiv tillarda, xususan, ingliz tilida kesimni shakllantiruvchi maxsus qo'shimchalar yo'q. Masalan: / *like coffee*. / *You like coffee*. / *They like coffee*. Ko'rinib turibdiki, har uch shaxsda ham kesimning grammatik shakli bir xil (*like*), o'zbek tilida kesimlik shakllari zamon, shaxs-son, mayl va tasdiq-inkorda o'zgaradi: *Men qahvani yoqtiraman*. / *Sen qahvani yoqtirasan*. / *Ular qahvani yoqtiradilar*.

Uzluksiz ta'lim bo'g'ini – umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim ona tili darsliklarida kesimga nisbatan "gap markazi bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi"¹, "gapning gap bo'lib shakllanishida muhim bo'lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lak – kesim"², "resimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi", "kesim – tasdiq-inkor, zamon, modallik, shaxs-son ma'no va shakllariga ega bo'lgan so'z, gap markazini tashkil qiluvchi bo'lak"³ kabi ta'riflar beriladi. Ularning nazariy asosida kesimning o'zbek tili gap qurilishida tutgan o'rni yotadi.

Shuningdek, o'zbek tilida ham bog'lamasiz ot-kesimli gaplarda ega ishtirok etishi shart. Aks holda kesim kesim maqomiga ega bo'la olmaydi: *Men – shoir*. *U chiroyli*. Grammatik shakllangan gaplarda esa eganing tushirib qoldirilishi, odatda, kesimning mavqeyiga ta'sir etmaydi: *(Men) universitetning 3-kursida o'qiyman*. *(Men) universitetning 3-kurs talabasiman*.

"Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis" darsligi mualliflari o'rinli ta'kidlaganidek, "O'zbek tilida sodda gap doirasida kesim hamma vaqt shaxs-son, mayl, zamon ko'rsatkichlari bilan shakllangan bo'ladi va bir predikativ markazdan iborat bo'lgan gap sodda gap, ikki va undan ortiq predikativ markazdan iborat bo'lgan gap qo'shma gap hisoblanadi. Lekin an'anaviy sintaksisda qo'shma

gap tarkibida qo'llangan kesimlar har doim ham shu ko'rsatkichlar bilan (shaxs-son, zamon, mayl) shakllangan bo'lmaydi va shunga qaramay bu qismlar qo'shma gapning komponentlari – sodda gap deb uqtiladi: *Sen kelgach, men ketaman* va boshqalar. Vaholanki, *Sen kelgach...*, *Sen kelganda...*, *Sen kelgandan keyin...* kabi qurilmalarda sodda gaplarga xos bo'lgan na mazmun, na ohang tugalligi, na grammatik shakllanish (shaxs-son, zamon, mayl ko'rsatkichlari) bor. Bunday ang-lashilmovchilikni yuzaga keltirgan omil yuqorida ko'rib o'tilgan *Sen kelgach, men ketaman* gapining rus tilida *Когда ты придешь, я уйду* deb ergash gapli qo'shma gap tarzida berilishidir"⁴.

Bu holat o'zbek va ingliz tillarida qo'shma gap, xususan, ergash gapli qo'shma gap turlarini qiyosiy o'qitishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Mustaqillikkacha yaratilgan ko'pgina darslik va qo'llanmalarda kesimi ravishdosh, sifat-dosh, harakat nomi bilan shakllangan ergash gaplar flektiv tillar, xususan, rus tili grammatik qoliqlariga asosan "sintaksis baynalmilaldir" degan umumiy qonuniyatdan kelib chiqib mustaqil gap hisoblangan. R.Sayfullayeva ta'kidlaganidek, "haqiqatan ham, turkiy tillarning, shuningdek, o'zbek tilining sintaksisi baynalmilallashtirilgan edi. Mana shu "sintaksis internatsional" degan xulosaga asoslangan o'zbek tili sintaksisi ko'p kategoriyalarining taqdiri o'zbek tilining grammatik qurilishi, o'zbek tilining semantik qurilishi, o'zbek tilining ohangi, tovush tempi qurilishi tabiatidan kelib chiqib emas, balki rus tilining grammatik-semantik qurilishi tabiatidan kelib chiqib, ag'darmachilik zaminida hal qilina boshlandi. Masalan, "Salim o'qiyotganda men keldim" gapi ikki yarusli bo'lib, bir hukmni tasdiqlaydi. Bu gapning birinchi yarusi (Salim o'qiyotganda) ikkinchi yarusda ifoda etilgan harakatning bajarilish paytini ko'rsatadi. Payt ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash uchun birinchi yarusini payt, vaqt singari so'zlar hisobidan kengaytirish ham mumkin"⁵.

Rus tilida bo'lgani kabi bu tipdagi gaplar ingliz tilida ham mustaqil gap bo'la oladi, ya'ni ingliz tili uchun *When I arrived, he was talking on the phone* (*Men kelganda, u telefonda gaplashayotgan edi*) gapi qo'shma gap va bu ilmiy asosga ega. Ingliz tilidagi qo'shma gap nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida ingliz normativ grammatikasida to'la shakllangan va hozirgi davrgacha hech o'zgarishsiz saqlanib kelgan. Ingliz va nemis tili grammatikalarida qo'shma gapga ta'rif berilayotganda ikki va undan ortiq sintaktik konstruksiyalarning struktur va semantik birligi hamda har bir konstruksiyaning predikativ markazi mavjudligiga ahamiyat beriladi.

Masalan: **Jane's contact lens popped out while she was playing basketball** – *Jeynning kontakt linzasi basketbol o'ynayotganida tushib ketdi.*

Ushbu gap ingliz tili uchun payt ergash gapli qo'shma gap sanaladi. O'zbek tili nuqtayi nazaridan sodda gap. Yoki: I will leave **before** he comes – *U kelishidan oldin men ketaman.* Ingliz tilidagi *Complex Sentence* (o'zbek tiliga ergash gapli qo'shma gaplarga yaqin turadi) bitta mustaqil qism va bir yoki bir nechta mustaqil qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Nomustaqil qism alohida o'zi mustaqil qo'llana olmaydi. Ingliz tilida bog'langan qo'shma gap o'zbek tilida ergash gapli qo'shma gaplarga to'g'ri keladi. Sababi *Compound Sentence* qismlarini bog'lovchi vositalar o'zbek tilida ergash gapli qo'shma gap qismlarini bog'laydi va o'zbek tilidagidek, ergash gap bosh gapni aniqlash, to'ldirish va izohlashga xizmat qiladi.

O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplar esa [WPm→WPm] ko'rinishda bo'ladi. [WPm→WPm] tipik ko'rinishli gapda har ikkala sodda gap ham shakllangan [Pm]ga ega bo'lsa-da, birinchi gapning markazi mustaqil sodda gap kesimi (mustaqil kesimlik shakli) bo'la olmaydi. U hamisha tobe gap markazini shakllantiruvchi vosita sifatida o'z mazmunini namoyon qilish uchun o'zidan keyin mustaqil holda namoyon bo'la oladigan, voqelanishi uchun oldingi gapga ehtiyoj sezmaydigan gap bo'lishini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, bu

tipik ko'rinishli gap tarkibidagi oldingi sodda gapning kesimi nomustaqil kesimlik shakli bilan, keyingisi mustaqil kesimlik shakli bilan shakllangan bo'ladi: 1. *Firuz toshli uzukni olar ekan, Saidaxonning ko'zlari quvonchdan yaltirab ketdi.* (S.Ahmad) 2. *Ra'no guruchni endi tuzlagan ham ediki, Anvar chiqib keldi.*⁶

Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma gaplar tasnifi va talqinida istiqlogacha yaratilgan o'quv vositalarida tafvut bo'lmagan. Hozirga qadar ham ingliz tilini o'qitish vositalarida ilmiy jihatdan eskirgan ushbu qarashlarning saqlanib kelayotganligi o'zbek va ingliz tillarida qo'shma gaplarni qiyosiy o'rganishda chalkashliklarni yuzaga keltirmoqda.

Xullas, ingliz tili darsliklarida ergash gapli qo'shma gap turlarini o'qitishda o'zbek tilshunosligining so'nggi yillardagi yutuqlariga tayanish o'quvchining joriy maktab ona tili darsliklaridan o'zlashtirgan bilimlari va ingliz tili grammatikasidagi tafvutlarni to'g'ri anglagan holda til o'rganishiga zamin hozirlaydi. O'zbek tilida "kesimlik (shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'laki" degan qat'iy hukmga tayansak, ravishdosh, sifatdosh, shuningdek, harakat nomi shakllari bu belgiga ega emas. Biroq ingliz tilida ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi fe'l kesim bo'lib kelishi mumkin, chunki bu tilda, yuqorida aytilganidek, turkiy tillardagi kabi kesimni shakllantiruvchi maxsus shakllar mavjud emas.

¹M.Qodirov va boshq. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2014. 57-bet.

²A.Nurmonov va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 3-bosqich talabalar uchun darslik. – Toshkent: ILM ZIYO, 2010. 44-bet.

³Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 345-bet.

⁴Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis/Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013. 225-bet.

⁵R.Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning substansial (zotiy) talqini. – Toshkent: Fan, 2007. 19-bet.

⁶Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 88-bet.



Umid HAMROYEV,

Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi
22-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

(So'z birikmasi va qo'shma so'z mavzusi (8-sinf) misolida)

PISA – o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va mulohazalar qilish imkoniyatlarini o'rganadi. Bunda savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda o'quvchilar "javob to'liq qabul qilinadi", "javob qisman qabul qilinadi", "javob qabul qilinmaydi" mezonlari bo'yicha baholanadi.

PISA baholash dasturi orqali quyidagi muammolar tadqiq etiladi:

– yoshlarimiz kelajak hayotlarida duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni yengib o'tishga qanchalik tayyorligi;

– o'quvchilarning yuzaga kelgan muammo sabablari va yechimlarni tahlil qilish, izlash, aniqlash va o'z g'oyalari taqdim eta olish qobiliyatiga egaligi;

– o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatda qo'llay olish qobiliyatiga egaligi.

Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning o'qish savodxonligi asosiy o'rinni egallaydi. O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.

PISAdagi dalillar va boshqa amaliy tadqiqotlardan foydalanilgan holda ushbu soha ta'rifiga ba'zi muhim o'zgartishlar kiritildi va puxta ishlab chiqildi.

O'qish va o'qish savodxonligi bir-biridan farq qiluvchi tushuncha ekanligi anglashimiz kerak. Xalqaro baholash o'z ichiga matn tarkibidan alohida olingan so'zning ma'nosini tushunishdan tortib, matnning fonetik, leksik, grammatik qurilishini anglash hamda matndan olingan tushunchaning o'zini hayotiy voqea-hodisalar bilan bog'lay olish kabi qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. O'qish savodxonligi orqali o'quvchi tushunish, foydalanish, mulohaza yuritish hamda munosabat bildirish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

O'qish savodxonligi zaruriyatining asoslari quyidagilardan iborat:

– matn orqali o'quvchining tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish ko'nikmalari shakllanadi;

– o'quvchi matn tuzish texnikasini o'rganadi;

– o'quvchi matn lug'ati bilan ishlash jarayonida qanday so'zlardan foydalanish kerakligi, shu o'rinda, aynan qaysi so'z qo'llansa, o'rinli bo'lishini tushunadi;

– o'quvchi matndan savol berishni o'rganadi, aytilmoqchi bo'lgan asosiy fikrni ajratib oladi, savollarga javob berish jarayonida mustaqil fikrlaydi;

– matnlarga sarlavha tanlash jarayonida o'quvchi matndagi asosiy fikrni anglab, uni qisqa va mazmunli jumlada aks ettirish ko'nikmasini shakllantiradi;

– lug'at bilan ishlash jarayonida o'quvchi o'zi uchun yangi bo'lgan so'zlar izohini o'rganadi, uning lug'at boyligi oshadi.

8-sinf ona tili darsligida berilgan "Amir Temur va me'mor" matni o'quvchilarni mantiqiy kreativ fikrlashga undovchi matn hisoblanadi. Dastlab matn o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi yoki audio yozuv varianti eshittiriladi, o'quvchilar matnni kuzatib boradilar. Bu orqali o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalari shakllantiriladi.

AMIR TEMUR VA ME'MOR

Bir kuni Amir Temur tez muddatda dunyo qoyil qoladigan madrasa qurib bitirishni niyat qilibdi. Mohir me'morni chaqirib, o'sha kuniyoq ish boshlatmoqchi bo'libdi. Me'mor bunday binoni shoshilinch qurib bo'lmashligini qancha aytsa ham, Amir Temur ko'nmabdi. Noiloj qolgan me'mor madrasaning joyini tayyorlab, poydevorini qo'ydirib, bir kechada g'oyib bo'lib qolibdi. Yer-u ko'kni qidirib topisholmabdi. Oradan ikki yil o'tgach, haligi usta yana paydo bo'libdi-da, darg'azab Amirga:

– Siz istagan muddatda bu binoni qurib bitkazishim mumkin edi, ammo ming go'zal bo'lgani bilan uning umri uzoqqa bormasdi. O'ylanmay qilingan ishning oxiri voy. Siz aytgan binoni qurish uchun o'ylashga

fursat kerak edi. Men ikki yil ko'rinmay ketgan davrimda shu haqda o'yladim.

Qancha-qancha yurtlardagi qasri oliylarni ko'rib keldim. **Ham boqiy, ham go'zal bo'lishi rejalarni tuzdim.** Men bir bino yaratmoqchimanki, uning tepasida faqat osmon bo'ladi. Osmon xalaqit bermasa, uni yana ham **balandroq ko'tarishim** mumkin bo'lardi, – deb javob qilgan ekan.

O'quvchilarning gapirish malakalarini shakllantirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Amir Temur nega me'morni eshitishni istamadi?
2. Nega me'mor Amir Temurdan qochib ketdi?
3. Me'morda qaytish uchun jur'at nima sababdan paydo bo'ldi?

Mantiqiy va kreativ fikrlashga undovchi topshiriqlar:

1. "Amir Temur va me'mor" matniga mos kelmaydigan jumla qaysi qatorda berilgan?

A) Amir Temur tez muddatda dunyo qoyil qoladigan madrasa qurib bitirishni niyat qilibdi.

B) Me'mor bunday binoni shoshilinch qurib bo'lmashligini qancha aytsa ham, Amir Temur ko'nmabdi.

D) Noiloj qolgan me'mor madrasaning joyini tayyorlab, poydevorini qo'ydirib, bir kechada g'oyib bo'lib qolibdi.

E) Yer-u ko'kni qidirib topisholmabdi. Oradan bir yil o'tgach haligi usta yana paydo bo'libdi.

2. Fikrni davom ettiring: "Siz istagan muddatda bu binoni qurib bitkazishim mumkin edi, ..."

A) ammo ming go'zal bo'lgani bilan, uning tez orada peshtoqlari nurab ketar edi.

B) lekin chiroyli va hashamatli bo'lgani bilan, u xalqning olqishiga sazovor bo'lolmasdi.

D) ammo ming go'zal bo'lgani bilan, uning umri uzoqqa bormasdi.

E) ammo juda go'zal bo'lsa-da, tezda qurilgani uchun bir yilda yer ostiga kirib ketar edi.

3. Me'morning donoligi uning hayotida qanday rol o'ynadi?

A) Bir qancha yurtlarda qasri oliylarni ko'rdi.

B) Qurgan qasri go'zal va boqiy bo'lishini rejalashtirdi.

D) Mamlakatdan qochib ketdi, Amir Temur uni topib qatl qildirdi.

E) Go'zal, boqiy, baland imorat qurib, Amir Temurning e'tiborini qozondi.

4. Sizningcha me'mor to'g'ri ish qildimi? Fikr-mulohazalaringizni yozing. _____

5. Berilgan matnga siz qanday sarlavha qo'ygan bo'lar edingiz? _____

6. "O'ylamay qilingan ishning holiga voy" maqolini qanday tushundingiz? _____

7. Berilgan fikrlardan qaysi biri hikoya mazmuniga xulosani ifodalaydi.

A) Gap bilaman deb, og'zingga zo'r berma, ish bilaman deb qo'lingga.

B) Bekengash ishning pushaymoni ko'p.

D) Yetti o'lchab, bir kes.

E) Ho'kizning mo'guzi o'ziga og'irlik qilmas.

8. Hikoya mazmuniga mos kelmaydigan maqol qaysi qatorida berilgan?

A) Avval o'yla, keyin so'yla.

B) Sanamay sakkiz dema.

D) Bozor borsang, avval oqshomdan taraddud ko'r.

E) Besh qo'l og'izga sig'mas.

9. Berilgan maqollardan qaysilari hikoya mazmuniga mos keladi? (Ha yoki yo'q javobi orqali).

A) Yolg'on gap bo'lsa ham nishonga tegsin.

B) Ish avvali bir o'ylasang, oxirini besh o'yla.

D) Yo'l bilmagan manziliga yetolmas.

E) Keng bichilgan to'n to'zmas.

F) Kengashli fikr – quyma fikr.

G) Kengash qilgan el ozmas.

H) Kecha yotib o'yla, erta turib so'yla.

I) Kun ishini tun o'yla.

J) Maslahatli to'n tor kelmas.

O'quvchilarning tilshunoslik nuqtayi nazaridan olgan bilimlarini quyidagi topshiriqlardan foydalanib sinovdan o'tkazish mumkin:

1. "Amir Temur va me'mor" hikoyasidan olingan matnda ajratib ko'rsatilgan birliklardan so'z birikmasi va qo'shma so'zlarni belgilang.

Qo'shma so'z	So'z birikmasi
niyat qilmoq ...	binoni qurib bitkazgan ...

2. So'z birikmasi va qo'shma so'zning farqli va o'xshash jihatlarini quyidagi jadval asosida izohlang:

So'z birikmasi	O'xshashligi	Qo'shma gap
Grammatik birlik	So'z birikmasida ham, qo'shma so'zda ham qismlar bir xildagi so'z turkumlariga oid bo'lishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega bo'lishi mumkin: oq qush – oqqush, uch quduq – Uchquduq	Leksik birlik
Tushuncha ifodalaydi		Leksik ma'no ifodalaydi
Qismlari ma'no mustaqilligini saqlaydi		Qismlari ma'no mustaqilligini yo'qotib, boshqa ma'noni ifodalaydi
Qismlari alohida-alohida so'roqqa, sintaktik vazifaga, urg'uga ega		Qismlari yaxlitligicha bitta so'roqqa javob bo'ladi, bitta urg'uga ega va bitta sintaktik vazifada bo'ladi
Qismlari hamisha ajratib yoziladi		Asoslari, ko'pincha, qo'shib yoziladi
Nutq jarayonida hosil qilinadi		Tayyor material bo'lib, nutq jarayonida hosil qilinmaydi
Qismlari orasida grammatik aloqa sezilib turadi		Asoslari orasidagi grammatik aloqa yo'qolgan

3. Berilgan izohlardan *madrasa, mohir, me'mor, poydevor, fursat, boqiy, oliy* so'zlarining ma'nosini aniqlab, ularni ma'no muvofiqligi asosida moslang.

1) madrasa

2) mohir

3) me'mor

4) poydevor

5) fursat

6) boqiy

7) oliy

a) bino devorlarining asos qismi;

b) vaqtning zum, damdan keyingi kichik qismlaridan biri;

d) abadiylikka ega;

e) eng yuqori;

f) Sharq o'tmishida oliy ma'lumot beruvchi ta'lim muassasasi;

g) imorat qurilishini loyihalash bo'yicha mutaxassis. Javob: _____

Ajratib ko'rsatilgan so'zlardan so'z birikmalarini ajratib, ular tarkibidagi hokim so'zlarni topib, ushbu so'zning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanayotganini aniqlang. Masalan: *binoni qurib bitkazmoq* so'z birikmasida hokim so'z – *qurib bitkazmoq* – fe'l so'z turkumi, ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, topshiriq talablariga o'quvchining shaxsiy yondashuvi vazifani bajarish jarayonida alohida o'rin egallaydi. O'qish maqsadining tuzilishi, o'quvchining qiziqishi, bilimidan kelib chiqib berilgan topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi. PISA tadqiqotlarida o'qish savodxonligini baholashda nafaqat o'quvchilarning bajargan topshiriqlari, balki ularning tashqi muhit, hayotiy harakatlarni qabul qilish ko'nikmalariga egaligi ham inobatga olinadi.



ANALYSIS OF IELTS WRITING TASK TWO CRITERIA

International English Language Testing System (IELTS) is one of the most recognized tests in the world. International universities admit this test since it is reliable and secure. Its reliability significantly depends on its Assessment criteria. The present article discusses how IELTS Writing Task Two is primarily evaluated and provides explanations on each criterion.

According to the statistics presented in the IELTS official site [1] – ielts.org – the total mean score of women's IELTS score makes up 6.1 while it is 6.0 for men (Figure 1). It is also evident that the highest score for women and men is for Listening (6.3 and 6.2 respectively). In contrast, women and men perform comparatively worse in Writing module with 5.6 for women and 5.5 for men. Overall, the bar chart reveals that IELTS candidates all over the world find it easier to deal with modules involving receptive skills (Listening and Reading). However, modules such as Writing and Speaking are considered to be more challenging as they require productive skills.




Figure 1. Academic test takers: mean performance by gender

It is important to note that the module for which students received the lowest score in 2019 was Writing. Figure 1 emphasizes the fact that Writing is most difficult aspect for many test takers. The ability to do well in Writing largely relies on how well candidates respond to the assessment criteria. This, in turn, grants a great importance on learning each criterion thoroughly.

There are four primary criteria for IELTS Writing Task Two. They are as follows:

Task Response

Coherence and Cohesion

Grammatical Range and Accuracy

Lexical Resource

Each criterion comprises 25% of the total mark for Writing Task Two. The candidates can earn band scores from zero to nine for each assessment function. It should be highlighted that the criteria for Task Two varies from Task One in terms of only the first criterion: Task Achievement for Task one and Task Response for Task Two.

Along with primary criteria, examiners assess Writing based on secondary criteria as well. That is, examiners deal with several terms while checking essays. Those terms are as follows [2]:

Under length – less than 250 words

No. of words – number of words

Illegible – not clear enough to read

Off-topic – (some of) the essay is not related to the given topic

Memorization – seems to be written from memory

Penalty – points candidate will lose because of word count.

If a candidate writes less than 250 words, they are penalized according to how close the word count is to 250 words. Those whose handwriting is difficult to perceive are advised to take Computer-based IELTS because illegible writing lowers their score noticeably. It is also true that the essay that discusses the topic not given in the question is disqualified and earns no points. Moreover, if an examiner finds out that the whole or some part of the essay is written from memory, that essay again has points subtracted.

In this article, main focus will be given on primary criteria. In order to earn a high score on Task Response, candidates should answer the given question appropriately. They also need to express their position clearly throughout the whole essay. For example, if a student agrees with the statement, the examiner should make certain that each paragraph proves that the candidate is in favor of the statement. Besides, covering the main points is also assessed as Task Response function. It is suggested that the candidate asks these questions to achieve Task Response [3]:

Did I understand the question?

Did I answer the specific question?

Did I make my opinion clear throughout the essay?

Did I fully develop my main ideas?

For instance, this is the question for Task Two:

"Some people say that art is an essential subject and every child should learn it in school. Do you agree or disagree?"

The response to this question says:

"It is often said that studying art is very important and all children should be taught it. This essay agrees with this statement because art promotes creativity and reduces stress."

The Introduction fully responds to the question if we analyze it from Task Response perspective. That is, the candidate has paraphrased the statement successfully after which s/he answered the specific question directly. It is clear what the candidate thinks about the question. In addition, s/he provides two ideas to develop in the following Body paragraphs.

So as to gain good Coherence and Cohesion, students should be able to divide their essay into proper paragraphs, where only one central idea is present. Moreover, examiners assess the student's ability to link ideas throughout the essay and throughout the paragraph. Sometimes students mistakenly think that to achieve the connection of ideas one should write as many linking devices as possible. However, the cohesive devices need to be used only when necessary and naturally. Another way to connect ideas is referencing. The following questions should be asked by a candidate:

- Does my essay make sense?
- Are the elements well linked together?
- Did I use good paragraphing?
- Did I use linking words appropriately and accurately?

For instance, if we analyze the main Body paragraph one for the abovementioned question about art, it is visible it responds to all the questions successfully.

"The ability to think creatively is an essential cognitive skill which drawing and painting can foster. Young children are forced to create something from their imagination and this provides them with the necessary practice to improve this ability. This will increase their chances of thinking of unique ideas in their future and can also help them in the future careers. For example, it is compulsory for students in the UK to study art and music in primary school, and even in the early years of high school, to ensure they develop these soft skills."

The text clearly provides one main idea and develops it properly. One central idea and its development are given in a separate paragraph. Furthermore, the idea presented in the Introductory paragraph is linked with the main idea in the Body paragraph one: *art promotes creativity = the ability to think creatively*. Only two cohesive

devices are used and most importantly they are used naturally: *because, For example*.

Grammatical Range and Accuracy is an important criterion since exactly grammar helps to achieve Coherence and Cohesion. Many candidates have difficulty making error-free sentences, which lowers their score considerably. The examiners assess the essays based on the variety of structures. Students need to try to use the combination of simple and complex structures. When it comes to Tenses, it is not advised to use the tenses forcibly. Some students strive to use conditionals, passive voice and different tenses in order to get a higher score for grammar. However, only appropriate use of tenses brings higher score. The questions candidates need to ask themselves are as follows:

- Did I use a range of appropriate structures?
- Did I use complex sentences? (but not every sentence should be complex)
- Did I use error-free sentences?

For most students a small number of mistakes cause most of their errors. Therefore, they need to proofread after every sentence, every paragraph and the whole essay in order to identify their weakest areas in grammar. Only after studying those topics better can they get a better score for Grammar Range and Accuracy. Just 20% of students' grammar will lead to 80% of their mistakes. According to Christopher Pell the most essential step to improve grammar is to fix these 20% mistakes [3].

Lexical Resource is the second most important criterion to improve Coherence and Cohesion. The essays are evaluated based on the use of collocations and appropriate words. Spelling is also important to note. Candidates consider that the more "high-level" words they use the more score they are likely to gain. However, IELTS checks people's ability to use a combination of low and high level words. The students need to focus on appropriate and accurate words and the words that help them answer the question. The following questions should be asked in order to achieve good score on Vocabulary:

- Did I use "topic-specific" vocabulary?"
 - Did I use words appropriately?
- The most noteworthy aspect of Vocabulary is that it is better to use words correctly than use "complex" language incorrectly.

In conclusion, it is important that candidates learn what the IELTS examiners want by analyzing all the four criteria thoroughly. Since Writing Task Two is worth double mark of Task one, it needs to be written well enough to earn a high mark for a candidate.

References

1. <https://ielts.org>
2. <https://www.australianepali.com/studentinformation/ieltsandpte/writing-module-explained-ielts/amp/>
3. <https://m.facebook.com/groups/227644634987891?tsid=0.34251002751382487&source=result>



TOJIK, O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MEVALI O'SIMLIKLARNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mevali o'simlik nomlarini tojik, o'zbek va ingliz tillarida ishlatish masalasi ko'rib chiqilgan bo'lib, ular ishtirokidagi sodda, yasama, murakkab so'z va iboralarning shakllanish usullari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: leksika, til, tuzilish, sodda, murakkab, kompozitsion, tasniflash, taqqoslash, sharh, termin, tilshunoslik, kichik guruh, ibora.

Annotation. This article discusses the use of the names of fruit plants in the Tajik, Uzbek and English languages, and also shows the ways of formation of simple, compound, complex words and phrases with their participation.

Key words: vocabulary, language, structure, simple, compound, complex, classification, comparison, interpretation, term, linguistics, subgroup, phrase.

Аннотация. В данной статье рассматривается использование названий плодовых растений на таджикском, узбекском и английском языках, а также показаны способы образования на их основе новых слов и словосочетаний

Ключевые слова: лексика, язык, структура, простой, составной, сложный, классификация, сравнение, толкование, термин, языкознание, подгруппа, фраза.

Mevali o'simliklarni ifodalovchi so'zlarni tojik, o'zbek va ingliz tillarining leksik tuzilishida o'rganish, tadqiq qilish, shuningdek, ularning tuzilishi va kelib chiqishini taqqoslab o'rganish tilshunoslikda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, mevali o'simliklarni ifodalovchi so'zlar taqqoslanayotgan tillarning leksikasida muhim o'rin tutib, faol so'zlar guruhiga kiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mevali o'simlik turlarini ifodalaydigan terminlar tilning asosiy leksik fondini tashkil etib, uning leksik tarkibini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, tojik tili leksikonida mevali o'simliklarni ifodalaydigan quyidagi so'zlar qo'llaniladi: o'rik, olxo'ri, olma va uning navlari, nok, shaftoli, yong'oq, behi, noshpoti, anor, tut, shotut, tuti balxi, tuti asak, uzum, olcha, bodom, pista, anjir, do'lana, ananas, xurmo, mandarin, sanjid, kivi, banan, yeryong'oq, murut va h.k. Ular, masalan, olma daraxti, o'z navbatida, turlarga bo'linadi: paxta olma (lattaseb), yumshoq olma (muloyimseb, ordakseb, xopaseb, xubonú, xuvoni); kulcha olma (kulchaseb); choynak olma (choynakseb); jaydari, qizil olma, shakar olma, oltin olma va h.k.

Tojik tili lahjalarida olma daraxti turlariga mansub quyidagi so'zlarni misol qilib keltirish mumkin:

Qorategin lahjalari guruhida: kopaseb, xubonú // xuvoni; shohiseb // shohisev, javpazak;

Ko'lobning shimoliy lahjalarida: garseb va kulchaseb; choynikseb // choyniksev, bog'lamasev.

G'arbiy Ko'lob lahjalaridagi sevbiyi // sebbehu janubiy va janubi-sharqiy lahjalarda shunday shaklda keng tarqalgan.

Nok va uning navlari: nashpotú // nashputú // nashpotu, noshputú, murut // murud // mirut // amrut va boshqalar. "Amrut" so'zi Buxoro lahjasida "noshputi" [Mamudov, 1989; 168], Kitob tumanining tojik lahjalarida "nokmurut" shaklida ishlatiladi [Mamudov, 1978; 184]. O'rta fors tilida amrut "anbarud" shakliga ega [Saymiddinov, 2001; 98]. Bundan tashqari, kichik qizil anjirga o'xshash "anjir-nok" navlari Qorategin lahjalari guruhiga kirsas, kayvon // kayvan, ruhoni, sevnoklar Kulobning shimoliy lahjalarida uchraydi. N.Gadoyevning tavsifiga ko'ra, "shoking" (nok

turi) so'zi Tagnov lahjasiga tegishli [Gadoyev, 2012; 83]. "Sevnok" so'zi Laxsh mintaqasida "o't turi" ma'nosini anglatadi. Murutning nomlanishi rang (sariq, oq, qora), atrof-dagi narsalar (kesak, kulcha, anjir)ga o'xshashligi, ularning tashqi ko'rinishi va boshqa jihatlari bilan bog'liq.

Qorategin lahjalari guruhida zardakmurut, turshmurut, kulxumurut; irsakmurut // irsakmurud, kokmurud, Kulobning shimoliy lahjalarida kulchamurut, shaingmurut, figurut keng tarqalgan bo'lsa, safedmurud // safedmurut va siyamurud // siyamurut so'zlari janubiy va janubi-sharqiy lahjalarda keng tarqalgan. "Tarak" so'zi "amrud" sifatida faqat Gesh qishlog'i (Ko'lobning shimoliy lahjalari guruhi) da uchraydi. Qoqmurud yoki xirsakmurut // xursakmurud payvandlash orqali yaxshi navga aylangan bo'lsa-da, ularning avvalgi nomlari o'zgarmagan. Ushbu guruh turlari (yovoyi murud) "o'rmon muruti" yoki "xirsak muruti" terminlari bilan ham ifodalanadi. "Anjirmurut" yoki "shohinmurut" so'z birikmasi "m'ruti anjir" yoki "m'ruti shohi" kabi shakllarda ham uchrashi mumkin.

Shu kabi:

– o'rik navlarining nomlari: kandak, ruhak, xurmoyi, safedak, safara, shirinduna va h.k.;

– olxo'ri navlarining nomlari: olxo'ri // olxuri, olcha, gilos, olxo'ri // olubolu, olcha, girdoli // gardolu, qarolu // qora olu, siyaxgelos, surxgelos, zardgelos va h.k.;

– shaftoli navlarining nomlari: shaftoli, pashmak, lashmak, anjir shaftolu, shaftolii keki, qizil shaftoli, oq shaftoli va h.k.;

– uzum navlarining nomlari: kishmish, chillik, tagovi, baxtiyori, husayni, govangur, lali, la'langur, siyahangur, safedangur, javz, javpazak, qora qizil, qora mayiz, mol-buyragi va h.k.;

– tut navlarining nomlari: gultut, shotut, xastut, nartut, oqtut; qoratut, raxstut, surxtut, kalatut, tutmayiz, qizil tut, lali tut, balx tuti, tuti muzaffariy, tut bedonatut, satana tut, shayx tuti va h.k.;

– yong'oq navlarining nomlari: kurak, qog'oti, govkalla, g'alberak va h.k. farqlanadi.

Ingliz leksikasida mevali o'simliklar uchun quyidagi so'zlar ishlatiladi: *o'rik* (apricot), *olma* (apple), *nok* (pear), *shaftoli* (peach), *yong'oq* (walnut), *behi* (quince), *anor* (pomegranate), *tut* (mulberry), *funduk* (hazelnut), *uzum* (grape), *qulupnay* (strawberry), *gilos* (cherry), *bodom* (almond), *pista* (pistachio), *anjir* (fig), *ananas* (pineapple), *mandarin* (tangerine), *olxo'ri* (plum), *sholi* (rice), *kivi* (kiwi), *xurma* (date), *jiyda* (oleaster), *xurmo* (persimmon), *do'lana* (hawthorn), *yeryong'oq* (peanut) va h.k.

O'zbek tili leksikasi tarkibidagi mevali o'simliklarni ifodalovchi so'zlarning aksariyati tojik tiliga xos bo'lib, bu tojik va o'zbek xalqlarining azal-azaldan yaqin qo'shnichilik va do'stona munosabatlar asosida tinch-totuv yashab kelganligi, urf-odatlarining bir-biriga juda o'xshashligi bois ko'p so'zlar tojik tilidan o'zbek tiliga o'tganligidan darak beradi. Yoki, aksincha, o'zbek tilidagi so'zlar tojik tiliga o'tganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, "qaroli" kabi o'zbek tiliga mansub so'zlarning tojik tilida ham mavjudligi qo'shni xalqlar tillarining bir-biriga bo'lgan ta'siri hamda bu xalqlarning bir-birining tilida so'zlashishi natijasidir. So'nggi yillarda, ayniqsa, mustaqillikka erishilgach, Tojikiston va O'zbekiston davlatlarining Sharq va G'arb davlatlari bilan munosabatlari, savdo-sotiq aloqalari juda yaxshi yo'lga qo'yildi. Buning natijasi o'laroq, ushbu mamlakatlarning ichki bozorlariga banan, kivi, mandarin, ananas, apelsin kabi mevalar va ularni ifodalovchi so'zlar kirib keldiki, ular har ikki tilda ham bir xil ishlatiladi.

Taqqoslanayotgan tillarda mevali o'simliklarni ifodalovchi so'zlar tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Shu boisdan ularni quyidagicha kichik guruhlarga bo'lish mumkin: sodda, yasama, murakkab va iborali so'zlar.

1. *Mevali o'simliklarni ifodalovchi sodda so'zlar*. Izohli va terminologik lug'atlarda, shuningdek, o'quv adabiyotlarida bitta ildizdan iborat bo'lgan so'zlar sodda so'zlar sifatida ta'riflangan. Demak, sodda so'zlar guruhiga, asosan, mevali o'simliklarni ifodalovchi olma, nok, anor, tut, uzum, olcha, bodom, pista, anjir, ananas, xurmo, mandarin, sanjidd, kivi, banan, gilos kabi juda ko'p so'zlar kiradi.

2. *Mevali o'simliklarni ifodalovchi yasama so'zlar*. Bunday so'zlarni shakllantirishda *-i*, *-ak*, *-cha* kabi qo'shimchalar muhim ahamiyat kasb etadi.

-i qo'shimchasi. Ushbu suffiks taqqoslanayotgan tillarda mevali o'simliklarni ifodalovchi so'zlar shakllanishida muhim rol o'ynaydi: *behi*, *noshpoti*, *xuboni*, *balxi* va h.k.

-ak qo'shimchasi. Ushbu suffiks turli so'z turkumlaridan o'ziga xos otlar yasaydi: *xasak*, *sebak*, *handalak* va h.k.

-cha qo'shimchasi. Bu qo'shimcha, asosan, mevalarning hajman kichikligini ifodalaydi: *giloscha*, *olmacha*, *anorcha*, *bodomcha* va h.k.

3. *Mevali o'simliklarni ifodalovchi murakkab so'zlar*. So'zlarning bir-biriga qo'shilishidan hosil qilingan yangi so'zlar murakkab so'zlar hisoblanadi. Mevali o'simliklarni ifodalovchi murakkab so'zlar tarkibidagi har ikki so'z bir-bi-

riga bog'liq bo'lmagan alohida mustaqil so'zlar bo'lib, birgalikda ishlatilganda yangi murakkab so'z yasaydi va yangi ma'no bildiradi. Mevali o'simliklarni ifodalovchi bunday murakkab so'zlar turli shakllarda yasaladi:

a) *Payovast murakkab so'zlar*. Bu so'zlar tilshunoslikda so'z shakllanishining kopulativ turi deb ataladi. Ular teng qismlardan iborat bo'lib, bir-biriga bog'liq emas. Bunday so'zlar juda kam bo'lib, biz to'plagan misollarda faqat *ot+ot* shaklida uchraydi: *anjirshaftoli*, *makkajo'xori*, *kuchukan-gur*, *tojxo'roz*, *sevnok*, *makkajavhari* va h.k.

b) *Tobe murakkab so'zlar*. Tilshunoslikda bunday so'zlar determinativ termini bilan ataladi. Tojik tilida tobe murakkab so'zlar yasashning eng mashhur shakllaridan biri fakki izofat bo'lib, unga ko'ra mevali o'simlikni ifodalovchi quyidagi so'zlar hosil bo'ladi: *sevbihi* – behi turi; *nokbehi* – nokning behi bilan payvand qilingan bir turi; *noklimon* – limonning boshqa meva bilan payvand qilingan bir turi bo'lib, shaklan nokga o'xshayli.

Mevali o'simliklar bilan bog'liq so'zlar orasida asosiy tarkibiy qismga birinchi komponent bo'ysunadigan tobe murakkab so'zlar muhim o'rin tutib, quyidagicha ifodalana-di:

Ot+ot. Bunday tobe murakkab so'zlar juda sermahsul hisoblanadi: *kulchaseb* – olmaning bir turi; *xastut* – yovvoyi tut; *anjirshaftolu* – shaftolining anjirga o'xshagan bir turi; *olubolu* – olining bir turi va h.k.

Ot+fe'l. Bunday tobe murakkab so'zlar juda kam uchraydi: *oluxo'ri* – olining bir turi; *g'urukrez* – tabiiy ofatga uchragan xom meva va h.k.

Sifat+ot. Bu leksik birliklar shakllanishida eng samarali usul bo'lib, gilos, o'rik, olma, uzum, rezavorlar, shaftoli, olxo'ri, tut kabi turli meva nomlarini ifodalab keladi: qizil shaftoli, sariq shaftoli, oq olcha, qizil gilos, qora gilos, sariq gilos, qora simorodina, sariq o'rik, qizil tut va h.k.

Son+ot. Bunday so'z shakli juda kam uchraydi: *chormag'z*, *sedona*, *hashtak* va h.k.

4. *Mevali o'simliklarni ifodalovchi iborali so'zlar*. Ushbu iboralar o'simliklar, shu jumladan, mevali daraxtlar bilan bog'liq terminlarning asosiy qatlamini qamrab oladi. Ma'lumki, tojik tilidagi iboralar ot va fe'lli birikmalarga bo'linadi. O'simlik turlarini anglatuvchi iboralarni shakllantirishda kalit so'zlar va iboralar ishtirok etadi. Iborada aniqlovchi vazifasini o'tovchi kalit so'zlar boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqa o'rnatib, biror o'simlik turini ifoda etadi, masalan: *uzum*: *beduna uzumlari // zulfi uzumlari, sohov uzumlari, husayni uzumlari, mundon uzumlari, sigir uzumlari va h.k.; tut*: *oq, qora, qizil tut, jigarrang tut, xuboniy olma // sebi xuvoni va h.k.*

Shunday qilib, turli mevali o'simliklar uchun turli terminlar ishlatilib, ularda asosiy kalit so'z o'simliklarning o'zidir. *Uzum, tut, olma // sev, o'rik* kabi so'zlar bunday terminlar yasashida juda faol bo'lsa, *anor, jo'xori, sanjit, samorug', do'lana* kabi so'zlar esa, aksincha, passiv.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Грамматикаи забони адабии ҳозираи тоҷик. Ҷ.1. – Душанбе: Ирфон, 1985. – 320 с.
2. Маҳмудов М., Ҷўраев Ф., Бердиев Б. Фарҳанги гўйишҳои ҷанубии забони тоҷикӣ / М.Маҳмудов, Ф.Ҷўраев. – Душанбе: Дониш, 2012. – 946 с.
3. Маҷидов Ҳ. Забони адабии муосири тоҷик. Луғатшиносӣ / Ҳ.Маҷидов. – Душанбе, 2007. – 320 с.
4. Саймиддинов Д. Вожасозии забони форсии миёна / Д. Саймиддинов. – Душанбе: Пайванд, 2001. – 310 с.
5. Степанова М.Д. Словообразование современного немецкого языка / М.Д.Степанова. – Москва: Наука, 1953. – 376 с.
6. Фарҳанги забони тоҷикӣ / аз асри X то ибтидои асри XX: Ҷ.1. – Москва: СЭ, 1969. – 951 с.
7. Хоркашев С.Р. Калимасозии исм бо пасвандҳо / С.Хоркашев. – Душанбе: Ирфон, 2010. – 143 с.
8. Ҳалимов С., Шукурова К. Забони адабии ҳозираи тоҷик // С.Ҳалимов, К.Шукурова. – Душанбе: УДТ, 1988. – 100 с.
9. Ҳомидов Д. Шевашиносӣ // Д.Ҳомидов. – Душанбе, 2016. – 260 с.
10. Юсупова С. Нақши калимаҳои сода дар ташаққули воҳидҳои луғавии марбут ба наботот / С.Юсупова // Паёми ДМТ. – № 4/5. –2017. – С.135–141.

Oysuluv UROLOVA,
Termiz davlat universiteti ingliz tili va
adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA UYLANISH, TURMUSHGA CHIQISH VA NIKOH BILAN BOG'LIQ MAQOLLAR SEMANTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishonchli lisoniy faktlar asosida ingliz va o'zbek tillarida uylanish, turmushga chiqish va nikoh bilan bog'liq maqollar semantikasi har tomonlama ko'rib chiqilgan, tahlilga tortilgan, tematik guruh paremiyalarining o'xshash va o'ziga xos tomonlari ochib berilgan, ushbu mavzu bilan bog'liq ingliz va o'zbek xalqlarining urf-odatları, an'analari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, o'zbek tili, maqol, paremiya, ma'no, nikoh, leksema, komponent, tematik guruh, ingliz xalqi, o'zbek xalqi.

Annotation. This article examines and analyzes the semantics of proverbs related to marriage and engagement in English and Uzbek on the basis of reliable linguistic facts, reveals the similarities and peculiarities of the thematic group paroemias, as well as discusses the customs and traditions of the English and Uzbek peoples on this subject.

Key words: English, Uzbek, proverb, paroemia, meaning, marriage, lexeme, component, thematic group, English people, Uzbek people.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрена семантика пословиц о женитьбе и браке в английском и узбекском языках, выявлены сходства и различия паремий анализируемой тематической группы на основе достоверных лингвистических фактов, приведены обычаи и традиции английского и узбекского народов, связанные с данной тематикой.

Ключевые слова: английский язык, узбекский язык, пословица, паремия, семантика, брак, лексема, компонент, тематическая группа, англичане, узбеки.

Ma'lumki, maqollar ma'no va ifoda planiga ega. Ma'no plani maqolning semantik xususiyati bo'lsa, ifoda plani uning strukturaviy tavsifidir. Keyingi yillarda tilshunslar leksik sistemani (paremiologik sistemani ham – O.U) har xil metaforalar yordamida izohlamodalar. Ularning ichida eng ko'p tarqalganlari turli ta'riflar bilan qo'llaniladigan makon va maydon termin-metaforalaridir. [4:92] Til boyligidagi maqollar umumiy ma'no asosida tematik guruhlariga birlashadi. An'anaviy "tematik guruh" termini o'tgan asrning 60-yillarida leksikologiya faniga kirib kelgan. Tematik guruh – bu ozmi-ko'pmi o'zining asosiy (bosh) semantik mazmuniga ko'ra mos keladigan, ya'ni bir semantik maydonga tegishli bo'lgan so'zlar (maqollar ham – O.U) qatori [1:118].

Biz tomonimizdan to'plangan faktik paremiologik material ingliz va o'zbek xalq maqollarini qator tematik guruhlariga ajratishga asos bo'ladi. Ular orasida "uylanish, er (turmush) ga chiqish va nikoh bilan bog'liq maqollar" tematik guruhi o'zining ma'lum xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yalpi tanlash metodini qo'llagan holda paremiologik birliklar tahlil uchun turli paremiologik lug'atlar va to'plamlardan terib olindi.

Ingliz va o'zbek tillari paremiyalar boyligida uylanish, turmushga chiqish va nikoh bilan bog'liq maqollar talaygina. Ingliz etnosida "marriage" (nikoh) cherkov tushunchalari bo'yicha muqaddas deb belgilangan: *Marriage is honorable*. Nikoh nafaqat erkak va ayolning shar'iy visoli, balki ilohiy va tabarruk rishta hamdir: *There goes more to marriage than four bare legs in a bed*.

O'zbeklar uchun uylanish, turmushga chiqish yigit va qiz hayotida ro'y beradigan muhim voqeadir. U o'ta mas'uliyatli vazifa bo'lib, o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan paremiologik birliklar ota-onalarga uni amalga oshirishda tavsiya beradi: *Yaxshi xotin olib bersang yigitga, ming kuni bir kun bo'lib*

o'tar, yomon xotin olib bersang yigitga, bir kuni ming kun bo'lib o'tar; Ipni ipga qo'sh, tengini – tengiga.

O'zbek xalq maqollarining ta'kidlashicha, uylanish – bajarilishi lozim bo'lgan jiddiy vazifa, har qanday sharoitda bu burchni amalga oshirish lozim: *Qarz ol-da, xotin ol, qarzdor qarzin olar, xotin yoningga qolar*. Ular xotin tanlashda juda e'tiborli bo'lish, yetti o'lchab, bir kesish va birgalikdagi hayotning boshidan uni tiymoq kerakligi haqida o'z tavsiyalarini beradi: *Xotinni tanlab ol, gulni – hidlab; Xotinni boshidan tut, bolani – yoshidan; Xotinning gapiga kirma, so'ng dog'da qolma; Qozon olsang, qoqib ol, xotin olsang, boqib ol; O'g'lonni yoshdan ushla, xotinni – boshdan; Ot olma piyodaning maslahati bilan, xotin olma bo'ydoqning maslahati bilan; Ot olsang, minib ol, xotin olsang, ko'rib ol; Tandir olsang, qoqib ol, xotin olsang, boqib ol.*

Barcha xalqlar, jumladan, inglizlar uchun ham uylanish – umr savdosi: *Marriage is lottery, Marriages are made in heaven; Marriages comes by destiny*. N.Z.Nasrullayevaning fikriga ko'ra, o'zbek tilida *umr savdosi* frazemasi "uylanish, turmushga chiqish" ma'nosini anglatadi. [6:20] Bu frazeologik birlik ishtirokidagi *Umr savdosi – qiyin savdo* maqoli turmushga chiqish yoki uylanish og'ir va mas'uliyatli ish ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbek etnosida o'zbeklar – bolajon, bolasevar xalq. Oila juftligi, albatta, farzandlar kutadi. O'g'il-qizning dunyoga kelishi – eng katta quvonch: *Uylangan – o'g'il-qizga quvongan*. Uylangandan keyin er yigitning yelkasiga javobgarlik tushadi: *Bugun oyog'ing to'rta bo'lsa, ertaga tuzli xalta yelkangda*. O'zbeklar baraka – turmush qurishda, deb hisoblaydi: *Bosh ikkov bo'lmay, mol ikkov bo'lmas*. Naqlar yigit va qizlarni ogohlantiradi: *Bir bosh har yerga sig'ar, ikki bosh qayerga sig'ar; Davlat uchun erga tekkandan, yerga*

teg; O'zing suyganni olguncha, o'zingni suyganni ol; Erga tegsang, cholga teg, chol qadringni bilar.

Turkum ingliz maqollarida nikohning muhimligi, uylan-gan odam bo'ydoqlikka nisbatan obro'lir-oq bo'lgan oilali gu-ruhga taalluqli bo'lishi ko'rsatib o'tiladi: *Single long, shame at length*.

O'zbeklarda o'zining sevimli yoriga uylanib, baxtli-sao-datli hayot kechirish ulug'lanadi. Quyidagi maqollar "uylan-may, turmush qurmay, yolg'iz, so'qqa bosh bo'lib yurma, to uylanmaguningcha uyingga baraka kirmaydi, biring ikki bo'lmaydi", degan ma'noda yigitlarni uylanishga targ'ib qiladi [7:34]: *Bir bosh – balo bosh, ikki bosh – mardona; Bir bosh – balo bosh, ikki bosh – qozon bosh; Boshing ikki bo'lmaguncha, moling ikki bo'lmas; Er molsiz bo'lmas, yigit yorsiz bo'lmas; Har kim beyordir – bemordir*. Bunday semantikaga ega maqollar orasida zoonim komponentli ko'chma ma'nodagi paremiyalari ham uchraydi: *Yuguruk otga yol bitmas*.

Inglizlarda nikohning ustunligi va u orqali ko'plab iqtisodiy masalalarning yechilishi ko'zda tutilgan maqollar ham uchraydi: *As your wedding ring wears, your cares will wear away; Marriage is a quick solution to many problems*.

O'zbek sotsiumida "nikoh asosida yuzaga keladigan hayot, er-xotinlik" [9:228] ma'nosidagi xalq maqollari mavjud bo'lib, ularda turmushning katta sinovlari borligi, nikoh asosida yuzaga keladigan hayot ham shirin, ham achchiq bo'lishi mumkinligi, buni inson e'tiborga olishi lozimligi uqtiladi: *Nima shirin – turmush shirin, nima achchiq – turmush achchiq*. Qaltis hazil, g'alati qiliqlar, injiqlik va bosh-qalar er-xotinning hayotini buzishi mumkin: *Achchiq o'yin shirin turmushni buzar*. Maslahatsiz tuzilgan nikoh to'ydan keyin buziladi: *Maslahatsiz turmush to'ydan keyin buzilar*. Nikohsiz hayotda, ya'ni turmushda inson o'zini baxtiyor his etmaydi: *Yomon turmush yashnatmas*. Turmushda or, no-mus tushunchalari – muqaddas tuyg'ular: *Orsiz turmushdan orli o'lim yaxshi*.

Ingliz madaniyatida erga chiqqan ayol maqomi erga teg-magan ayolnikiga nisbatan yuqoriroq. Undan tashqari, erga chiqmagan ayol jamiyatda juda qoralanadi: *Humble wed-lock is better than proud virginity*. Ushbu maqolga *A mar-riage replenishes the world, but virginity paradise* (Nikoh dunyoni to'ldiradi, bokiralik esa – jannatni) maqoli ma'no jihatidan zid keladi.

O'zbeklar fikriga ko'ra, turmush qurish oson ish emas. Oilani moddiy ta'minlay olish va sabr bilan yashash zarur-ligi naqlarda ham o'z ifodasini topgan: *Xotin olmoqqa ne kerak, kunda botmon et kerak; Xotin olmoqqa cho't kerak* (cho't hisob degani), *kunda dahsar et kerak* (dahsar – ba'zi tumanlarda o'ttiz ikki kilogrammga, ba'zi tumanlarda to'rt-dan bir botmonga teng og'irlik o'lchovi).

Ko'plab ingliz maqollarida nikohning kamchiliklari ta'kid-lanadi. U paremiyalarda "darrov so'vib qoladigan issiq suv"-ga, "qulf (kishan)"ga, "xayoliy romanning o'lgan bosh qahra-moni"ga o'xshatiladi: *Marriage is like a tub of water: after a while, it is not so hot; Marriage is a padlock, and therefore is not to be lightly entered upon; Marriage is a romance novel in which the hero dies in the first chapter*. Ba'zi ingliz maqol-larida nikoh xatolik deb hisoblanadi: *Marriage is the tomb of love; Marriage rides upon the saddle and repentance upon the crupper; Marriage is an institution for the blind*.

Yevropa xalqlarida kuzatilganidek, inglizlarda ham uylanishga bo'lgan salbiy munosabat "uylangandan ko'ra bo'ydoq bo'lib yashash yaxshiroq" mazmunidagi maqollar-

da uchraydi: *He that marries a wife is happy a month, but he that gets a fat benefice lives merrily all his life; Always to court and never to wed is the happiest life that ever was led*. Bu ma'no zoonim komponentli maqollarda ham kuzatiladi, masalan: *An ox, when he is loose, licks himself at leisure*. Uylanishga nisbatan salbiy munosabat *A single life is best* paremik iborasida ham ta'kidlangan. Ba'zi inglizlar *Honest men marry soon, wise man not at all, deya* kinoya bilan gapirishadi. Ba'zi maqollarda nikoh tushunchasiga batamom zid qarashlar mavjud: *The day you marry, it is either kill or cure; Marriage makes or mars a man*. Quyidagi, ya'ni *Marry first and love will follow* paremiyasida sevgisiz ham uylanish zarurligi ta'kidlangan.

Paremiologik birliklar tarkibida "bachelor" (bo'ydoq) leksemali maqollar ham uchraydi. Bunday maqollarda bo'ydoq ijobiy obraz sifatida keltiriladi, nikohli hayot muom-molarga to'la, xotin esa janjal, ig'vo uyasi deya ta'riflanadi: *We bachelors cry hahoo for a wife, but when we are mar-ried we make one moan; He who lives without quarreling is a bachelor*. Bo'ydoqning muhabbati bahorning toshqin su-videk, hayoti beg'ubor: *Bachelor's fare: bread and cheese and kisses*. Ayrim maqollarda esa bo'ydoq erkak noraso ("noraso – aqlan va jismonan yetuk emas yoki nuqsanli" [8:510]) shaxs sifatida qaraladi: *He that has not a wife is not yet a complete man*. Takroriy, uchinchi va hokazo nikohlar qoralanadi: *To marry once is a duty, twice is a folly, thrice is a madness; Frequent remarriage gives room for scandal*.

K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning ta'kidla-shicha, *Millstone, between the upper and the neither* ingliz maqoli o'zbekcha *Ikki xotin olibsan, bir baloga qolibsan* paremiyasiga ekvivalentdir. [12:239] Ingliz tilidagi *Three women and a goose make a market* (Uch ayol bilan bir g'oz – bozor) paremiologik birligi o'zbek tilidagi *Ikki xotinlikning qulog'i tinmas, eshak minganning – oyog'i naqliga muqo-bildir*. [12:345]

Inglizlarda ko'p xotinlik qoralanadi. Ularning fikricha, birinchi xotin – Xudodan, ikkinchisi – odamdan, uchinchi-si – shaytandan: *The first wife is matrimony, the second company, the third heresy*. O'zbek maqollarida ham ko'p xotinlik salbiy hodisa hisoblanib, insonlar uning oqibat-lari haqida asrlar davomida ogohlantirib kelinadi: *Yomon xotin olganning yovi uyida, ikki xotin olganning dovi uyida; Qo'sh xotinlikning qulog'i tinmas; Eshak minganning oyog'i tinmas, qo'sh xotinlining – qulog'i; Bir qinga ikki pichoq sig'mas, bir uyga – ikki xotin; Ikki xotin olibsan, bir baloga qolibsan; Ikki sigir olganning ayroni bor, ikki xotin olganning vayroni bor*.

Qizlarning turmushga chiqishi bilan bog'liq qator ingliz maqollari ham uchraydi. Angliyada madaniy turmush tarzi-ga muvofiq, har bir qiz, albatta, erga chiqishi kerak: *All meat to be eaten and all maids to be wed*. Paremiologik birliklarda quyidagilar ma'qullanmaydi: *If you always say "No", you'll never be married* (Doimo "yo'q" deyaversang, erga tega ol-maysan). Mana bu naqlda esa quyidagi ma'no ta'kidlanadi: *The girl that thinks no man is good enough for her is right, but she's left* (O'ziga birorta ham erkak loyiq emas deb hi-soblaydigan qiz haq, ammo u yolg'iz qolib ketaveradi).

Er va xotin turmushi davomida qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Turmushda uchraydigan sinovlarga bardosh berish uchun sabr-toqat, chidam va qanoat talab qilinadi. Shuning uchun ham *Erga tegish oson, etik tortish qiyin*. Turmushga chiqish haqidagi boshqa o'zbek maqol-lari borasida Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar qu-yidagi hayotiy fikrlarni bildiradi: "O'tmishda urning (shun-

ingdek, qaynota-qaynonaning) etigi va mahsisini tortib yechib qo'yish kelinning vazifasi edi. Ana shu birmuncha qiyin, ba'zan kishiga malol keluvchi ish bo'lgan "etik tortish" maqolda umuman uy-ro'zg'or ishlarining ko'pligi va og'irligini bildirmoq maqsadida ko'chma ma'noda qo'llanilgan. ...Mazkur maqolni ma'lum qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan kelinlar erga tegishning shirin orzusida yurgan qizlarga: "Orzu qilyapsan-u, ammo kelin bo'lganigdan keyin ko'rasan, oson emasligini" degan ma'noda ham aytdilar. "Erga berdim, emgak oldim" (emgak – mehnat, zahmat, mashaqqat); "Eshikli bo'lding – beshikli bo'lding" (eshikli – uyli-joyli) degan maqollarni ham shunga yaqin ma'nolarda qo'llaydilar, ular turmush qiyinchiliklariga chidamli, sabotli, matonatli bo'lishga da'vat etadi. Yana shunday ba'zi maqollar borki, ularda xalq erkatoiy, olifta, tannoz, erinchak qizlar va kelinlar ustidan istehzo bilan kuladi hamda bunday bo'lmaslikka chaqiradi: *Erga men tegsam-u, Tug'ishni onam tug'sa; Erga men tegsam-u, Bolamni onam boqsa; Erinchak qizni erga ber, Er olmasa yerga ber, Erinchak qizni er olmas, Er olsa ham, ko'p qolmas* (ko'p qolmas – "eri bir kuni uni qo'yib yuboradi", degan ma'noda); *Yaxshi bo'lsang kelinchak, bo'la ko'rma erinchak!*" [7:402–403].

Uylanish masalasida inglizlarning o'z rivoyati bor. Xalq tajribasi va kuzatishlari natijasida paydo bo'lgan paremiyalar qaysi vaqtda uylanish kerakligi haqidagi fikrlarni o'zida mujassam etgan. Masalan, may oyi ular uchun uylanish va to'y qilish uchun omadsiz oy: *Marry in May, rue for aye; To wed in May is to wed poverty*. Ular haftaning chorshanba kunini uylanish uchun eng omadli kun hisoblaydilar: *Monday for wealth, Tuesday for health, Wednesday the best day of all; Thursday for crosses, Friday for losses, Saturday no luck at all*. O'zbek naqli ham qachon uylanish haqida maslahat beradi: *Hayida xotin olma, yomg'irda yilqi olma*.

Inglizlarda boylik uchun va kech uylanish ma'qullanmaydi: *Marries late, He that marries ill; Marries for wealth, He that sells his liberty*. Boylik uchun emas, sevgiga ko'ra uylanganing ham o'z tashvishi bor: *Marries for love without money, Who has good nights and sorry days*. Kelin bo'lib boriladigan oila haqida to'ydan oldin ma'lumotga ega bo'lish kerakligi uqtiladi: *Be sure before you marry of a house wherein to tarry*.

Qator o'zbek paremiyalarida umr yo'lidoshini tanlashda uning qarindoshlariga e'tibor berish, avlod-ajdodini surishtirish, uylangandan keyin unga o'z hukmini o'tkazib, astoydil mehr ila himmat ko'rsatish lozimligi ta'kidlanadi: *Xotin olsang, saylab ol, jilovini boshdan ol; Xotin olsang, saylab ol, ixlosingni boylab ol; Xotin olmay, qayin ol, borur joyga tayin ol*.

Angliyada nikohlangan juftlik darrov ota-ona qaramog'idan ajralib, alohida uyda yashay boshlaydilar, hech kimga tobe, hech kim oldida biror narsaga majbur bo'lmaslikka harakat qiladilar. Sharq mamlakatlarida, jumladan, o'zbek xalqida esa umumiy hovli (uy)da bir necha avlod yashashi mumkin. B.Isoqov taniqli G'arb professori V.Levitinning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Sizlar o'z ma'naviy madaniyatingiz, turmush tarzingiz G'arb mamlakatlariga nisbatan ustun ekanligini ko'pincha bilmaysizlar. Boshqa yurtdan kelganlar buni darhol sezib, qalbdan xursand bo'lishadi. G'arb odami o'zini yakka-yolg'iz his etadi. O'zbeklardagi o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'zaro yordam ruhi, odamlararo muloqot madaniyati, mahalladagi mehr-oqibatlilik va boshqa shu kabi fazilatlar boshqa xalqlarda yo'q yoki kam uchraydigan hodisa. Agar o'zbek yakka-yolg'izlikni yoqtirganida ham tarixan tarkib topgan an'analar bunga yo'l qo'ymaydi" [3:35].

G'arblıklar jamoaviylikni tushuna olmaydi. Bunday yondashuvni inglizlar shaxsiy hayot daxlsizligining ko'z ko'rib, quloq eshitmagan buzilishi deb hisoblaydilar: *No roof can cover two families*. Ular uylanishdan oldin bo'lajak oilaga yashash joyi sotib olish uchun pul yig'ishi, shuningdek, oilani ta'minlash uchun biror ishdan ma'lum darajada daromad olishi kerak bo'ladi: *Before you marry be sure of a house wherein to tarry; First thrive then wife; It is hard to wife and, thrive in a year*.

O'zbek paremiyalarida "uyli" leksemasi mavjud bo'lib, u "xotini bor, uylangan yoki eri bor, erga tekkan" [9:269] lug'aviy ma'nosiga ega: *To'ylikning to'ycha tashvishi bor, uylikning uycha tashvishi bor*. Mazmuni: to'y qiluvchi kishining yurtga osh, ziyofat berish bo'yicha ham tashvishlari bor, uylangan yoki eri borning uycha, ya'ni xonadoncha tashvishi bor. *Uylikni topmagan to'ylikidan ajraydi* maqoli o'z xonadoni uchun qayg'urmagan kishi bor narsasidan, ya'ni to'ylikidan ham ajralishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е, стереотипное. – Москва: Сов. Энциклопедия, 1969. – 608 с. – С. 118.
2. Васильева Л. Краткость – душа остроумия. Английские пословицы, поговорки, крылатые выражения. – Москва: ЗАО Центрполиграф, 2006. – 350 с.
3. Isoqov B. Ziyolilik mas'uliyati / B.Isoqov; Mas'ul muharrir M.Quronov. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 80 bet.
4. Лукьянова Н.А. Термины и понятия лексикологии в схемах, таблицах, пояснениях и образцы анализа слов: учеб. пособие / Н.А. Лукьянова. 3-е изд., стер. – Москва: ФЛИНТА, 2020. – 136 с. – С. 92.
5. Митина И.К. Английские пословицы и поговорки и их русские аналоги. – СПб.: КАРО, 2006. – 336 с.
6. Nasrullayeva N.Z. Ingliz va o'zbek tillarida olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarining shakllanishi: filol. fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. 30 b.
7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani / Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. 480 bet.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik / Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. T.I. – Moskva: Russkij jazyk, 1981. – 631 bet.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik / Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. – T.II. Moskva: Russkij jazyk, 1981. – 715 bet.
10. O'zbek xalq maqollari (2 tomlik) / Mas'ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov. – Toshkent: Fan, 1987. T.I. 368 bet.; 1988. T.II. 373 bet.
11. O'zbek xalq maqollari / Tuzuvchilar: Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. Ma'sul muharrir: Turdimov Sh. – Toshkent: Sharq, 2003 – 512 bet.
12. Proverbs – Maqollar – **Пословицы** / Tuzuvchilar: Karamatova K.M., Karamatov H.S. – Toshkent: Mehnat, 2000. 400 bet.
13. Cambridge Advanced Learners' Dictionary, 2006. – 1129 p.
14. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. 7th edition. Chief editor: Sally Wehmeier; editors: Colin McIntosh, Joanna Turnbull; phonetics editor: Michael Ashby. – Oxford, New York, 2005.

Zayniddin NARMURATOV,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TA'LIM VA ILMGA OID MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining leksik fondida mavjud bo'lgan ta'lim va ilm konseptli maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari yoritib berilgan hamda misollar asosida tahlil qilingan.

Kait so'zlar: lingvomadaniyat, konsept, maqol, ta'lim va ilm oid leksemalar, ekvivalent, lingvomadaniy tahlil.

Annotation. This article deals with the linguacultural features of proverbs with the concept of education and science in the lexical base of the English and Uzbek languages and analyzes the process with factual examples.

Key words: linguaculture, concept, proverb, lexemes of education and science, equivalent, linguacultural analysis.

Аннотация. В статье описаны и проанализированы на примерах лексического фонда английского и узбекского языков лингвокультурные особенности и концепция образования пословиц.

Ключевые слова: лингвокультура, концепт, пословица, учебные и научные лексемы, эквивалент, лингвокультурный анализ.

Tilshunoslik sohasining qamrovi keng bo'lib, grammatika, stilistika, fonetika, morfologiya kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Uning bugungi kunda chuqur o'rganilayotgan yo'nalishlaridan yana biri lingvomadaniyatshunoslik hisoblanadi. Shu boisdan qardosh va qardosh bo'lmagan tillarga qiziqish, boshqa xalqlar madaniyati, urf-odatlarini, an'alarining tilga ta'sirini asoslash, paremiologik birliklarining kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash kabi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. [1]

Maqollarni o'rganish doirasi turlichadir: ba'zi olimlar ularni struktur-sintaktik jihatdan o'rgansalar, boshqalari ularning kelib chiqish tarixi, manbasini tadqiq qilishadi. Maqollar paremiologiya sohasida o'rganilib, nafaqat iboralar, balki boshqa paremiyalar (masal, matl, aforizm kabilar)dan farqlanib turishi bilan o'ziga xos xususiyatga ega. Boshqa tarafdin, maqollarni semantik jihatdan o'rganish, ularni tasniflash, ularning mentalitetning semantik maydoniga ta'siri kabi muammolar hali o'z yechimini to'laligicha topgani yo'q. Maqollarni qardosh bo'lmagan tillar tizimida qiyosiy-chog'ishtirma tadqiq etish, ularni madaniyat hamda mentalitet aloqadorligi asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda qariyb uch mingdan ortiq xalq, millat ro'yxatga olingan va ular turli qit'alarda istiqomat qiladi. [14] Har bir xalq, millatning an'analari, urf-odatlarini, dunyoqarashlari shu xalq, millat tilida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham har bir millat vakili o'z milliyiligini tilida, madaniyatida aks ettiruvchi manba hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lishi bilan birga madaniyat bilan uzviy bog'liq hamdir. Turli xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati, til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator masalalar lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, "Lingvomadaniyat" (lot. *lingua* – til; *cultus* – hurmat qilish, ta'zim qilish; yunon. – ilm, fan) termini V.N.Teliyava rahbarligidagi Moskva frazeolog-olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida paydo bo'lgan. [2]

Lingvomadaniyat haqida so'z borganda, ko'plab izlanuvchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. [3]

Filologiya fanlari doktori, professor O'.Yusupov o'zining "Contrastive linguistics of the English and Uzbek languages" nomli kitobida "lingvomadaniyatshunoslik – til va madaniyat o'rtasidagi munosabat, tilda madaniyatning ifodalanishini o'rganuvchi tilshunoslikning bir bo'limi", deb ta'rif bergan. [4]

O'zbek tilidagi maqollarning turli xarakter va turli hajmdagi to'plamlari Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, K.M.Karomatova va H.S.Karomatov, M.Abdusamatov, F.Xamidxonova kabi olimlar tomonidan chop etilgan bo'lib, ular o'zbek tilidagi ko'plab maqollarni o'z ichiga qamrab olgan. [5]

Qiyosiy tipologiya sohasida, asosan, rus-ingliz (Permyakov, Krisin), rus-o'zbek (P.Bakirov) tillari maqollarining qiyoslanishini kuzatish mumkin. Lekin ingliz-o'zbek maqollarning qiyoslanishi kamchilikni tashkil etadi. Xususan, ingliz tili maqollari ustida olib borilgan izlanishlar keng doirani tashkil etadi. Ayniqsa, amerikalik tilshunos olim Wolfgang Mider ularning strukturasi, semantikasi, siyosat hamda nutqdagi o'rni kabi jihatlari bo'yicha juda ko'p maqolalar chop ettirgan.

Shu o'rinda rus yozuvchisi L.N.Tolstoyning maqollar haqidagi hikmatli so'zlarini eslashni joiz topdik. "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman", deb yozadi u. [6]

Filologiya fanlari doktori P.U.Bakirov maqollarga quyidagicha ta'rif berib o'tadi: "Пословицы – это жемчужина, житейская мудрость, духовное богатство и культурное наследие народа, проверенное на многовековом опыте" [7]. Demak, maqollar milliy qadriyatlar merosi, xalq og'zaki ijodining durdonasi hisoblanadi. Ularni xalq yaratadi, ya'ni avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tadi. P.U.Bakirov ta'kidlaganidek, maqollar uzoq yillar davomida xalq tajribasidan kelib chiqqan bo'lib, ularda o'sha xalqning urf-odat, dunyoqarashi, madaniyati aks ettirilgan bo'ladi.

"Ta'lim" va "ilm" tushunchasi oila, mehnat, vatan va vatanparvarlik, tarbiya va odat, odob va odobsizlik, ochiqqo'llik va xudbinlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, tenglik va tengsizlik, mardlik va nomardlik, saxiylik va baxillik, ishonch va ishonchsizlik singari ijtimoiy mavzular qatoridan o'rin egallovchi, inson hayotida muhim ahamiyatga ega mavhum tushuncha hisoblanadi. Ushbu tahlil jarayonida mazkur tillardagi "ta'lim" va "ilm" konseptli maqollarning ekvivalentlari, ularning o'xshash, farqli tomonlari, semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlari o'rganildi.

1. "Ta'lim" konsepti ingliz tilida *education*, rus tilida *образование*, nemis tilida *Bildung* leksemalari orqali ifoda etiladi. Ko'rinib turibdiki, "ta'lim" tushunchasi turli tillarda shu tilning leksik fondidan kelib chiqqan holda ifoda etiladi. Bu esa tillarning turli oilaga mansubligi, uning dini, tili, tilning strukturasi, grammatikasi hamda bu xalqlarning dunyoqarashi, mentaliteti, madaniyatida tafovut borligidan dalolat berib turibdi. Maqollar har bir xalq madaniyatining ko'zgusi, desak xato bo'lmasa kerak, chunki maqollarda xalqning kundalik hayotda qiladigan yumushlari, odatlari, dunyoqarashi, tasavvuri o'z aksini topishi inkor etib bo'lmaydigan dalildir. Masalan:

1) Inglizcha *"The roots of education are bitter, but the fruit is sweet"* maqoli *ta'limning ildizi achchiq, ammo mevasi shirin* ma'nosini anglatadi. Bu o'zbek tilida *"Ilmning avvali achchiq, so'ngi – totli"* maqoli orqali ifodalanadi. Ingliz tilida *education* leksemasi *"ta'lim"* tushunchasidan tashqari *"ilm"* tushunchasini ham ifodalaydi. Bu maqolda *"ilm"* tushunchasi ifoda etilgan. Ma'no va mazmun jihatdan har ikki tilda ham ilm egalash qanchalik mashaqqat ekanligi hamda ilm egallandandan keyin uning foydali ekanligi ta'kidlangan.

"Education" va *"ilm"* so'zlari har ikki tilda xalq uchun bir xil vazifani bajaruvchi so'zlar bo'lishiga qaramasdan, ular o'ziga xos foydalanish funksiyalariga egadir.

Inglizcha *"Education is a gift that none can take away"* maqoli *ta'lim shunday sovg'aki, uni hech kim tortib ololmas* ma'nosini anglatadi. Bu o'zbek tilida *"Ilmni o'g'ri ham o'g'iray olmas, ilmni ajal ham olib ketolmas"* maqoliga to'g'ri keladi. Maqoldagi *education* so'zi o'zbekchaga *"ta'lim"* deb tarjima qilinadi. O'zbekcha maqolda bu so'zga ekvivalent sifatida *"ilm"* so'zi keltirilgan. Bu o'rinda xalq o'ziga xos va mos bo'lgan termindan foydalanadi. Shuning uchun ham maqolning o'zbekcha variantida *"ta'lim"* so'zi ishlatilmadi. Maqollarning ma'no

mazmuniga e'tibor bersak, ingliz maqolida *"gift"*, ya'ni *"sovg'a"* so'zidan foydalanilgan. O'zbek maqolida esa *"sovg'a"* so'zi mavjud emas, aksincha, *"o'g'ri"* hamda *"ajal"* so'zlari qo'llangan. O'zbek xalqi azal-azaldan ilmni boylikdan, davlatdan ustun qo'ygan. Ushbu ikki xalq maqolida ham ilmni o'zga shaxslar tortib ololmasligi kabi tushunchalar ifodalanib, uning inson uchun mangu ekanligi ta'kidlangan.

2) "O'qituvchi" konseptiga ingliz tilidagi *teacher* leksemasi ekvivalent bo'ladi. Inglizcha *"Like teacher, like pupil"* maqoli *o'qituvchisi qanaqa bo'lsa, o'quvchisi ham shunaqa* mazmunini bildiradi. Bu maqolga o'zbek tilidagi *"Ustozi qanday – shogirdi shunday"* maqoli to'g'ri keladi.

Bu maqolda ingliz tilida ham o'zbek tilida ham *"Teacher"*, ya'ni *"o'qituvchi"* leksemasi ishtirok etyapti, ammo har bir til o'z leksemasidan kelib chiqqan holda so'z qo'llaydi. Agar o'xshash tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, har ikkala maqol ham *ustoziga qarab o'quvchisiga baho ber* degan ma'noda ishlatilyapti.

Inglizcha *"Our first teacher is our own heart"* maqoli o'zbek tilida *bizning birinchi ustozimiz o'z yuragimiz ma'nosini* anglatadi. Bu o'zbek tilida *"Ustoz ofangdek ulug'"* maqoli bilan ifodalanadi.

Yuqorida keltirilgan ingliz xalq maqolida o'quvchilarning ta'lim olishida o'qituvchining ahamiyati, ilk ta'lim, bilim bergan ustoz o'quvchilar uchun qadri ekanligi ta'kidlangan. Ustozlar haqida gap borganda hazrat Alisher Navoiyning bu baytlaridan oshirib bir so'z aytmok mushkuldir: *"Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila"*. Ushbu baytdan ustoz o'zbek xalqi uchun qanchalik ulug' ekanligi ko'rinib turibdi. O'zbek lingvomadaniyatida *ustoz* leksemasi *ota* so'ziga tenglashtirishi ham buning yana bir yorqin dalilidir.

3) "Saboq bermoq" konseptiga ingliz tilidagi *teach* leksemasi ekvivalent bo'ladi. Inglizcha *"Don't teach your grandmother to suck eggs"* maqoli *buvingga tuxum so'rishni o'rgatma* ma'nosini beradi. Bunga o'zbek tilida *"Otanga aql o'rgatma"* maqoli mos keladi. Inglizcha maqoldagi *"teach"* so'zi o'zbekchada – *"o'rgatmoq"*. Agar maqolning mazmunini tahlil qilsak, ingliz xalq lingvomadaniyatida *"buvi"* so'zi yuqori turadi, shuning uchun ham bu maqolda *"grandmother"*, ya'ni *"buvi"* so'zi ishlatilgan. O'zbek xalqi lingvomadaniyatida esa *"ota"* so'zi yuqori turadi. Shunday bo'lsa-da, har ikkala tildagi maqollar bir xil ma'noni beradi.

4) "Dars" konseptiga ingliz tilidagi *lesson* leksemasi ekvivalent bo'ladi. Inglizcha *"One man's fault is another man's lesson"* maqoli *bir insonning xatosi boshqaning darsidir* ma'nosini berib, o'zbek tilidagi *"Odobni odob-sizdan o'rgan"* maqoliga mos keladi.

Ingliz xalq maqoli boshqa bir insonning xatosidan o'rnak olish hamda o'zgalarning xatosi boshqalarga saboq bo'lishi mazmunida kelgan bo'lsa, o'zbek xalq maqoli esa aqlni aqlsizdan, yaxshilikni yomondan o'rgan ma'nolarida ishlatilgan. Ko'rinib turibdiki, bu ikki tilda ifodalangan maqollarning mazmun-mohiyati teng

bo'lgani bilan ularda ishlatilgan ayrim so'zlar faqat shu tillarga oid leksemalardir.

5) "Ilm" konseptiga ingliz tilidagi *science* leksemasi ekvivalent bo'ladi. Inglizcha "*Art is long, life is short*" maqoli o'zbek tilida *san'at abadiy – umr qisqa* ma'nosini berib, unga o'zbek tilidagi "*Ilmsiz – bir yashar, ilmli – ming yashar*" maqoli ekvivalent bo'la oladi. Inglizcha maqoldagi "*art*" so'zi o'zbekchada – "*san'at*". "*San'at*" so'zi asli o'zbekcha emas, lekin o'zbek tilida boshqa tillardan o'zlashgan termin sifatida mavjud. Bu maqoldan biz *inson hayoti qisqa, san'at abadiy*ligini emas, balki *ilm juda ko'p, ammo ularni o'rganish uchun vaqt kamligini* anglashimiz lozim.

"*Ilmsiz – bir yashar, ilmli – ming yashar*" maqoli dono xalqimizning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan. Bizga ma'lumki, azal-azaldan o'zbek xalqi ilmga chanqoqligi bilan boshqa xalqlardan ajralib kelgan. Alisher Navoiyning quyidagi baytini bunga misol qilib keltirish mumkin:

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo'q ilmga anga ahmaq de oni,
Majlisdagi ilm bo'lsa uchmaq de oni.

(Ma'nosi: *Kim nozil ma'noli so'zlasa, olim degin, gar bazm tuzsa mutlaqo jannat degin. Kimdagi ilm bo'lmasa, ahmaq degin, gar ilm majlisi bo'lsa, bu majlisni jannat bo'g'i degin*).

Agar ikki xalqning mentalitetidan kelib chiqadigan bo'lsak, ingliz tilida *art* leksemasi o'zbek tilidagi *ilmli* leksemasiga, *life* so'zi o'zbek tilidagi *ilmsiz* leksemasi-

ga to'g'ri kelyapti. Bu esa ikki xalqning lingvomadaniyati bir-biridan qanchalik farq qilib turishidan dalolat berib turibdi.

6) "Bilim, bilmoq" konseptiga ingliz tilidagi *knowledge, know* leksemalari ekvivalent bo'ladi. Inglizcha "*The devil knows many things because he is old*" maqoli *shayton ko'p narsani biladi, chunki u qari* ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida "*Qari bilganni pari bilmas*" maqoli orqali ifodalanadi. Maqolning o'zbekcha variantida ijobiy ma'no, ijobiy xislat kuzatilyapti, ya'ni o'zbek xalqi nuroniy, uzoq yashab kelayotgan qariyalarning hayot tajribasini qadrlab, ularni hattoki pariga tenglashtiradilar ham.

7) "Kitob" konseptiga ingliz tilidagi *book* leksemasi ekvivalent bo'ladi. Inglizcha "*Choose an author as you choose a friend*" maqoli o'zbek tilida *kitob muallifini do'st tanlagandek tanla* ma'nosini beradi. Bu maqolga o'zbek tilidagi "*Kitob ko'rmagan kalla – Giyoh unmagani dala*" maqoli ekvivalent sifatida ma'no va mazmun jihatidan mos tushadi. Inglizcha maqoldagi *author* so'zining tarjimai o'zbekchada – *muallif*. Ammo inglizcha *author* so'ziga o'zbekcha *kitob* so'zi ekvivalent sifatida qo'llanilyapti. Bu o'rinda xalq o'zining leksik fondidan foydalanmagan. Shuning uchun ham maqolning o'zbekcha variantida *muallif* so'zi ishlatilmadi. Ingliz xalq maqoli "kitobni bilib tanla" mazmunida kelgan bo'lsa, o'zbek xalq maqolida esa kitob o'qish kerakligi ta'kidlangan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqorida tahlil qilingan har ikki tildagi maqollar aynan shu xalqlar mentaliteti va madaniyatidan kelib chiqqan holda shu tilning faol leksemalari orqali ifoda etilgan bo'lib, maqollarning ma'nolarini ochib berishda aynan ularning lingvomadaniy xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Tosheva. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: filol. fanlari falsafa d-ri.. diss. – Toshkent, 2017. 151 bet.
2. Sh.Usmonova lingvokulturologiya fanidan ma'ruzalar kursi. – Toshkent, 2014. 164 bet.
3. Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. – Toshkent: Akadernashr, 2012. 23–40-betlar.
4. Yusupov O.Q. Contrastive linguistics of the English and Uzbek languages (Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – Toshkent: Akadernashr, 2013. 262 bet.
5. Graduonim komponentli o'zbek xalq maqollari va ularning ingliz tilidagi muqobili. Djumabayeva J.Sh., Abdullayeva N.E., Xorijiy filologiya. – №4. – Samarqand, 2017.
6. O'zbek xalq maqollari: 2 tomlik / Mas'ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov. T.1. – Toshkent: Fan, 1987. 368-bet.
7. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). – Ташкент: Фан, 2006. – 297 с.
8. A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books, 2013. – p. 31.
9. A Dictionary of American Proverbs. Wolfgang Mieder. First published, Oxford University Press, 1992.
10. English proverbs and proverbial phrases. A historical dictionary by G.L. Apperson, I.S.O. editor of the Antiquary, 1899-1915. – p. 729.
11. Proverbs – maqollar – пословицы / Tuzuvchilar: M.Karomatova, H.S.Karomatov. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b.
12. The Oxford Concise Dictionary of Proverbs. John Simpson and Jennifer Speake. Third Edition, Oxford University Press, 1998. – p. 364.
13. The Oxford Dictionary of Proverbs. Jennifer Speake and John Simpson. Fifth Edition, Oxford University Press, 2007 – p. 625.
14. uz.wikipedia.org/wiki.
15. <http://www.special-dictionary>.

Muhayyo HAMRAYEVA

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi

EPIK ASARLARDA SOHIBQIRON OBRAZINI YARATISH TAMOYILLARI

(To'lqin Hayit romanlari asosida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nodir Normatovning "Ko'zgudagi ikkovlon" romani tahlilga tortilgan. Unda qadriyat, milliylik masalasi yoritilgan, shart-sinov motividan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: roman, detal, dangona, ko'zgu, motiv

Annotation. This article analyzes Nodir Normatov's novel "Ko'zgudagi ikkovlon". It covers the issue of values, nationality, and used from the conditional test motive.

Key words: novel, detail, dangona, mirror, motiv

Аннотация. В статье анализируется роман Нодира Норматова «Двое в зеркале», в котором затронута проблема национальных ценностей и использован мотив условного испытания.

Ключевые слова: роман, деталь, дангона, зеркало, мотив.

Amir Temur mavzusiga bag'ishlangan romanlar orasida yozuvchi To'lqin Hayit qalamiga mansub bo'lgan "Turon tunlari" asari alohida o'rin tutadi. Roman voqealarining ilk rivojidan oq yozuvchining tarixiy haqiqatni badiiylik fonida aks ettirishga harakat qilganligini kuzatamiz. To'lqin Hayit oddiy bir yigit obrazi orqali o'sha vaqtdagi tarixiy vaziyat, amirlar o'rtasidagi ixtilof, yurtning og'ir ahvolini ochib berishga erishgan. Asarni diqqat-e'tibor bilan mutoala qilgan kishi yozuvchi Sohobqiron shaxsiga bo'lgan hurmatning ifodasini o'zgacha, go'zal, badiiy tarzda aks ettirganiga guvoh bo'ladi. Asardagi voqealar rivojida Sohobqiron xarakteri bilan bog'liq tasvirlar kishini mustahkam irodali, qat'iyatli bo'lishga, har qanday kurashlarga ruhan tayyor turishga undaydi. Yozuvchi Sohobqiron ruhiy olamini kengroq yoritish maqsadida psixologik tahlil usuliga murojaat qilgan. Amir Temur va O'ljoy Turkon og'a suhbatida Sohobqiron tug'ilishi bilan bog'liq tarixiy manbalardagi voqealar qalamga olinib, tarixiy haqiqat aspektida tasvirlangan. Keyingi lavhalarni tahlilga tortadigan bo'lsak, Amir Husayn xarakteridagi ikkiyuzlamalik, tilyog'lamaalik, Sohobqiron xarakterida esa to'g'rilik, sofdillik xislatlari alohida e'tiborni tortadi.

Asarda tasvirlangan Temur bilan O'ljoy suhbatidan shu narsa anglashiladiki, temuriy malika xarakteridagi fazilatlar Sohobqiron tabiatiga mos va hamohang bo'lgan. Temuriy malika xarakterida donishmandlik, mehribonlik, oqilalik, fozillik, bilimdonlik xislatlari yuzaga chiqadi. Amir Sayfiddinning faylasufona mulohazasi asosida yozuvchi Sohobqironga bo'lgan hurmat-ehtiromini ochiq-oshkora tasvirlab, o'z maqsadiga erishgan. Voqealar talqinida Sohobqironning adolatsizlikka yo'l qo'ymasligini, begunoh kimsalarning qoni to'kilishini istamasligini ko'rsatib bera olgan. Yozuvchining "Sen ham quyoshdan o'rnak olsang bo'lmasmi? Nechun yomonlikni istab qolding, shamol? Insonning o'zi aybdor deysanmi? Uning tug'ilishi bir xil, qalbi esa besh qo'lga o'xshaydi, birining o'yi ikkinchisiga to'g'ri kelgan emas. Ularning bari xom sut emgan bandalardir. Mukammal

insonni qidirib ovora bo'lma! Mukammallikka intilgan odamniyam ular rasvo eturlar" degan so'zlari zamirida katta falsafiy ma'no yashiringan. Yozuvchining mulohazasi o'z navbatida, Sohobqiron tafakkuri orqali berilgani bilan qimmatlidir.

To'lqin Hayit To'kal bahodir qismi bilan jang epizodini tasvirlash asnosida, Mamat ichki dunyosidagi o'zgarishlar, o'y-xayollarni ochib beradi. Jang jarayonida Mamatning tadbirkorligi, puxtaligi ish beradi. Sohobqiron o'zining ancha yillik orzularini beixtiyor sodda navkari Mamatga so'zlaganiga shohid bo'lamiz. Yozuvchi tasvirga olgan faoliyat asosida Mamat xarakteridagi soddalik, ma'sumlik pand berishi uch xurosonlik navkarining qochib ketishida ko'rinadi. Yozuvchi badiiy to'qima tarkibiga hayotiy haqiqat bilan tarixiy haqiqatni singdirish jarayonida real voqelik talqiniga, so'z o'yinlariga, mushohadalarga asoslangan. Hayotiy voqealarni Sohobqiron xarakteridagi xislatlarga bog'lab aks ettiradi. Yozuvchi tarixiy voqealarni yoritish jarayonida, tarixiy shaxs siyomosini yorqin va mukammal chizib berish uchun obrazlar ichki dunyosini ochishga harakat qiladi.

Asar voqealari jarayonida Sohobqironning ulug'lar ruhini hamisha e'zozlagan pokdil insonligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Amir Temur hayotida Termiz ham muhim o'rin egallaydi. Og'ir kunlarda shahardagi sodiq kishilar unga hamroh bo'ldilar. Sohobqironning bilim doirasi nihoyatda kengligi, bilimdon va zukkoligi, tarixni sevishi, ma'naviyati yuksakligi Termiziy haqidagi o'y-xayollari bilan ochiladi. To'lqin Hayit asardagi har bir detalga ozodlik, hurlik tuyg'usini singdiradi. Amir Temurning yurt ertasini o'ylovchi odil rahbar sifatida kelajakni oldindan ko'ra oluvchilik fazilatlarini, xullas, o'z manfaatidan yurt dardini ustun qo'yishi aks ettirilgan. O'ljoy nutqi bilan yozuvchi Sohobqiron shaxsiga o'z munosabatini bildirib qo'yadi. Voqealar jarayonida O'ljoy ham aqlli, farosatli, zukko, sadoqatli ayol sifatida gavdalanadi. Ilyosxo'ja va amirlarning kaltafahmli, ma'naviy qiyofasining puchligi, nodonligini ko'rsatishga harakat qilingan. Asarda Amir Temurning O'ljoy bilan

suhatidan keyingi nuqtalar roman kulminatsiyasini tashkil qiladi.

Roman yakunidagi tasvirlar nihoyatda maromiga yetgan. Muallif Amir Temur ichki dunyosini yoritish maqsadida ruhiyat tasviriga, psixologik tahlilga e'tibor qiladi. Bu nozik va asar yechimi bilan bog'langan voqealar kishini befarq qoldirmaydi. Sohibqiron bilan Ilyosxo'ja o'rtasidagi muhobasada ikki xarakterning qay darajada turli ma'naviy qiyofaga egaligi, ularning dunyoqarashi orasidagi tafovut tasvirlanadi. Bu epizodda Sohibqiron xarakteridagi mardlik, fidoiylilik xislatlari aks ettiriladi. Asar birinchi navbatda XIV asrdagi tarixiy voqealarning asosiy mohiyatini teranroq anglashda alohida o'rin tutadi. Og'ir daqiqalarda Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi bilan bog'langan voqealar tarixiylik tamoyiliga amal qilingan holda tasvirlanadi. Badiiylilik kategoriyalarining asarda qo'llanishi jihatidan Sohibqironning shu darajaga erishishida yetakchi rol o'ynagan vafodor ayol O'ljoy timsolidagi xarakterli xususiyatlar qalamga olinganini ta'kidlamok kerak.

Tahlil qilingan masalalar yuzasidan shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. Istiqloq tufayli Amir Temur siymosiga roman janri imkoniyatlari darajasida murojaat qilgan adiblardan biri To'lqin Hayit bo'lib, yozuvchi ushbu romanda Sohibqiron obrazini davrning shiddatli voqealari fonida emas, balki go'zal tabiat manzaralari bilan uyg'un ravishda ko'rsata olgan.

2. Romanning "Turon tunlari" deb ramziy nom olishi Turonzaminga tungi osoyishtalik, farovonlik, tinchlik olib kirgan sulton Sohibqiron faoliyatiga haqqoniy ishoradir. Amir Temurning nafaqat jangu jadallari, balki o'z oilasi, yaqinlari, farzandu beklariga bo'lgan insoniy munosabatlari ham yozuvchining diqqat markazida bo'lgan. Shavkatli jahongir xarakterining oddiy insoniy munosabatlar fonida ochilishi romanning o'ziga xosligini ta'minlagan badiiy xususiyatlardan biridir.

3. To'lqin Hayit romani Amir Temur mavzusiga bag'ishlangan ayni shu davrda yaratilgan boshqa romanlardan asar uslubining yengilligi, tilining sodda va latofatligi, xalqona tasvirlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'lqin Hayit. Turon tunlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 158 bet.
2. To'lqin Hayit. Vafo malikasi – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 215 bet.
3. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. Risola. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. 310 bet.
4. Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'imi. Xalqaro konferentsiya tezislari. – Toshkent: O'zbekiston. 1996. 126 bet.

Zulfiya MAMARAJABOVA,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Surdopedagogika kafedrasida doktoranti, filologiya fanlari nomzodi, professor

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA METODLARI TAVSIFI

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish mazmuni yoritiladi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimi tamoyillari va metodlarining tavsifi bayon etiladi.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, zaif eshituvchi o'quvchilar, nutq, rivojlantirish, pedagogik tizim, komponent, metod, kitobxon.

Annotation. This article describes the content of the pedagogical system for the development of speech in pupils with hearing impairments in the process of literary education. It also describes the principles and components of the pedagogical system for the development of speech in pupils with hearing impairments in the process of literary education.

Key words: literary education, pupils with hearing impairments, speech, development, pedagogical system, component, method, reader.

Аннотация. В данной статье рассматривается содержание работы по развитию речи учащихся с нарушениями слуха. Описаны принципы и методы работы по развитию речи слабослышащих учащихся при изучении литературы.

Ключевые слова: литературное образование, слабослышащие ученики, речь, развитие, педагогическая система, компонент, метод, читатель.

Adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish muammosiga kompleks yondashuv adabiyotning polifunksional mohiyatini hisobga olish,

badiiy asarga tizimli yaxlitlik sifatida qarash va badiiy idrok jarayonini o'quvchilarning tasavvuri, fikrlashi (tafakkuri) va nutqiga ta'sir qiluvchi murakkab jaray-

on sifatida tushunishni talab etadi. Adabiy ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirish ko'rsatkichlari matnni idrok etish, mustaqil ijodiy fikr yaratish darajasi, bibliografik bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashga kitobxonlik va adabiy-ijodiy nuqtayi nazardan yondashish lozimligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkichlar adabiy ta'lim jarayonida nutqni rivojlantiruvchi jarayonning o'z fikrlarini nutqiy ifodalaydigan kitobxon shaxsini shakllantirish yo'nalishini o'zida aks ettiradi. **Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqini rivojlantirish masalasi badiiy so'zni idrok etish, asar mazmunini mustaqil ijodiy bayon etish malakasini rivojlantirish, bibliografik malaka, ko'nikmalarni egallashni takomillashtirishni ko'zda tutuvchi yaxlit jarayon sifatida ko'rib chiqiladi.**

Maxsus maktab o'quvchilarini savodga o'rgatish, so'zlashuv nutqi va eshitish idrokini rivojlantirish, bo'lajak surdopedagoglarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasining ilmiy-nazariy, metodik asoslari F.Alimxodjayeva, N.Bekmurodov, X.Gaynutdinov, D.Nazarova, F.Qodirova, U.Fayziyeva, D.Yakubjonova tomonidan tahlilga tortilgan. [7:78] Xorijiy tadqiqotlar tajribasida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ta'limi va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish masalasi H.Dirksen, L.Bauman, Carol Padden, Tom Humphries, M.Marschark, G.Lang, John Albertini tadqiqotlarida o'z aksini topgan. [6:54] Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni savodga, o'qishga o'rgatish, so'zlashuv nutqini rivojlantirish muammosi bilan bog'liqlikda ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyasi masalasi maxsus tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini ifodalaydi.

Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish korreksion-pedagogik tizimi korreksion ta'limning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xarakterini aks ettiradigan muhim umumdidaktik qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan. Maxsus ta'limda korreksion rivojlantiruvchi ta'sir korreksion o'qitish kompleksiga asoslangan va shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunda bola shaxsining shakllanishiga uni o'rab turgan muhitning ta'siri, psixik-jismoniy tayyorgarligiga katta e'tibor qaratiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishning korreksion-pedagogik tizimi korreksion o'qitish jarayonida tushunarli nutq, kommunikativ malakalarni rivojlantirish, bilish faolligi, mutolaa va adabiy ijodga qiziqishni faollashtirish zaruratini aks ettiradigan ta'limot muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish samaradorligi ta'lim jarayonida didaktik, maxsus va o'ziga xos tamoyillarni amalga oshirish bilan belgilanadi. G.D.Kirillova, A.P.Tryapitsina, Y.P.Tonkonogovalarning fikricha, tamoyillarning uchta guruhini ajratishning ahamiyati ularning mohiyati bilan belgilanadi, zero, aynan tamoyillar o'qitishning ma'lum turini tashkil etishda asos vazifasini o'taydi. [8:89] Shunga ko'ra pedagogik tizimning komponentlarini ishlab chiqish, ular o'rtasidagi aloqadorlik va munosabatlarni aniqlashda, avvalo, o'qitish jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradigan didaktik tamoyillarga asoslanildi. Didaktik tamoyillardan tashqari, zaif

eshituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini aks ettiradigan maxsus tamoyillar guruhini ajratish zarur. Bu guruhga surdopedagoglar P.M.Boskis, A.G.Zikeyev, K.V.Komarov tomonidan e'tirof etilgan kommunikatsiya, nutqiy amaliyotni maksimal darajada boyitish, o'qitishning vaziyat bilan bog'liqligi, nutq va tafakkurni o'stirishning birligi, ta'limni nutqning holati haqidagi ma'lumotlar asosida qurish tamoyillari kiritildi. [3:32] Pedagogik tizim doirasida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirishni tartibga soluvchi o'ziga xos tamoyillar tizimiga *adabiy-badiiy tamoyil*ning kiritilishi adabiy ta'lim darslarida o'quvchilarni matnni so'z san'ati hodisasi sifatida idrok qilishga undash va muallif asarlari olamiga g'arq qilish, hissiyotlar, adabiy qobiliyatlarni shakllantirish mumkin bo'lgan muhitni yaratishda namoyon bo'ladigan estetik funksiyani amalga oshirish bilan bog'liq. *Badiiy asarni yaxlit* o'rganish tamoyilida badiiy asarning har bir ahamiyatli elementi badiiy yaxlitlik tiklanishi va rivojlanishining ma'lum momenti sifatida qaraladi, adabiy o'qish darslarida adabiy matn tahliliga qarashlarni o'zgartiradi. O'qishga o'rgatishning an'anaviy metodikasi sharoitida matn tahlilida zaif eshituvchi o'quvchining e'tibori matn qurish qonuniyatlari va o'ziga xosligini anglash emas, balki ko'proq muallif matnini uzatish, undan nusxa olish va qayta yaratishga qaratiladi. M.P.Voyushina fikricha, pedagogik tizimda kitobxonlarning badiiy-ijodiy faoliyati badiiy asarni yaxlit o'rganish natijasi bo'lib, u badiiy asar va o'z fikrlarini yaratish jarayonini idrok qilish qonuniyatlari bilan belgilanadi. [6:65] M.I.Nikitina e'tiroficha, adabiy asarni o'rganishning *tizimlilik tamoyili* badiiy asar matni bilan ishlaganda o'quvchilar egallaydigan adabiyotshunoslikka oid bilimlar va adabiy-ijodiy malakalar tizimini nazarda tutadi. [1:54] Bu tamoyilni amalga oshirish o'rganilayotgan badiiy material bilan uni tushunish uchun zarur bo'lgan, yangi pedagogik tizim bosqichlarida shakllantiriladigan, kitobxonlik hamda adabiy-ijodiy malakalar o'rtasida muvofiqlikka erishishni nazarda tutadi. Adabiy o'qish darslarida o'rganishning asosiy birligi badiiy matn bo'lgani sababli adabiyotshunoslik va tilshunoslik materialini saralash boshqa bir xususiy tamoyil – *matnning adabiyotshunoslik va tilshunoslik fenomeni sifatidagi o'ziga xosliklarini hisobga olish* asosiga quriladi. Adabiy matnlar bilan tanishishning nazariy asosini quyidagi tushunchalar guruhlari tashkil qiladi: asar olami, janrlar, matn, nutq tiplari, nutq uslublari, tilning obrazli vositalari. Ajratib ko'rsatilgan tushunchalar zaif eshituvchi o'quvchilarni badiiy asar bilan tanishtirishga ko'maklashadi, faqat amaliy darajada kiritiladi va bolalar tomonidan o'zlashtiriladi. T.G.Bogdanova, L.C.Vigotskiy, A.B.Zaporojes ilmiy ishlarida *emotsionallik xususiy tamoyili* bolaning tabiati va faoliyatidan kelib chiqadi, deb ta'kidlanadi. [3:43] Intellektual emotsiyalarni faollashtirish o'quvchilarda mutolaa bo'yicha o'quv-bilish faoliyatida intellektual-emotsional ehtiyojlarni shakllantirishga ko'maklashadi. U o'quvchi shaxsining emotsional sohasi rivojlanishini rag'batlaydi, ta'lim jarayonida mustaqil ijodiy faoliyatdan estetik qoniqishning tiklanishi va rivojlanishiga olib keladi. Shunday qilib, adabiy ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirish pedagogik tizimi asosiga tamoyillarning uchta: di-

daktik, maxsus va xususiy guruhi qo'yildiki, ular tizim mohiyatini belgilaydi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish metodlarini tanlashda Y.K.Babanskiy tomonidan taklif qilingan tasnifga asoslanilgan bo'lib, unda: o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlari; o'quv-bilish faoliyatini rag'batlash va motivatsiyalash metodlari; o'quv-bilish faoliyatini va o'zini o'zi nazorat qilish metodlari ajratib ko'rsatilgan. [1:87] Zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta'minlaydigan metodlarni ishlab chiqishda muayyan metodni tanlash qator shartlar, jumladan, o'quv fanining xarakteri va mazmuni, didaktik vazifalar, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi ularning nutqiy rivojlanishiga bog'liq ekanligi haqidagi M.I.Nikitinaning ta'limoti e'tiborga olindi. [9:89] Faoliyatli komponentda o'qitish metodlari kompleksini ajratish ta'lim bosqichlarida o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro ta'sir jarayonini yangicha ta'minlash imkonini beradi. Metodning tanlanishi, pedagogik tizimning umumiy maqsadi, muayyan darsning vazifalari kabi tizimning mazmuni, o'qitishning bosqichi zaif eshituvchi o'quvchilarning ruhiy va yoshiga oid xususiyatlari bilan bog'liq. O'qishga o'rgatish mazmunini o'zgartirish o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning yangi shakllaridan foydalanishga ham olib keladi. Pedagogik tizimning faoliyatli komponenti doirasida an'anaviy frontal darslar kabi qiziqarli "dars-bayram", "dars-konsert", "dars-viktorina", "dars-sayohat", "dars-taqdimot" dars-o'yinlar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan tizimda adabiy o'qish darsi bilan darsdan tashqari faoliyat o'rtasida qat'iy chegaralashning mavjud emasligi tamoyili yangilik hisoblanadi. Fikrimizcha, adabiy o'qish darslari va sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning turli shakllaridan foydalanish pedagogik tizimni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqini rivojlantirish, kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatda yuqori darajalarga erishish imkonini beradi. Pedagogik tizimda o'qituvchi faoliyatining predmeti zaif eshituvchi o'quvchilarning nuqini rivojlantirish, kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatga ta'lim jarayoni sharoitida rahbarlik qilish hisoblanadi. Mazkur pedagogik tizim doirasida pedagogning rahbarlik faoliyati o'zi va o'quvchilar faoliyatini rejalashtirish, faoliyatni tashkil qilish, o'quvchilarning faolligi, kitobxonlik hamda nutqiy malakalar tizimini o'zlashtirishda onglikni rag'batlash, ta'lim natijalarini nazorat, tahlil qilishdan iborat. Yuqorida aytilganlarning barchasidan ko'rinadiki, faoliyatli komponent pedagogik tizim strukturasi alohida o'rin egallaydi va boshqa barcha komponentlar bilan uzviy

bog'liq. Pedagogik tizimning strukturaviy komponentlarini ishlab chiqishda navbatdagi qadam baholash-natijaviy komponentini ishlab chiqish bo'lib, uning mohiyatini biz pedagogik jarayonning samaradorligini aks ettirish va qo'yilgan maqsadga muvofiq erishilgan silljishlarni namoyon qilishda deb bilamiz. Baholash-natijaviy komponentni ishlab chiqishda nutqiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarini kompleks tashxislashga tayaniladi. Diagnostika nafaqat o'qish texnikasi, balki asarni idrok qilish darajasi, mustaqil jumla yaratish, bibliografik kompetentlik hamda nutqiy va adabiy-ijodiy faoliyatning motivatsion bahosini aniqlashni nazarda tutadi. Ishonchimiz komilki, adabiy ta'lim jarayonida bolani nutqiy rivojlantirishda o'qitish natijalari diagnostik xulosalarning aniqligi, to'liqligi va o'z vaqtida qilinganiga to'g'ridan to'g'ri va bevosita bog'liq. Zaif eshituvchi o'quvchilar ruhiy rivojlanishi o'ziga xosligi (bilish jarayonlari kechishining sekinlashuvi, sabab-oqibat aloqalarini shakllantirishdagi qiyinchiliklar, o'zlashtirilgan faoliyat usullarini uning yangi turlariga ko'chirishning qiyinligi, emotsional sohaning o'ziga xosligi)ni hisobga olib, natijalarning eshitadigan o'quvchilar bilan qiyoslaganda birmuncha kechroq ko'zga tashlanishini taxmin qildik.

Adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish tizimini yaratish uni amalga oshirish shart-sharoitlari, surdopedagog-o'qituvchi kasbiy kompetentligini takomillashtirish, maxsus maktab o'qituvchilari va ota-onalarga axborot mexanizmi ta'sirini ishlab chiqish bilan bog'liq.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish korreksion-pedagogik tizimining maqsadli, mazmunli, faoliyatli va baholash-natijaviy komponentlari bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lib, birgalikda tizimning ahamiyati, mazmuni hamda kommunikativ malakalar, kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyat shakllanishini belgilaydigan elementlarni o'z ichiga olgan tizimdir. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishning korreksion-pedagogik tizimi zaif eshituvchi o'quvchini o'qishga o'rgatish, badiiy so'z sa'nati dunyosiga olib kirish, badiiy asar matnini idrok etish, mazmunini bayon etish, nutqiy muloqot malakasi va kommunikativ madaniyatni rivojlantirish, kitob va mustaqil o'qishga qiziqtirish, bilish va emotsional faoliyatni korreksiyalash, kompensator jarayonlar tizimini shakllantirishni ko'zda tutadi hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish muammosini hal etishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабанский Ю.К. Избранные педагогические труды. – Москва: Педагогика, 1989. – 282 с.
2. Mamarajabova Z. Surdopedagogika. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2020.
3. Marschark M. Harry G.Lang, John Albertini. Educating deaf students. – Oxford University Press, 2006. – 303 p.
4. Никитина М.И. Психолого-педагогические основы совершенствования литературного образования слабослышащих школьников. Диссертация ... д-ра пед. наук. – Ленинград: ЛГПИ им. А. И.Герцена, 1983. – 333 с.
5. Никитина М.И. Чтение и развитие речи / Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К.Г.Коровина – Москва: Просвещение, 1995. – С. 18–43.
6. Никифорова О.И. Восприятие художественной литературы. – Москва: Учпедгиз, 1959. – 206 с.

Zaira RAHMATOVA,

Qarshi davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida tayanch doktoranti

O'QUV ENSIKLOPEDIYALARINING YARATILISH TARIXIDAN

Jahon o'quv leksikografiyasi tarixi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar Sharqda ham, G'arbda ham, Markaziy Osiyoda ham tilshunoslik, umuman, pedagogika tarixidagi ilk manbalar ta'limiy maqsadda yaratilgan bo'lib, lug'at shaklida yuzaga kelganligini tasdiqlamoqda. Mazkur lug'atlar o'z davrida, asosan, ibodatxonalar qoshidagi antik maktablarda ilohiy kitoblardagi ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlash, notiqlikka o'rgatishda asosiy o'quv vositasi vazifasini bajargan. Biroq to'rt ming yillik tarixga ega bo'lsa-da, yaqin tarix, aniqrog'i, XX asrga qadar ham mazkur manbalarga maktab qo'llanmalari, darslik sifatida qaralgan.

O'quv leksikografiyasi nazariyotchilari P.N.Denisov va V.V.Morkovkin o'quv lug'atini xarakterlaydigan ikki muhim belgi – cheklangan hajm va katta maqsadga urg'u beradilar. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan har qanday lug'at uchun ixchamlik, soddalik, tushunarlilik asosiy talab bo'lishi bilan birga foydalanuvchining yoshiga xos tarzda eng muhim ma'lumotlarni qisqa hajmda jamlay olish ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bu esa, leksikografik semantizatsiyalash, lingvistik ma'lumotni eng qulay shaklda taqdim etish jarayonida metodik, adresat (foydalanuvchi)ning ruhiy-fiziologik xususiyatlarini inobatga olish bilan bog'liq psixologik yondashuvni taqozo etadi.

Ko'pchilik leksikograflar, xususan, fransuz leksikograflari J.Dyubua va K.Dyubua o'quv lug'atining ko'proq tarbiyaviy ahamiyati – didaktik tomonlariga katta e'tibor qaratadi. Xususan, J.Dyubua 1970-yilda nashr etilgan "Lug'at va didaktik munozara" nomli asarida har qanday lug'at ta'limiy xarakterga ega bo'lishi, o'quv lug'ati ta'lim berish bilan birga tarbiyaviy vazifa ham bajarishi lozimligini ta'kidlaydi.¹ Per Laruss esa o'quv lug'atining ham didaktik, ham fiziologik talablarni qoniqtirishi, shuningdek, foydalanuvchining individual xususiyatlarini ham inobatga olishiga e'tibor qaratadi. Shu asosda fransuz tilida "Larussning katta lug'ati", "Larussning kichik lug'ati", keyinchalik "Roborning katta lug'ati", "Roborning kichik lug'ati", "Mini-Rober" tipli lug'at oilalari yuzaga kela boshladi. Umuman olganda, didaktik – tarbiyaviy vazifani bajarish ko'proq kichik yoshdagi foydalanuvchilar lug'ati uchun xos. Bu haqida P.N.Denisov "Jahon leksikografiyasi tarixining guvohlik berishicha, lug'at mahsulotining "oila" texnologiyasi ham samarali va tejankor. Lug'at qamrovga muvofiq ravishda kichik yoki katta lug'at tipiga mansub bo'lishi kerak. Masalan, bir lug'atdan oilaning barcha a'zosi birdek foydalana olmaydi"², deydi. Shu tariqa leksikografiya tarixida lug'atlarning maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib boshlang'ich sinflar, o'rta sinflar, yuqori sinflarga mo'ljallangan maktab lug'atlari, keng foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan kichik lug'at, katta (akademik) ilmiy lug'at kabi tiplari yuzaga kela boshladi.

Bugungi kunda "o'quv lug'ati" termini ostida ta'limning qaysi bo'g'ini uchun mo'ljallanganligiga ko'ra quyidagi uch turga mansub lug'atlar tushuniladi:

1) maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan lug'atlar (дошкольный словарь, kindergarden dictionary, kids' dictionary, children's dictionary, learning dictionary, kindle edition, booculchacha);

2) maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan lug'atlar (maktab lug'ati, школьный словарь, school dictionary, educational dictionary);

3) yuqori sinf o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tuzilgan lug'atlar (o'quv terminologik lug'atlar, o'quv ensiklopedik lug'atlar, учебный терминологический словарь, учебный энциклопедический словарь, educational terminological dictionary, educational encyclopedic dictionary).

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan lug'atlar, odatda, ensiklopedik bilim berish uchun xoslangan. Ma'lumki, tilshunoslikda ensiklopedik lug'atlar lingvistik lug'atlarga muayyan tilga mansub muhim tushuncha, voqea-hodisalar haqida ma'lumot berishi bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Ensiklopedik lug'atlar, odatda, alifbo tartibida tuzilib, ularda so'z emas, balki shu so'zdan anglashilgan tushunchalar uchun asos bo'lgan narsa, tarixiy voqea, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma'lumot beriladi, lug'at maqolasi lug'at yozilgan tilni tushunuvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan bo'ladi.³

Ensiklopedik lug'at ta'limning turli bo'g'inlarida o'quvchining kerakli ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishi, boshlang'ich bilimlarni uyda o'zlashtirishiga imkon beradi. Zero, "ensiklopediya" ("encyclopaedia") yunoncha ἐγκύκλιος – "doira", παιδεία – "ta'lim" "yaxlit doirada umumiy bilim, ma'lumot berish"⁴ ma'nolarini anglatadi. Aniqrog'i, ensiklopediya aslida leksikografiyaning o'quv jarayoniga xoslangan janri. Xususan, tilshunos Sh.Rahmatullayev ham ensiklopediya shunchaki lug'atning bir turi emasligini ta'kidlaydi: "lug'atdan ensiklopediyani farqlash kerak. Encyclopedie fr. – "mukammal bilim majmuyi". Lug'at bilan ensiklopediya faqat bir nuqtada – alifbo tartibida tuzilishiga ko'ra o'xshash. Lug'atda til qurilishiga mansub birliklarga lingvistik talqin beriladi. Ensiklopediyada esa ma'lum bir nom bilan ataluvchi voqelik haqida har tomonlama ma'lumot beriladi, shunga ko'ra ensiklopediya ot turkumi asosida tuziladi, unga yakka leksemalardan tashqari yirik nominativ birliklar – turg'un birikmalar ham vokabula sifatida kiritiladi"⁵.

O'tgan asr o'rtalariga kelib ensiklopediyalar yaxlit umumiy bilim berish g'oyasi hamda maorifchilarning ommani yoppasiga ma'rifatli qilishga qaratilgan ongni o'stirish, dunyoqarashni shakllantirishdan iborat maqsadi bilan tutashib ketadi. Bu, o'z navbatida, jahon o'quv leksikografiyasida "bolalar ensiklopediyasi" deb atalgan maxsus janrning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. XVIII asrdayoq bu janrda yaratilgan ensiklopediyalar katta yoshli foydalanuvchilarga mo'ljallangan umumiy ensiklopediyalardan tezkor ma'lumot berishga emas, balki ko'proq kognitiv vazifani bajarishga xoslangani, ta'limga yo'naltirilgani, rangli-bezakli bo'lishi bilan ajralib turishini o'zida namoyon qildi. Bu belgi "bolalar ensiklopediyasi"ni ta'lim jarayoniga yaqinlashtirdi, hatto ko'pgina mamlakatlarda o'qitish vositasi sifatida uning tan olinishiga sabab bo'ldi.

Ik bolalar ensiklopediyalarini nashr etish harakati nemis pedagog va yozuvchilari, tilshunoslari tomonidan boshlab berilgan. Xususan, 1774-yilda pedagog va taniqli ishlohotchi logann Bernxard Bazedov ilustrator D.Xodovetskiy

bilan hamkorlikda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun "Elementarwerk mit Kupfern" ("Rasmi boshlang'ich kitob")ni nashr ettiradi. 1785-yil Peterburgda uning izdoshi, pedagog va yozuvchi Xristian-Genrix Volke muallifligida nemis, rus, fransuz va lotin tillarida "Das Buch zum Lesen und Denken" ("O'qish va tafakkur qilish kitobi")ni chop etiladi. Shuningdek, nemis pedagogi, noshir va tarjimon Fridrix Yustin Bertuxning "Bilderbuch für Kinder" ("Bolalar uchun rasmi kitob") ensiklopediyasi ham o'z davrida darslik vazifasini bajargan.

Germaniya bilan parallel ravishda Rossiyada ham kichik yoshdagi foydalanuvchilarga mo'ljallangan ensiklopediyalar nashr etilgani kuzatiladi. Jumladan, taniqli rus pedagog-yozuvchilari D.V.Nexachin va I.V.Nexachinlarning 1796-yil Moskvada nashr etilgan "Новое краткое понятие о всех науках или детская настольная учебная книга" nomli kitobi ham o'z davrida bolalar ensiklopediyalarining mukammal namunasi bo'lgan.⁶

Bolalar ensiklopediyasida illustratsiya – rasmlar, ranglar, vizualizatsiyaga katta e'tibor qaratilishi darslik va bolalar adabiyotiga qaraganda foydalanuvchilar diqqatini o'ziga ko'proq jalb qilishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa dunyoning ko'pgina tillarida bolalar ensiklopediyasi darslik va lug'at oralig'idagi vosita sifatida ta'lim tizimida o'z o'rini egalladi va nashriyotlar uchun katta daromad keltiradigan sohaga aylandi.

Bugungi kunda bolalar ensiklopediyasi dunyo tillarining deyarli barchasida yaratilgan bo'lib, o'quv leksikografiyasining o'z xususiyatiga ega bo'lgan maxsus janri sifatida tanilgan. O'zbek tilida ham maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bir qator rangtasvirlil ensiklopediyalar yaratilgan.

Mazkur lug'atlar o'quv lug'atining boshqa turlaridan bir qancha o'ziga xos belgilari bilan farqlanadi:

1. Hajm – o'quv lug'atining barcha ko'rinishi uchun muhim mezon. Kompleks lug'at, super lug'at tipidagi o'quv lug'atlari hajman katta bo'lishi ham mumkin. Biroq maktabgacha yoshdagi bolalar lug'ati hajmi turli bezaklar, illustatsiyalar bilan birga 100 betdan oshmaydi. Aksariyat lug'atlar 20–40 bet atrofida bo'lib, so'zlik miqdori 10 dan 100 gacha kuzatiladi. Hajm bilan bog'liq chegara sababli mavzuchalarga bo'linib, kichik-kichik kitobchalardan iborat bo'ladi va lug'atlar turkumini yuzaga keltiradi. Masalan, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan "Mening birinchi ensiklopediyam" turkumida nashr qilish rejalashtirilgan 50 nomdagi bolalar ensiklopediyasining 10 tasi ("Texnika olamiga sayohat", "Bu juda qiziq", "Kapalaklar olami", "Koinotga sayohat", "Dunyo bo'ylab sayohat", "Baliqlar olamiga sayohat", "Hayvonot olamiga sayohat", "O'simliklar olamiga sayohat", "Tarixga sayohat", "Yosh bilimdon") 2018-yilda nashrdan chiqib, foydalanuvchilarga yetib bordi.

2. Umumiy ensiklopediya. Ensiklopedik o'quv lug'atlarining boshqa turlaridan farqli o'laroq, bu tipdagi lug'atlar korpusi materialni o'ziga xos tartibda taqdim qiladi. Vokabula (bosh so'z) bir paytda ham so'zlik, ham umumiy mavzu ostida jamlangan lug'at maqolalari uyasi nomini anglatadi. Masalan, 2010-yilda nashr etilgan "Mening eng birinchi ensiklopediyam" lug'ati "Hammasi odam haqida", "Atrofimizdagi texnika", "San'at olami" kabi qismlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'z ichiga birinchi, ikkinchi, uchinchi darajali kichik-kichik lug'at maqolalari va izohlarni olgan.

3. Lug'at maqolaning jumla tuzilishi nihoyatda oddiy bo'lib, asosan, soddaga gaplardan tashkil topadi. Murakkablashtiruvchi vositalar, kiritma, ajratilgan bo'laklar deyarli qo'llanmaydi. Leksikografik semantizatsiyalash, izoh qismni yozishda bolaning yoshi, jismoniy holati, u yashab turgan joyning iqlimi, jonli va jonsiz tabiati va boshqalar hisobga olinadi. Izohlar usluban alifbe darsliklari matnini eslatadi.⁷

4. Barcha turdagi lug'atlardan farqlanib, bu tipdagi lug'atlardan adresat kattalar yordamisiz to'liq foydalana olmaydi. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bola mustaqil o'qish qobiliyatiga to'la ega bo'lmaydi. Ular tarbiyachilar yoki ota-onalar ko'magida ko'rsatish va eshitish yo'li bilan ma'lumotlarni o'zlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atiga xos ushbu muhim xususiyatlarga lug'at mualliflari, albatta, izoh berib o'tadilar. Masalan, N.N.Malofeyevaning "Maktabgacha yoshdagi bolalar ensiklopediyasi"ga "Kitobxonga" sarlavhasi bilan berilgan kirish qismida "Uyingda, albatta, daryodagi hamma narsa haqida bilib olish mumkin bo'lgan ensiklopediyalar bor bo'lsa kerak. Biroq ular, asosan, kattalar uchun chop etilgan. Endi sening maxsus tuzilgan o'z ensiklopediyang bor. Agar o'qishni bilmasang, bu borada senga ota-onang yordam beradi. Keyinchalik, yoshing ulg'aygach, kitobni o'zing bir necha marta o'qib chiqasan, degan umiddamiz"⁸, deyiladi.

Shu sababdan bolalar ensiklopediyasining eng muhim belgilaridan biri – ularning tasvirlil va rangli bo'lishi. Hatto harf o'lchami, shakli ham bolaning ruhiy-fiziologik holatiga mos bo'lishi, qog'oz sifati, muqovalar, kitobning hajmi (A4 format) bilan bog'liq tipografik talablarga ham javob berishi lozim: "Kitobimiz o'z rasm-shakllariga ega olti qismdan iborat. Rasm-shakllar senga qiziqarli mavzuni tezda topishingga yordam beradi. ... Sahifalarning och havorangdagi qismlarida labirintlar bo'ylab "yo'l yurasan", rasmlardagi farqlarni aniqlab, mozaikalarning ortiqcha fragmentlarini topasan"⁹.

5. O'quv lug'atlarining barcha turlari, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar ensiklopediyalarining muhim belgilaridan yana biri lug'at mikroquyilishidan nafaqat so'zlik yoki lug'at maqola, balki rasm chizish, bo'yash, turli shakllarni yasash bilan bog'liq topshiriqlar, testlar, shuningdek, tez aytish, topishmoq, she'r va boshqotimalar ham joy oladi.

¹Dubois J. Dictionnaire et discours didactique. – "Languages", 1970, p.42; [Elektron resurs]. URL: <http://pageperso.lif.univ-mrs.fr/Dictionnaires-Dubois.pdf>

²Денисов П.Н. Учебная лексикография: итоги и перспективы // Проблемы учебной лексикографии. – Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1977. – С. 19.

³Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 416-bet.

⁴<https://ru.wikipedia.org/wiki/Энциклопедия>

⁵Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2006. 437-bet.

⁶Qarang: https://viewer.rusneb.ru/ru/000207_000017_RU_RGDB_BIBL_0000360529?page=5&rotate=0&theme

⁷Miraziz A'zam. Ming bir so'zni bilaman: Bolalar uchun rasmi-izohli lug'at. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. 6-bet.

⁸Malofeyeva N.N. Maktabgacha yoshdagi bolalar ensiklopediyasi. Tarj. A.Akbar. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 6-bet.

⁹O'sha manba. 6-bet.

Nozima YULDASHEVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

O'ZBEK TILIDAGI NUTQIY ETIKETLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

O'zaro aloqalar tizimi va ularning kichik tizimlari orasida nutqiy etiket bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar o'ziga xos o'rin tutadi. Nutqiy etiket muomala jarayonida muhim ijtimoiy yo'nalishlar, nutqiy bo'lgan va bo'lmagan muomala vositalarini ifodalab, o'zida zaruriylik, mutanosiblik, keraklilik kabi tushunchalarni jamlaydi. Ular jamiyatdagi madaniy-tarixiy jarayonlarni aks ettiradi. Ba'zi mamlakatlar xalqlari tillarida biror millat uchun xos bo'lgan nutqiy etiket me'yori boshqa millat xalqlari uchun me'yor bo'la olmaydi. Masalan, ba'zi mamlakatlarda hurmat belgisi sanalgan birliklar boshqa xalqlar uchun bunday bo'lmasligi, aksincha, haqorat bo'lib tuyulishi mumkin. Shu bilan birga, inson muloqoti jarayoni nutqiy verbal hamda nutqiy noverbal vositalarning birgalikdagi faoliyatidan yuzaga keladi. Bunday muloqot paralingvistika tomonidan o'rganiladi. O'zbek xalqida kommunikatsiyada ishtirok etuvchi paralingvistik vositalar (ishoralar, mimikalar, ohanglar) juda katta ahamiyatga ega. Chunki turli yoshdagilar, tanish-notanishlar, er-kak-ayollar muloqotida so'zlash ohangining o'zgarib turishi, qo'l, bosh va tananing boshqa a'zolari harakati O'rta Osiyo xalqlarida o'ziga xos o'rin tutadi. "Salomlashish", "Uzr so'rash", "Xayrlashish", "Tabriklash" singari qator vaziyatlarda qo'llanuvchi harakatlar muloqot ishtirokchilarining millati, ijtimoiy guruhini oydinlashtirib berishi mumkin. Barcha mamlakatlar xalqlari uchun nutqiy etiket formulalari o'ziga xos madaniyat belgilari deyiladi. Nutqiy etiket birliklari nutqiy muloqotning bir qator barqaror vaziyatlarida ishlatilib, ular yordamida biror millatga mansub madaniyatning o'ziga xos elementlari yuzaga chiqadi. O'zbek kishilari o'rtasidagi o'ziga xos nutqiy muloqot – nutqiy etiket milliy rasm-rusmlar natijasi deyish mumkin. Nutqiy etiket birliklari ijtimoiy muloqotda ko'p qaytarilib turishi, har bir millat xalqlari muloqotining asosini tashkil etishi, suhbat jarayonini yuzaga keltirib, uni me'yorida, qarama-qarshiliklarsiz ushlab turishi uchun xizmat qilishi bilan xarakterlanadi. Nutqiy etiket ham, nutq madaniyati ham o'zaro aloqa uchun xizmat qiluvchi, muloqotni belgilangan tarzda, me'yorida olib borishga qaratilgan tushunchalar bo'lsa-da, nutq madaniyati talaffuz, urg'u me'yorlariga rioya qilinishi, nutqning sofligi, ifodaliligi, ta'sirchanligi bilan belgilanadi.¹ Shuningdek, nutq madaniyatiga ega bo'lish uchun so'zlovchidan ma'lum iqtidor, bilim talab qilinadi. Nutqiy etiket esa nutq birliklarining barqarorligi, takrorlanuvchanligi, ma'lum andozaga tushib qolganligi bilan ajralib turadi.

Nutqiy etiket birliklarining o'ziga xos jihatlari chuqurroq yoritish bu birliklarning ahamiyatini to'laroq

ochish, ularning vazifalarini mufassal bayon etishni talab qiladi. Ushbu birliklar bajaradigan vazifalar muloqot boshlanishidan to tugallanishiga qadar ko'rinadi. Nutqiy etiketning har bir vaziyati uchun ma'lum tematik guruhlar, muqim ifodalar mavjud. Nutqiy etiket uchun ma'lum vaziyat yuzaga keladi. Har bir nutqiy etiket vaziyati uchun ma'lum millat tiliga mansub bo'lgan muqim formula va ifodalar – til birliklari xizmat qiladi. Mana shu nutqiy etiket til birliklarining tematik guruhini hosil qiladi. Masalan, "Salomlashish", "Xitob va e'tiborni tortish", "Tanishish", "Xayrlashish", "Uzr so'rash", "Tilak bildirish", "Iltimos", "Qutlash", "Minnatdorchilik bildirish" vaziyatlari tarzida.²

O'zbek nutq odatining "Salomlashish" vaziyatida, ko'pincha, quyidagi til birliklari ishlatiladi: "Assalomu alaykum!", "Salomalaykum!", "Assalom!", "Salom!", "Salomatmisiz?", "Tuzukmisiz?", "Yaxshimisiz?", "Ahvolingiz qanday?", "Bardammisiz?", "Tinchmisiz?", "Uy ichingiz yaxshimi?", "Esonmisiz, omonmisiz?", "Bormisiz?", "Keling!", "Hormang!" kabi.

Bu birliklarni birlashtiruvchi sema – salomlashish, ko'rishish bo'lib, ular ba'zan so'zlovchining yoshi, jinsi, kasbi, ijtimoiy guruhga mansubligini ko'rsatishi mumkin. Masalan, "Qalaysiz?", "Yaxshimisiz?" yoshlar tomonidan qo'llansa, "Bardammisiz?" va "Tinchmisiz?" keksalar tomonidan ishlatiladi. Uyda, ish-joyda, biror mehmondorchilikda kutib oluvchi suhbatdoshini "Keling!" so'zi bilan birga ayrim hollarda "Qadamlariga hasanot!" yoki "Xush kelibsiz!" kabilar bilan qarshilaydi. Nutqiy etiketning bu vaziyatida o'zbek xalqiga xos yana bir ajoyib xususiyat bor: ishlab turgan, ba'zan uzoq yoki og'ir mehnatni tugatgan suhbatdoshlarga qarata "Hormang!" deyiladi.

Nutqiy etiketning salomlashish vaziyatida yuqoridagi birliklarga javob tariqasida "Vaalaykum assalom!", "O'zlaridan so'rasak?", "Alhamdulillah", "Xushvaqt bo'ling!", "Shukur!", "Salomat bo'ling" ifodalari xizmat qiladi. Xayrlashish vaziyatida "Xayr!", "Salomat bo'ling!", "Ko'rishguncha!", "Xo'p!", "Bo'pti", "...ga salom ayting!", "Yaxshi boring yoki yaxshi qoling!", "Xudoga topshirdim!" kabi birliklar ishlatiladi. Eng so'nggi "Xudoga topshirdim" birikmasi faqatgina yaqin, qadrdon kishilar suhbatida, xayrlashuvlarida (ko'proq uzoq vaqt ko'rishmaslik oldidan), asosan, kattalar tomonidan ishlatiladi. Masalan, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan Mirzakarim Qutidorning so'zlari fikrimizga dalil bo'la oladi: "Xudoyga topshirdim, Kumush, agar qazom yetib ko'rolmay qolsam..."

Nutqiy etiketlarning uzr so'rash vaziyatida **uzr, afv etasiz, ma'zur tutasiz, odobsizlik bo'lsa ham...** kabi etiketlardan foydalaniladi: *To'ng'lik qilgan bo'lsam uzr, ammo siz ham qaltis gapirdingiz-da.* (O.Yoqubov)

O'zbek tilida **minnatdorchiilik bildirish** vaziyatida *"Rahmat!", "Qulluq!", "Tashakkur!", "Minnatdorman!", "Boshim osmonga yetdi"* kabi so'zlar, so'z birikmalari qo'llaniladi.

Iltilimos vaziyatida esa *"Iltilimos!", "Malol kelmasa!", "Sizga og'irlik qilmasa", "Agar bemalol bo'lsa"* kabi-lar faol qo'llanadi. Bunday vaziyatlarda ayrim hollarda keksa so'zlovchilar tomonidan *"Xudo xayringni bersin"* ifodasi ham ishlatiladi: *Xudo xayringni bersin, chaqaloq qo'rqib, shaytonlab qolmasin tag'in.* (O'Hoshimov)

Nutqiy odatning **erkalash** vaziyatida *"Barakalla!", "Yashang!", "Baraka toping!", "Aylanay!", "Otangizga rahmat!", "Tasanno!", "Ofarin!", "Umringizdan baraka toping!", "Qoyil!"* singari birliklar qo'llaniladi. Katta yoshdagilar, ko'pincha, *"Otangizga rahmat"* erkalash nutqiy

etiket birikmalari bilan yoshlarni rag'batlantiradilar.

Nutqiy etiket vaziyatlari uyda, ko'chada, ish joyida, do'konda, bozorda, shifoxonada, turli joylarda turli paytlarda yuzaga keladi. Turli rasm-rusmlar, an'analar natijasida nutqiy xulqning ijtimoiy belgilangan shakllari yuzaga kelib, ana shu belgilangan shakllar yig'indisi bilan ma'lum vaziyat guruhlari hosil bo'ladi, ya'ni nutqiy etiket vaziyatlarida ishlatilayotgan maxsus nutq birliklari ko'p hollarda javob talab qiladi. Masalan, salomlashish vaziyatidagi *"Assalomu aleykum –Vaalaykum assalom", "Xush kelibsiz – Xushvaqt bo'ling", "Hormang – Bor bo'ling", "Bardammisiz, salomatmisiz, tuzukmisiz – Shukur";* xayrlashish vaziyatidagi *"Xayr – Omon bo'ling", "Yaxshi boring – Yaxshi qoling";* qutlash vaziyatidagi *"Muborak bo'lsin – Qulluq", "Tabriklaymiz – Rahmat"* kabi maxsus turg'un birliklar o'zbek nutqi odati uchun aloqa vositalari sanalib, ularsiz nutqiy etiket me'yori buziladi. Nutqiy vaziyatni bir me'yorda ushlab turishda nutqiy etiketlar muhim ahamiyat kasb etadi.

¹Формановская Н.И. Русский речевогой этикет: лингвистический и методический аспекты. – Москва, 1982.

²O'rinboyev B., O'rinboyeva D. Hozirgi o'zbek so'zlashuv uslubi. – Toshkent, 1991. 20-bet.

Feruza DJURAYEVA,

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

Arab filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

SAJ' LAFZIY SAN'ATINING ILK O'RTA ASRLAR ARAB XITOBALARIDA QO'LLANILISHI

O'rta asrlar arab xitobalari (notiqlik san'ati namunalari) badiiyatining asosiy unsurlaridan biri – bu qofiyali nasr, ya'ni saj'dir. "Saj' oz xususiyatlari jihatidan ma'naviy lafziy san'at hisoblanadi. Chunki u muayyan asardagi mazmunni yorqin ifodalabgina qolmay, balki nozik so'z o'yinlari, ifodaning ohangdorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi" [1].

Mavzu yuzasidan o'rgangan ma'lumotlarimiz natijalari arablardagi eng qadimiy nasriy janrlar hisoblanmish maqol-matallar, hikmatlar, xitobalar saj'da bo'lgani, bu badiiy san'atning ancha qadim tarixga borib taqalishi, johiliyat davrida, ehtimolki, saj' eng yuksak rivojlanish bosqichini o'tagan haqidagi taxminlarimizning asosli ekanini tasdiqlaydi. Johiliyatda saj', asosan, kohinlar nutqida ishlatilgani uchun ularning nutqlari, xitobalari "saj' al-kuhhan" nomi bilan mashhur bo'lgan. Islomgacha bo'lgan davrda bu badiiy san'at barcha xitobalarda yuksak darajada qo'llangan. Negaki, johiliyatda shoirlar, xatiblar va kohinlarga nisbat berilgan ta'riflarning asosida ularning so'z san'atida qanchalik mahoratli ekanliklari masalasi turgan.

Ilk islom va ummaviylar hukmronligi davrida xitobalarning an'anaviy shakli, unsuri bo'lgan saj' johiliyatdagi iste'moliga nisbatan kamaydi. Biroq nisbatanlik

ham keyingi davrlar uchun ahamiyatli darajada ko'plikni anglatar edi. "Endi uni ham turli badiiy tasvir vositalari bilan ziynatlash, saj'dan foydalanish, fosilalarni ko'paytirish ishi rivojlandi" [2].

Xitobada ta'sir kuchini oshirish, ma'nolarni osonlik bilan o'zaro tushuntirish xatibga baho berish me'yoriga aylandi. Xatiblar xitobada qisqalikka, ixchamlikka intilishar, xotirada mixlanadigan, katta taassurot qoldiradigan so'z va iboralarni tanlar edilar. Chunki bunday xitoba yodda oson qolar va uzoq hududlargacha tez yoyilib ketar edi. Biroq johiliyatdagi arablarning ko'pchiligi yozuvdan bexabar bo'lganliklari sabab bu xitobalarning matnlari bizgacha roviylar tomonidan naql qilingan holda yetib kelgan. Roviylar esa xitobani har doim ham to'laligicha esda saqlab qola olmaganliklaridan ularning ko'p qismi yo'qolib ketgan. Faqatgina o'zining asl ma'nosida munosib qo'llangan va qalblarda o'rnamashgan eng tez va oson yodlanadigan iborali matnlargina birmuncha to'liqroq holda yetib kelgan. Xitoba tilini yodda oson qoldiradigan, qalblarda o'rnamashadigan, oson yodlanadigan qiladigan lafziy san'at – bu saj' edi. Qolaversa, arab tilining ulkan imkoniyatlari, juda katta sinonim va antonim so'zlar zaxirasiga egaligi, bu tilning nahviy qonuniyatlari asosida ko'plab so'zlar yasalishi,

Shahnozaxon KOMOLOVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti o'qituvchisi

O'ZBEK VA NEMIS LUG'ATSHUNOSLIK TARIXIGA BIR NAZAR

O'zbek adabiy tilining lug'atchilik tarixi uzoq o'tmishga ega. Lug'atshunoslik bo'yicha ilk yaratilgan manbalar sirasiga Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarini kiritish mumkin. Mahmud Qoshg'ariy XI asrdayoq turkiy so'zlar boyligini arab tilida izohlab, o'sha davrgacha xalqimiz yaratgan lisoniy boyligimizni bizga buyuk meros sifatida qoldirib ketgan. "Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari uch tomdan iborat bo'lib, 1915–1917-yillarda Istanbul shahrida nashr etilgan. Shu nashr asosida K.Brokkelman bu asarni 1928-yilda nemischa tarjimada nashr qildi. 1939-yilda Anqarada Besim Atalay tarjimasida turk tilida bosildi. Olim S.Mutallibov devon tarjimasida samarali ishlab, 1960–1963-yillar davomida uch tomda o'zbek tilida nashr qildi. Ushbu asar kirish va lug'at qismidan iborat. Kirish qismida muallif "Devon"ning yaratilish sabablari, o'z ish uslubi, asarning tuzilishi, turkcha so'zlarning tuzilishida qo'llaniladigan harflar, turk tilining xususiyatlari, tilda va lahjalarda bo'ladigan farqlar haqida fikr yuritadi. Asarning lug'at qismida 7500 so'z sakkiz bo'limda izohlanadi" [1]. Bundan tashqari, lug'at bo'yicha yana to'qqizta milliy manba mavjud. Bular – Mahmud Zamaxshariyning "Asos ul-balog'a" va "Muqaddimat ul-adab", "At-tuhfat uz-zakiyati fil-lug'ot it-turkiya", Toile Imon Hiraviyning "Badoe' ul-lug'ot", noma'lum muallifning "Abushqa", Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma", Muhammad Rizo Xoksoning "Muntaxab ul-lug'ot", Mirzo Mahdiyxonning "Sangloh", Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" asarlari.

Ikki tilli lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng tug'ildi. Bunga "Ruscha-sartcha" hamda "Sartcha-ruscha" lug'atlarini misol qilib keltirish mumkin. [2] Rus olimlarining XIX asr oxiri – XX boshlarida tuzgan lug'atlari, xususan, 40 ming so'zli "O'zbekcha-ruscha lug'at" (1959) va ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981) bu jihatdan alohida ahamiyatli bo'ldi. Ushbu ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 60 ming so'z izohlangan bo'lsa-da, biroq bu tilning so'z boyligini to'liq qamrab ololmagan. Chunki eski o'zbek tili boy, asrlar mobaynida saqlanib qolgan. 1960–1970-yillarda o'zbek xalqining asosiy lug'ati – ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" (Moskva, 1981) ustida jiddiy ish olib borildi. 1990-yillar o'rtalarida esa lug'atshunoslar o'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini yaratish yo'lida ish olib bordilar. Izohli lug'at lug'atlarning eng muhimidir, u adabiy tilning ulg'ayganligini va jamiyatning lisoniy yetukligini ifodalaydi. [3] Aytish mumkin, hozirgi o'zbek lug'atchiligining yetuklik davri XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. 1950-yillarda katta ruscha-o'zbekcha lug'atlarning birinchi avlodi – besh

jildli (Toshkent, 1950–1955) va bir jildli (Moskva, 1954) lug'atlar tuzilib nashr etildi. Keyinroq katta "O'zbekcha-ruscha lug'at" nashrdan chiqdi (Moskva, 1959). O'ttiz yildan so'ng ikki jildli lug'atlarning dastlabki yangi avlodlari – ikki jildli "Ruscha-o'zbekcha lug'at" (Toshkent, 1983–1984), bir jildli "O'zbekcha-ruscha lug'at" (Toshkent, 1988) nashr etildi. Lug'atchilikning bugungi zamonaviy talablari ham yil sayin o'zgarib, takomillashib boryapti. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-sonli qarori va unga ilova qilingan dastur asosida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti olimlari besh jildli izohli lug'atni tuzishga kirishdilar. O'n yildan ortiq davr mobaynida mashaqqatli mehnat qilindi va zamonaviy yangi besh jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan 2006–2008-yillar mobaynida nashr etildi. (1–2-jildlar 2006, 3-jild 2007, 4–5-jildlar 2008-yilda chiqdi).

1981-yilda tuzilgan izohli lug'atga 60 ming so'z kiritilgan bo'lsa, hozirgi besh jildli izohli lug'atda esa 80 mingdan ortiq so'z izohlangan. Besh jildli lug'at mohiyatan hozirgi o'zbek tilining so'z va turg'un so'z birikmalarini izohlaydi. Oradagi tafovut 20 ming so'z bo'lib, bu lug'atchilikda ancha katta hajm hisoblanadi. Qo'shimcha 20 ming so'zning ko'pi tilimizga keyingi yillarda kirib kelgan yoki qayta faollashgan.

O'zbek tilidagi kabi nemis tili lug'atshunosligi ham bir necha yillik tarixiy bosqichlarga ega. Nemis tili leksikografiyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning ilk shakllanish bosqichlari ikki tilli lug'atlar yaratish bilan boshlanganligini ko'rishimiz mumkin. Lug'atlarning yaratilishiga bir tildan ikkinchi tilga tarjima, tildagi mavjud so'zlarni jamlash, so'zlarning to'g'ri yozilishi va talaffuzlarini o'rganish va o'rgatish sabab bo'lgan. Ilk lug'atshunoslik borasida olib borilgan tadqiqotlar "Metaleksikografiya" yoki "Nazariy lug'atshunoslik" deb nomlangan. [4]

Yevropa leksikografiyasida yagona va mukammal milliy izohli lug'at yaratish doimo asosiy o'rinda turgan. Lekin bu sohada boshlangan ishlar natijasi ikki tilli lug'atlarning yaratilishida o'z samarasini ko'rsatdi. Nemis lug'atshunosligi lotincha so'zlarning qadimgi nemis tilida izohlanishi orqali boshlangan. Qadimgi manbaalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, nemis tili lug'atshunosligidagi ilk lotincha so'z "Abrogans" so'zi bo'lgan. U avval lotincha sinonimi bilan berilib, keyin uning nemis tilidagi izohi keltirib o'tilgan. Bu lug'at VIII asr o'rtalarida yaratilgan bo'lib, taxminlarga ko'ra uning muallifi Bixof Ardeo fon Fraising hisoblanadi. Quyida ushbu lug'atdan namuna ko'rishimiz mumkin:

lateinischer Teil

Lemma 1: Abrogans
(um Verzeihung bittend)

Synonym: humilis
(demütig)


Lemma 2: abba
(Vater - als Anrede)

althochdeutscher Teil

dheomodi
(demütig)

sanftmoati
(demütig/sanftmütig)

faterlih
(väterlich)



Shu kabi izlanishlar orqali so'zlarning izohi ustida tadqiqotlar olib borildi va buning natijasi o'laroq lotincha-nemischa lug'at yuzaga keldi. Bularga misol tariqasida 1513-yilda Kyolnda chop etilgan Yohannes Murmelliusning "Pappa Puerorum" (etwa: 'Kinderkost' bolalar uchun manbaa) maktab darsligini keltirib o'tish mumkin. U to'rt qismdan iborat bo'lgan: 1) Lotincha-nemischa lug'at; 2) Lotincha-nemischa so'zlashgich; 3) Lotin va nemis tillaridagi odob-axloqqa doir so'zlarning husnixat namunalari; 4) Har ikkala tildagi maqollar.

Ma'lum lug'atlardan yana biri XVI da yuzaga kelgan bo'lib, uning muallifi mashhur Ambrosius Salepinusdir. XVII asrga kelib nemis tilshunosligida jiddiy bahs-munozaralar boshlanib ketdi. Unda, asosan, boshqa tillarning izohlovchi tili sifatida nemis tilidan foydalanish to'g'risidagi qarashlar ilgari surila boshlandi. O'sha paytlarda lotin tili eng muhim chet til hisoblangan. Keyinchalik, fransuzlar bilan bo'lgan o'ttiz yillik urush natijasida nemis tili lug'at tarkibidan fransuz tilidan kirib kelgan so'zlar ham joy egalladi. Yohann Kristof Adelung tomonidan yaratilgan "Grammatik-tanqidiy lug'atning qo'llanilishi" (1774–1786), Yoaxim Hyeinrix Sampening besh jildlik "Nemis tili lug'ati" (1807–1811) va shu kabi ko'plab lug'atlar nemis leksikografiyasining rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. XIV asrda Yakob va Vilgelm Grimmilar tomonidan yaratilgan "Nemis tili lug'ati"ning qayta ishlanishi nemis leksikografiyasi tarixida ma'lum darajada burilish yasadi. Aka-uka Grimmilar Gottingen universitetining professorlari bo'lgan va siyosiy sabablarga ko'ra o'z mansablaridan chetlatilganlar. Daniel Sanders aka-uka Grimmilarning yaratgan lug'atiga tanqidiy ravishda o'zining "Nemis tili lug'ati"ni tuzib chiqdi. Grimmilarning lug'atidan farqli o'laroq, u nemis tilidagi leksikografik farqlarni ochib berdi. Shu kabi lug'atlar

nemis leksikografiyasi tarixida juda ko'plab ishlab chiqilgan. 1961-yilga kelib Germaniyada "Zamonaviy nemis tili lug'ati" ustida izlanishlar olib borildi. Ushbu lug'at olti jilddan iborat bo'lib, 1961–1977-yillar mobaynida Ruth Klappenbax va Wolfgang Shtainits muallifligi ostida Berlinda chop etildi. 1986-yilga kelib o'n jilddan iborat nemis tilining izohli lug'ati Duden nashriyotida chop etildi va 1999-yilda qayta ishlandi. 2003-yilda mukammal va to'liq ishlangan "Duden universal lug'ati" chop etildi. Hozirgi kunga kelib nemis tilining izohli lug'atida 200 000 dan ziyod so'z kiritilgan.

Yuqoridagi o'zbek va nemis lug'atshunosligi tarixidagi ilk izlanishlar va hozirgi kungacha davom etib kelayotgan lug'atshunoslik sohasidagi tadqiqotlarni o'rganib chiqib quyidagi xulosaga keldik:

O'zbek lug'atshunosligi tarixi

XI	Mahmud Qoshg'ariy – "Devonu lug'otit-turk"
XII	Mahmud Zamaxshariy – "Asos ul-balog'a" va "Muqaddimat ul-adab"
XIII asr	"At-tuhfat uz-zakiyatifil-lug'ot-it-turkiy"
XV asr	Tole lmon Hiraviy – "Badoe' ul-lug'ot"
XVI asr	"Abushqa"
XVII asr	Muhammad Yoqub Chingiy – "Kelurnoma"
XVIII asr	Muhammad Rizo Xoksor – "Muntaxab ul-lug'ot"
XVIII asr	Mirzo Mahdiyxon – "Sangloh"
XIX asr	Sulaymon Buxoriy – "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy"
1981-y.	"O'zbek tilining izohli lug'ati"
2006–2008-yy.	"O'zbek tilining izohli lug'ati"

Nemis lug'atshunosligi tarixi

760-y.	Bisxof Arbeo fon Fraising – "Abrogans"
800-y.	Kasselér Glossen
1400-y.	Dietrix Engelxus
1477-y.	Gerardus de Sheuren – "Nemischa-lotincha glossariy"
1541-y.	Petrus Kolinus va Yohannes Frisius – "Nemischa-lotincha lug'at"
1561-y.	Yosua Maler – "Nemischa-lotincha lug'at"
1571-y.	Simon Roz – "Nemischa-lotincha lug'at"
1691-y.	Kaspar fon Shriker – 60000 so'zli nemis adabiy tili
1774–1786-yy.	Yohann Kristof Adelung – "Nemis tilining izohli lug'ati"
1854–1960-yy.	Aka-uka Grimmilar – "Yangi nemis adabiy tili lug'ati"
1880-y.	Konrad Duden – "Imlo lug'ati"
1966-y.	Varing – "Nemis tilining izohli lug'ati"
2000–2004-yy.	Nemis tilining izohli lug'ati

IRFONiy MA'NO TALQINI TAMOYILLARI

Jahonotin Uvaysiy she'riyati mazmun, g'oya, ifoda shakli nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega nodir adabiy meros namunasidir. Uning asarlari faqat mazmun jihatdan emas, balki badiiy tasvir mutanosibligi, izchilligi, ma'no bilan shaklning uyg'unligi, timsollar olamining rang-barangligi, badiiy san'atlarning qo'llanilish tamoyillari jihatidan ham noyobdir. Shoira ijodining mazkur xususiyatlarini o'rganish asarlari mohiyatini to'liqroq anglash imkonini yaratadi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada shoira uslubining shakllanishida istiora san'atining o'rni va vazifasini belgilashga harakat qildik.

Istioraga mumtoz ilmiy risolalarda so'z san'atini ziyatlovchi bezak sifatida yuqori baho beriladi. Hatto, taniqli sharqshunos A.N. Veselovskiy istiora tarixini ijodkor uslubi tarixi bilan uyg'un tushunmoqni tavsiya etadi [1].

She'riyatda mazmunni real, aynan tasvirlagandan ko'ra, istioraviy yo'sinda, ko'chma ma'no anglatuvchi birliklar vositasida tasvirlash muhimroqdir. Bu usul, xususan, Sharq mumtoz adabiyoti asosini tashkil etgan irfoniy ma'no va tasavvuf ta'limoti g'oyalari mohiyatini anglash hamda sharhlash uchun qulaydir. Din, tasavvuf va adabiyot nazariyasi bo'yicha chuqur bilimga ega Uvaysiy shu sababli ham o'zining ko'plab irfoniy ma'no ifodalangan she'rlarida boshdan oxir istioraviy tasvir shaklidan foydalanadi.

Shayx Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a" asarida istiorani shunday ta'riflaydi: "Bu san'at ul bo'lurkim, bir lafzeni haqiqiy ma'nodin elitib, yana o'zga erda oriyat tariqi birla keltirurlar:

*Husn evi yuzung chirog'i birla ravshandur mudom,
Topti qadding sarvidin bog'i latofat ehtimom*

[2: 109].

Atulloh Husayniy esa mazkur san'atni yanada batafsilroq izohlab beradi: "Istiora majozning bir nav'idur va majoz haqiqatning ziddidir. Majoz lafzni o'z yasog'idin o'zga ma'noda yasog'u lafz o'shul ma'no orasindag'i biror aloqayu munosabatqa asoslanaroq qo'llamoq tin iborattur. Majozning turli navlari bordur. Jumladin, istiora uldurkim, yasoq va iroda etilgan ma'no orasindag'i aloqa o'xshashliqtur: sher lafziyu yuraklig' kishi ma'nosidag'idek. Istiora lug'atta oriyatqa olmoqtur. Lafzni o'z yasog'idin o'zgada ishlatmoq bir nimani oriyatqa olg'an yanglig' bo'lg'ani uchun, ani istiora deb atapturlar"[3: 219].

Uvaysiy mutasavvuf shoira. Shu bilan bog'liq ravishda, she'riyatida ko'tarinkilik, emotsionallik yyetakchilik qiladi. Ana shu pafosni o'quvchiga yetkazishda esa u ko'pincha istioradan foydalanadi. Shoiraning o'ziga xos uslubining shakllanishida istiora muhim vazifani bajaradi. Jumladan, "Munosib" radifli quyidagi g'azalni

shu nuqtai nazardan kuzatamiz: g'azal oshiqona yo'nalishda. Unda ikki yyetakchi timsol – oshiq va mahbuba kechinmalari tasvirlanadi. Ular bir-biriga parallel tarzda yoritib boriladi. Biror o'rinda yor, oshiq so'zlari qo'llanilmagan. Barcha obrazlar ham, tuyg'ular tasviri ham so'zlarni ko'chma ma'noda istifoda etish yo'li bilan ifodalanadi:

*Ey gul, jigarim qoni uzoringg'a munosib,
YUz porali ko'ksom dog'i xoringg'a munosib.*

Birinchi misrada "ey gul" murojaatida mahbubaga xos go'zallik, nafislik mujassamlashgan bo'lsa, "Jigarim qoni" birikmasida oshiqning ruhiyati, ishq yo'lidagi riyozatu iztiroblari o'z ifodasini topadi. Ikkinchi misradagi "ko'ngul dog'i va xor" munosabati oshiq ruhiy holatini yanada aniqlashtiradi. Shoira oshiq va mahbuba munosabati, mumtoz adabiyotdagi an'anaviy ishq riyozatlarini o'ziga xos, yangicha tasvir shakli vositasida ifodalamoqda. Bu esa g'azalga originallik, o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Shoira buni istiora san'ati vositasida amalga oshiradi. Asar lirik kirishlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri ko'tarinki pafosda ruhiy holat tasviri bilan boshlanadi va oxirigacha shu temp saqlanadi. Tasavvuf ta'limotida oshiqning asl maqsadi Haq vasliga erishish, vujudining matlab fayziga g'arq bo'lishidan iborat. Buning yo'li esa olis, ma'rifat egallash yo'lidir. Mazkur g'azalda ham oshiqning xuddi shunday bosqichlarni bosib o'tishi, pir ma'rifatidan fayziyob bo'lib, ko'nglini poklab Haq fayzidan bahmandlik maqomiga erishish holati tasvirlanadi:

*Tun sog'arida sharbati bedorlig' ichsang,
Mastonalig' ul chashmi xumoringg'a munosib.*

Mazkur baytda "tun sog'ari", "sharbati bedorlig'" kabi birikmalar yordamida istiora san'ati yaratilgan. Parchaning mag'zini chaqish uchun, albatta, istioralarning mohiyatini anglash lozim. "Tun sog'ari" jumlasini ko'chma ma'noda. Tunning qorong'ulik, zulmat ma'nosidan kelib chiqib, uni "bexabarlik, g'aflet, dunyo" tarzida talqin etishimiz mumkin. Undan oldingi baytda kelgan "Sarf aylama har bexabara la'li hadising" jumlasini ham fikrimizni oydinlashtiradi. Misra davomida kelayotgan "Sharbati bedorlig'" ichsang jumlasini ham ko'chma ma'noda qo'llanilib, istiora san'atini hosil qilmoqda. "Bedorlik, uyg'otuvchi sharbat", deganda biz tasavvuf ta'limoti g'oyalariidan kelib chiqib, solikni komillik sari boshlovchi, oriflik maqomiga ko'taruvchi ma'rifatdan bahramandlikni tushunishimiz mumkin. Shoira baytda, "G'afletdan ogoh bo'lib, ma'rifat sharobini ichib, mastlik va bexudlik, ya'ni o'zini unutib, o'ziga yetish maqomiga ko'tarilish"dan so'zlamog'da.

So'nggi baytlarda poklanishning uzun yo'lini bosib o'tgan solik ko'nglidagi Haq fayziga bo'lgan umidvorlik tuyg'ulari "dil manzari, tab'i uzor" kabi istioraviy tasvirlar vositasida ifodalanadi:

*Dil manzarini pok etibon muntazir o'ldum,
Bo'lg'oymu ekin tab'i uzoringg'a munosib.*

Quyidagi baytda esa shoira she'riyatidagi istioraviy birliklar muallif fikr-g'oyalari ifodalashda naqadar kenglik va teranlik bag'ishlashi namoyon bo'ladi:

*Bilsang meni jononimi – dehqoni muhabbat,
Mufliislarig'a aylag'on ehsoni – muhabbat.*

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda mahbuba – jonon bosh obrazlardan. Uni ijodkorlarimiz turli ma'no va g'oyalari ifodalashda qo'llashgan. Shundan kelib chiqib, kitobxon ham undan rang-barang tushunchalarni anglaydi. Shoiraning mazkur bayti esa, mumtoz adabiyotdagi yetakchi timsolning mohiyatini oydinlashtiradi. Kitobxonning turli toifalarini bir doira atrofida birlashtiradi. Ularni timsol mohiyati va vazifasini aniqroq anglash maqomiga ko'taradi. She'rga bunday ravshanlik baxsh etgan vosita esa "dehqoni muhabbat" birikmasi bilan yaratilgan istiora san'atidir. A.Husayniy "Istiora uldurkim, yasoq va iroda etilgan ma'no orasindagi aloqa o'xshashliqtur..." [3: 219], deb ta'riflagan edi. Ko'rinadiki, istioraning mazkur xususiyatidan kelib chiqib, shoira mahbuba timsoliga dehqon xarakterini yuklaydi. Dehqon ekib, ulg'aytiruvchi, yaratuvchi zot. U moddiy ne'matlar bunyodkori bo'lsa, mahbuba ko'ngil dehqoni, ma'naviy olam sohibkamoli, muhabbat bog'boni. U o'z "mufliis"lariga faqat ishq ehson etuvchi, ma'rifat, ezgulikni ko'ngillarda ulg'aytiruvchi, yaxshilik urug'ini ekuvchi sevimli zot. Ko'rinadiki, shoira qo'llagan birgina o'ziga xos, yangicha ifoda mumtoz adabiyotdagi eng murakkab, turli bahslarga sabab bo'luvchi, yetakchi obraz mohiyatini aniq va oson anglashimizga ko'maklashadi.

A.Husayniy istioraning she'riyatdagi o'rni yuqori baho berib, uning ifoda shaklida ham, ma'no-mohiyatda ham muhim ziynat bag'ishlashini ta'kidlaydi: "Istiora, balki umuman majoz yiroq bo'lmay tab'g'a ma'qulu maqbul bo'lsa, so'zning mukammal ziynatidur va fashat balog'at arbobi qoshinda haqiqatting yaxshiroqtur" [3: 219]. Uvaysiyning "Ishqida" radifli g'azali boshdan oxir istiora san'ati bilan muzayyan bitilgan. Har bir baytda bir nechta istiora qo'llanilgan. Eng muhimi g'azalda qofiya vazifasini bajargan xordurman, afgordurman, zordurman, bedordurman, sardordurman, noldurman, bemordurman, xummordurman, dushvordurman, zunnordurman, so'zbardordurman, bozordurman kabi so'zlarning barchasi ko'chma ma'noda – istiora ko'rinishidir:

*Oh gulruksora jonon, xordurman ishqida,
Dil aro qon, siynasi afgordurman ishqida.
Kechalar kirdim chaman, vaqti sahar zor ayladim,
Qumriyu ham andalibi zordurman ishqida.*

Ma'lumki, qofiyaning mukammalligi, ohangdorligining o'ziyoq, she'rga joziba bag'ishlaydi. O'quvchi diqqatini fikr-g'oyaning avj nuqtasiga jamlaydi. Shu bilan bir qatorda mazkur so'zda, ijodkor mahorati natijasida, yana bir san'atning ham mohirlik bilan uyg'unlashishi asarini noyob mahsulga aylantiradi. Xususan, Uvaysiyning mazkur g'azali xuddi shunday asarlardan biridir. Hatto, undagi qofiyalarning faqat o'zinigina ketma-ketlikda takrorlasak ham, shoira lirik qahramoni xarakterini namoyon etuvchi noyob bir matn hosil bo'ladi. Chunki unda istiora san'ati vazifasidan kelib chiqib, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi so'z zamiridagi ham o'z, ham ko'chma ma'noni harakatga keltiradi. Bu esa lirik qahramon ruhiyatini keng qamrovda yoritish imkonini beradi. Asardagi radifdan ("ishqida") ko'rinyaptiki, u ishq talqiniga bag'ishlangan irfoniy g'azal. Solikning butun bosib o'tgan yo'li, riyozatlari, adashishlari, sabru matonatlari barchasi batafsil tasvirlangan. Ijodkorning maqsadi ham xuddi ana shu solikning surati va siyratini chizib berishdan iborat bo'lgan. Irfoniy adabiyotning pinhoniylig xususiyatidan kelib chiqib, shoira maqsadini ro'yobga chiqarish uchun istiora san'atini yetakchi badiiy ashyo darajasiga ko'taradi. Badiiy niyat va ifoda shaklidagi bunday uyg'unlik asarning shohona uslubda yaratilishiga imkon beradi. Ijodkor ishq oshiqning noyob portretini yaratishga muyassar bo'ladi. Buni shoiraning o'zi ham maqta' baytda ta'kidlaydi:

*Gar kishi bo'lsa xaridori Uvaysiy ichra bor,
Ul matoyi ramzg'a bozordurman ishqida*

[4: 18].

Ko'rinadiki, istiora san'ati shoira uslubining shakllanishida, asarlari zamiridagi ramziy-irfoniy ma'nolarning ifodalanishida muhim vosita vazifasini bajargan.

Shoira istiora san'atini namoyon etishda, tabiat hodisalari, ashyolaridan unumli foydalanadi. Asarlari ma'no zamiridagi murakkabliklarni oydinlashtirishda, o'quvchiga oson etib borishini ta'minlashda shoiraga istiora san'ati nihoyatda qo'l keladi.

Uvaysiy she'riyatida zikr etilgani kabi muhim misollar juda ko'p. O'ylaymizki, keltirilgan bir nechtagina namunadayoq, shoira ijodida istiora san'atining o'rni va vazifasi beqiyos ekanligi borasida xulosa chiqarishimiz mumkin.

Ko'rinadiki, istiora san'ati shoira uslubining shakllanishida, asarlari zamiridagi ramziy-irfoniy ma'nolarning ifodalanishida muhim vosita vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.H. Веселовский. Историческая поэтика. - Москва: Высшая школа, 1989.
2. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul –balog'a. – Toshkent: Xazina, 1996.
3. Ataulloh Husayniy. Badoe' us-sanoe'. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.
4. Uvaysiy. Ko'ngil gulzori. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.

Odinaxon SAIDAXMEDOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

O'ZBEK TILIDA JO'NALISH KELISHIGINING O'ZLASHTIRILISH TAJRIBASIDAN

Ma'lumki, kelishik shakllari ismlarni turlaydi va ularni kesimga tobelantiradi. Kelishiklar ismni keyingi so'zga tobelantirish bilan birga uning gapdagi vazifasini ham belgilab beradi. Xususan, jo'nalish kelishigi *-ga* ismni kesimga to'ldiruvchi hamda o'rin, payt yoki maqsad holi sifatida bog'laydi.¹ Jo'nalish kelishigi semantikasiga *yo'nalganlik*, *xoslik*, *atalganlik* kabi ma'no turlari xos. Bu ma'nolar birikuvchi so'zlarning xususiyatidan kelib chiqib o'zgaradi.²

Qo'shimchalarning o'zlashtirilish tartibi, asosan, semantik murakkablik asosida aniqlanadi.³ Bolalar muayyan qo'shimchani soddadan murakkabga qarab o'zlashtirishadi. O'zbek tilida *-ga* jo'nalish kelishigi so'z turkumlaridan qaysilarining tarkibida avvalroq uchrashi hamda qaysi semantik ma'noni ifodalab kelishini aniqlash til o'zlashtirish sohasida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Buni aniqlash orqali o'zbek tilini chet til sifatida o'qitishda jo'nalish kelishigi semantikasi hamda grammatikasining qaysi nuqtadan boshlanishi kerakligi belgilanadi.

Tajriba. Jo'nalish kelishigining semantikasi hamda grammatikasining o'zlashtirish bosqichlarini aniqlash maqsadida 4 nafar respondent 6 oy davomida kuzatildi. Respondentlarning 2 nafari qiz, 2 nafari o'g'il bola bo'lib, ular turli viloyatda, xususan, Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Namangan, Navoiy viloyatlarida yashaydi. Ularning eng kichigi 1 yosh-u 7 oylik, eng kattasi 3 yosh-u 8 oylik.

Tajriba-kuzatuv ishlari tadqiqotchi tomonidan respondentlarga hech qanday stimulsi, faqat jarayondagi bolalar nutqida uchragan so'zlarni qayd etib borish orqali amalga oshirildi. Qayd etish jarayoni bolalarning onasi hamda bog'cha tarbiyachisi tomonidan amalga oshirildi.

Tajriba materiali bolalarda 6 oy davomida ularning nutqida uchragan tarkibida jo'nalish kelishigi mavjud so'zlar hamda birikmalardan saralab olindi. Quyida respondentlarning nutqida uchragan so'z va birikmalar kuzatish boshlangan oy bo'yicha beriladi:

Munisa (1,7 yosh, Toshkent shahri):

Kuzatuvning 3-oyida jo'nalish kelishigi *maga* (menga) olmoshi tarkibida uchradi. Kuzatuvning 6-oyida ham faqatgina shu olmoshning tarkibida uchradi, boshqa tarkibda *-ga* bo'lgan yangi so'z nutqida uchramadi.

Miromon (2,6 yosh, Namangan viloyati):

Dastlabki 4 oyda jo'nalish kelishigi qatnashgan yoki

tushirib qoldirilgan hech qanday so'z uning nutqida uchramadi.

5-oyda: menga, menga bey (menga ber), qaqa (qayerga);

6-oyda: uy tettik (uyga ketdik) aka be (akamga ber).⁴

Kuzatuvning beshinchi oyida *menga bey* birikmasi birgalikda qo'llanganini kuzatdik. Respondent nutqida unga kerak buyum ko'rsatilganida, asosan, yegulik narsalarni ko'rganda, *menga* so'zi chastotasi ortdi, *menga bey* birikmasi ham uchradi. Bola nutqida jo'nalish kelishigi bir marotaba so'roq olmoshi tarkibida ishlatildi, vaziyatda to'g'ri foydalandi, lekin bu bilan ushbu so'roq olmoshi tarkibida bu qo'shimchani o'zlashish jarayoni boshlandi, deb ayta olmaymiz. Nutq turli chastotalarga ega tovush to'lqinlari bo'lib, mazkur to'lqinlar insonning quloq pardasini turli chastotalarda tebratadi. Bu tebranishlar eshitish tizimi orqali bosh miyaga uzatiladi. Til o'zlashtirish jarayonida bola eshitgan tovushlarini qayta ishlab, talaffuzga chiqaradi.⁵ Boladagi bu so'z atrofdagilari tomonidan aytilgan sheva so'zning qayta talaffuziga bo'lib, bola so'z tarkibidagi qo'shimchani farqlamagan.

Keyingi oyda *uy tettik*, *aka be* fe'l birikmalarida ham ot tarkibida jo'nalish kelishigi talaffuzi kuzatilmadi.

Muhammadali (3,2 yosh, Navoiy viloyati):

1-oyda: Aliga, Aliga bomi (bormi)? Aliga keyak (kerak), ayamga;

Keyingi oylarda: isha (ishga), boza (bozorga), pola (polga), uya (uyga), ko'shaya (ko'chaga), tog'ga.

Boshqa retsiyentlardan farqli ravishda *menga* olmoshi o'rnida o'zining ismi bilan aytish holati kuzatildi. Muhammadali oilada yolg'iz farzand, oilasidagilar biror narsani unga berishganda Muhammadaliga nisbatan *Aliga* so'zini ishlatishadi. Shu sababli bolaning nutqida *menga* olmoshi emas, *Aliga* atoqli oti uchraydi. Kuzatuvning keyingi oylarida ham shu holat davom etdi, boshqa shaxslar o'rnida ham otlardan foydalanildi: *ayamga*, *dadamga* kabi. Keyinroq jo'nalish kelishigining yo'nalish ma'nosida fonetik o'zgarishdagi holatda bir necha otlar bilan qo'llanilishi faollashdi. Biroq respondentning nutqida joy otlari o'rnida ko'rsatish olmoshlari ni ishlatish holatlari kuzatilmadi.

Farzona (3,8 yosh, Toshkent viloyati):

1-oyda: amma bitka (bu yerga), kdizga kirmadimku (ko'zingizga kirgizmadimku), e maga (ey manga), man-ga kelak (menga kerak), minga dazing (bunga yozing),

hazi bitga chib kegin (hozir bu yerga chiqib kelgin), azimga tikmiman (og'zimga tiqmayman), manga beyilay (menga beringlar), manga yokmi (menga yo'qmi), sizgayammi (sizga hammi);

2-oyda: manga kara (menga qara), tepaga chiman (tepaga chiqaman), ammamga, ana pu siga beladi (ana pul sizga beradi), maga beladimi (menga beradimi), bita teti (bu yerga ketdi), sigamas buga (sizgamas buga), biska atin (bu yerga o'tiring), u magami (u mengami);

3-oyda: ana kimi utka titi (ana ko'rdingmi, u yerga ketdi), isga (ishga), mana siga bamata (mana sizga bo'lmasa), maga sepin (menga seping), akat mangami (ovqat mengami), maga yokmi (menga yo'qmi), to'tta chupsga (to'rtta chupa-chupsga);

4-oyda: biz nanga bamiz (biz nonga boramiz), Dapizga boraman (Dilafuzga boraman), amma hazi bitga tokmiman (amma hozir bu yerga to'kmayman), ammamgayammas manga (ammamga emas, menga), manga u yaqmapti (menga bu yoqmadi), botka atilatis (bu yerga o'tirasiz);

5-oyda: apamga boyaman (onamga boraman), utgayam, butgayam (u yerga ham, bu yerga ham), ayi, sizga bamas (oyi, sizga yo'q), ayimga kola quyberin (oyimga kola quyib bering), ki, Asal, butka o'til (kel, Asal, mana bu yerga o'tir), basinaga o'tiraman (mashinaga o'tiraman);

6-oyda: ayaqimga qalan (oyog'imga qarang), maga datadi (menga yotib oldi), Asal, tettik badalga (Asal, ketdik bozorga), buvim tutka ketti (buvim tortga ketdi), qatka tamga ketatan (qayerga tomga ketasan), man utka tulaman (men uchga to'laman), Mimi xalamga balaman (Madina xolamga boraman), tusketamanku suvga (tushib ketamanku suvga).

Bu respondentda *-ga* kelishigi, asosan, ko'rsatish, kishilik olmoshlari hamda ot tarkibida ishlatildi. 6-oyga kelib son tarkibida ham jo'nalish kelishigining qo'llana boshlangani kuzatildi.

Muhokama. Kuzatuv natijasiga ko'ra bolalar nutqida dastlab jo'nalish kelishigi kishilik olmoshlari bilan *atalganlik* ma'nosida uchraydi. Bola stimulyatsiya aloqadorlikda gapirishni o'rganadi⁶, ya'ni bola bilan muvoqotda boladan biror buyumni so'rashda *menga ber/bering* ifodasining ko'p ishlatilishi bilan bog'liq bo'lsa, keyinroq bolada biror notanish yoki yangi narsa ko'rsa-

tilganida ehtiyojni bildirishi sababidan nutqida shu so'z paydo bo'ladi. 1- va 2-retsipiyentda *-ga* affiksi o'zlashishi boshlanishining ilk darajasida bo'lsa, keyingi retsipiyentlarda bu qo'shimchani faol o'zlashish darajasida ekani ma'lum bo'ladi. Ya'ni jo'nalish kelishigining *atalganlik* yondosh ma'nosi uning denotat ma'nosidan avvalroq o'zlashishi kuzatildi.

Jo'nalish kelishigining ko'rsatish olmoshlari hamda ot so'z turkumi bilan qo'llanish holatining teng boshlanganini kuzatish mumkin. Buni uning denotat ma'nosi orqali izohlash maqsadga muvofiq, chunki ko'rsatish olmoshlari va ot tarkibida kelganda ham u *yo'nalish* ma'nosini ifodalab keladi: *ana kimi utka titi (ana ko'rdingmi, u yerga ketdi), isga (ishga)* kabi.

Bola nutqining rivoji bevosita kattalar nutqiga bog'liq. Kattalar nutqidagi so'z qo'llash bilan bog'liq xatolar bolalar nutqida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Farzonaning nutqida *biz nanga bamiz (biz nonga boramiz), buvim tutka ketti (buvim tortga ketdi), tusketamanku suvga (tushib ketamanku suvga)* misollarida joy otlari o'rnida narsa otlariga jo'nalish kelishigi qo'shilgan. Non yoki tort kabi narsa nomlari do'kon/novvoyxona so'zlari o'rnida; suv so'zi hovuz/ariq kabi so'zlar o'rnida qo'llangan va jo'nalish kelishigi narsa otlari bilan ishlatilgan.

Jo'nalish kelishigining yondosh ma'nolari ko'p. Bu ma'nolar birikuvchi so'zlarning xususiyatidan kelib chiqib o'zgarib ketaveradi. Agar *x* affiksning chastotasi baland bo'lsa, denotat ma'nodan tashqari yondosh ma'nosini/ma'nolari bo'lgan holatda *x* affiks ham bola tomonidan tez o'zlashtiriladi, faqat yondosh ma'nolar keyinroq o'zlashtirib boriladi.⁷ Xususan, ot+fe'lli birikmalarda qo'shimchani tashlab ketilish holatlari kuzatildi.

Xullas, olti oylik kuzatuv-tajribadan olingan natijaga ko'ra *-ga* jo'nalish kelishigi dastlab olmoshlar tarkibida qo'shimchani yondosh ma'nosi – *atalganlik* ma'nosi bilan o'zlashtiriladi. Bu esa o'zbek tilini chet til sifatida o'qitishda *-ga* qo'shimchasini aynan olmoshlar tarkibida uning denotat ma'nosi bilan emas, balki yondosh ma'nosi orqali o'qitishni boshlash kerakligini bildiradi. Keyinroq qo'shimchani denotat ma'nosining o'zlashtirilishi ko'rsatish olmoshlari hamda otlar tarkibida deyarli bir vaqtda boshlanishi ma'lum bo'ldi. Demak, keyingi bosqichlarda *-ga* kelishigini ko'rsatish olmoshlari hamda otlar tarkibida o'qitish maqsadga muvofiq.

¹Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. 136-bet.

²Sayfullayeva R. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya // Monografiya. – Toshkent, 2008.

³Brown, R. (1973) A first language: The early stages. Cambridge, MA: Harvard University Press. – p. 54.

⁴Bolalar nutqida avvalgi oylarda shu qo'shimcha tarkibli so'zlar ham aytilgan, maqolada keyingi oylarda bolalar tomonidan yangi qo'shilgan so'zlarga qayd etildi.

⁵Azimova I.A. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. <https://shokiryuldash.blogpost.com/2020/04/ona-tili-talimida-lisoniy-malakani.html>

⁶Gass, Susan M. and Selinker, L. (2008). Second Language Acquisition. Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016.

⁷Слобин Д., Грин Дж. Психоллингвистика. – Москва: Прогресс, 1976. – С. 350.

Farrux SATTAROV,
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

AMERIKA BOLALAR ADABIYOTINING RIVOJIDA MARK TVEN IJODINING O'RNI

Mark Tven (1835-yil 30-noyabr – 1910-yil 21-aprel) XIX asr oxiri Amerika realistik adabiyotining mashhur namoyandaligidan biridir. Adabiy taxallusi Mark Tven bo'lgan Semuel Lengxorn Klemens o'z zamonasi jamiyati illatlarini fosh etgan yirik satirik va realist yozuvchidir.

Semuel Klemens Missuri shtatidagi kichik bir aholi punkti – Floridada Jon Marshal va Jeyn Lempton Klemens oilasida oltinchi farzand bo'lib dunyoga kelgan. Semuelning bolalik vaqtida otasi vafot etgach, u muntazam bilim ololmadi va tirikchilik o'tkazish uchun ishlashga majbur bo'ldi. Klemens bosmaxonaga xizmatga kirib, harf teruvchi hunarini egalladi va ko'p vaqt ish axtarib, shaharma-shahar kezib yuradi. U yigirma yoshga kirganida lotsmanlik kasbini egallab, Missisipi daryosida kemada ishlaydi. Mark Tven taxallusini olishi ham shu davrga to'g'ri keladi (*twain* so'zi ingliz tilida ikki dengiz o'lchovi degan ma'noni bildirar edi.)

Shimol bilan Janub o'rtasidagi fuqarolar urushi (1861–1865) natijasida Missisipi daryosida kema qatnovi to'xtab qolganidan so'ng, Mark Tven uzoq G'arb – Nevadaga borib, oltin izlovchilar orasida yuradi. Lekin uning bu intilishlari natija bermagach, jurnalistika bilan shug'ullanadi. Mark Tven bosmaxonada ishlagan kezlaridayoq maqola, ocherk, felyetonlar yozar edi. Bu sohada ma'lum tajribaga ega bo'lganligi tufayli u 1860-yillari o'rtasida yumoristik hikoyalar ustasi sifatida taniladi.

Yosh yozuvchining xalq hayotini yaqindan bilishi unda demokratik dunyoqarashning shakllanishiga va tez orada Amerika jamiyati illatlarini fosh etuvchi gumanist yozuvchi sifatida tanilishiga yordam beradi.

Mark Tven hikoya va ocherklarida xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan yumor, dag'al hazil, kinoya, mubolag'adan ustalik bilan foydalanadi, yengil yumor orqali oddiy kishilardagi kamchiliklarni bartaraf etishga intiladi. Shu bilan birga, u muttahaam, yulg'ich, o'g'ri va munofiqlarni qattiq qoralaydi va odamlarni ular tuzog'iga ilinmaslikka undaydi. Mark Tvenning ilk ijodi – “Kalaverasdan chiqqan mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa”, “Tennesida jurnalistika”, “Men qishloq xo'jaligi gazetasini qanday tahrir etdim” yumoristik hikoyalarida qiziq hodisa, latifa va uydirma voqealar tasvirlanib, matbuotdagi beburdliklar masxara qilinadi.

Mark Tven shu yillardayoq ijtimoiy hajviyaning ajoyib namunasi bo'lgan “Xitoylikning xati”, “Gubernatorlikka meni qanday sayladilar” (1870) hikoyalarida Amerika soxta demokratiyasini fosh etgan.

“Tom Soyerning boshidan kechirganlari” (1876) romani (A.Pirnazarov tarjimasini) Mark Tven ijodida yangi davr boshlanganini ko'rsatadi. Yozuvchi unda Amerika jamiyati voqeligiga emas, balki o'tmishga, o'zining yoshlik vaqtidagi hayotga, bolalarning “sof, poetik” dunyosiga murojaat etadi. Bolalar hayoti haqidagi bu kitobni yoshlar ham, kattalar ham qiziqib o'qiydilar, chunki unda insonning ichki dunyosi psixologik jihatdan asoslangan holda real bo'yoqlarda beriladi.

Roman qahramoni Tom kichik shahardagi meshchanlar ichida yashaydi. Xolasining beto'xtov nasihatlari, maktabda quruq yod oldirishdan iborat eskicha o'qitish usullari zerikarli

bo'lganidan u darsga qiziqmaydi, mashg'ulot vaqtida boshqa narsalarni o'ynab o'tiradi. Uning sho'xligi va o'yinqaroqligi o'sha voqelikka o'ziga xos norozilikdir. Tomning uysiz bola Gek Finnga havas bilan qarashi erkinlikka intilish alomatidir.

Romanda kulgili lavhalar jiddiy voqealar bilan aralash davom etadi. Tom Gek bilan kechasi qabristonga borib, hindi Jo tomonidan bir shifokorning o'ldirilishi voqeasini ko'radilar, so'ngra ular qotilni topishda tegishli kishilarga ko'maklashadilar.

Tomning yosh Bekkiga nisbatan bolalarcha sevgisi kishida ham zavq, ham yengil kulgi uyg'otadi. Asar, umuman, odamda bolalarning o'ziga xos harakatlariga nisbatan chin muhabbat hislarini ko'rsatib, ularning ichki dunyosini to'laroq tushunishga yordam beradi. Bu oddiy bolalar turmushda uchraydigan har xil voqealarga duch keladilar, lekin ular asosiy masalalarda to'g'ri fikr yuritadilar.

“Tom Soyerning boshidan kechirganlari” romanining tarbiyaviy ahamiyati katta. U bolalarni do'stlik, adolat, tashabbuskorlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Asarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda realizm (kichik shaharda istiqomat qiluvchi meshchanlar hayoti tasviri) bilan romantizm (Tom va do'stlarining xayoliy romantik dunyosi)ning mavjud bo'lishidir.

Mark Tven tarixiy mavzudagi romanlaridan biri “Shahzoda va gado” (1882)da garchi o'rta asr voqealarini aks ettirsa ham, lekin o'z zamonasidagi illatlarning negizini o'sha uzoq o'tmishda ko'radi va unga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Asardagi voqea XVI asrning birinchi yarmida Angliyada ro'y beradi.

Bir vaqtda bir-biriga o'xshagan ikki bola dunyoga keladi. Ulardan biri saroyda, ikkinchisi qashshoq xonadonda tug'ildi. Bular shahzoda Eduard bilan gadoy Tom Kentilardir. Eduard Tyudor saroyda shoh farzandi sifatida izzat-hurmat va farog'atda yashasa, Tom kambag'al oilada qashshoqlikning butun azob-uqubatlarini boshidan kechiradi.

